

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



Ro'yxatga olindi:
№ _____
2019- y. «__» _____

«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor:
_____ M.Jumamuratov
«__» _____ 2019- yil

O'ZBEK TILI KAFEDRASI
O'QITUVCHI NUTQI MUTOLAA SAN'ATI
fanidan

O'QUV USLUBIY MAJMUA
1-kurs bakalavriat ta'lif yo'nalishi talabalari uchun

Bilim sohasi:	100000 –	gumanitar
Ta'lif sohasi:	110000 –	pedagogika
Ta'lif yo'nalishi:	5111400 –	O'zga tilli guruhda o'zbek tili va adabiyoti

NUKUS-2019

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil “25” 08 dagi 6-sonli buyrug‘i bilan fan dasturlari asosida ishlab chiqilgan fan dasturi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: S.Jalilov – Nukus DPI O’zbek tili kafedrasи katta o‘qituvchi

Taqrizchi: M.Xudayarova – f.f.n., Nukus DPI O’zbek tili kafedrasи

O‘UM Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Ilmiy kengashining 2019-yil ____avgustdagи ____ sonli majlis qarori bilan foydalanishga tavsiya qilingan.

Mundarija

1.	O‘quv materiallar
1.1.	Ma’ruza (modul asosida).....
1.2.	Amaliy mashg‘ulotlar.....
2.	Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari uchun uslubiy ko‘rsatmalar
3.	Glossariy.....
4.	Ilovalar.....
4.1.	Fan dasturi.....
4.2.	Ishchi fan dasturi.....
4.3.	Tarqatma materiallar.....
4.4.	Testlar
4.5.	Baholash mezonlari.....
	Boshqa materiallar.....

O‘qituvchi nutqi mutolaa san’ati kursining maqsad va vazifalari.

Nutq madaniyati tarixi

Reja:

- 1.O‘ituvchi nutq madaniyati kursining dolzarbliji, uning maqsad va vazifalari.
- 2.Nutq madaniyati tushunchasi.
3. Nutq madaniyati kursining lingvistik va nolingvistik sohalar bilan aloqasi.
- 1.Qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik san’ati.
- 2.Sharqda notiqlik san`ati.
- 3.Tilning sofligi uchun kurash.
- 4.Til siyosatining shakllanishi.
5. Nutq madaniyati tarixi.

Tayanch tushunchalar::

Nutq madaniyati tushunchasi.

Nutq madaniyati va boshqa fanlar.

Notiq-nutq qiluvch.i

Sinegorlar-hozirgi advokatlar.

Logograflar -nutq matnlarini tuzib, yozib berish bilan shug ‘ullanuvchilar.

Epiteyktik notiqlik-tantanali notiqlik.

Nahv – (arabcha) sintaksis grammatica.

Nazm – (arabcha) she`riy asar, she`riyat janri, she`r o `lchovi.

Nasr – (arabcha) proza, prozaik asar, proza janri.

Mantiq – (arabcha) tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan; logika.

Nadimlar, qissago ’ylar, masalgo ’ylar, badihago ’ylar, qiroatxonlar

Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy maktablarda, o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlarida, umumiyligi o‘rtalik ta’lim mакtablar va umuman dars o‘tish jarayonini yaxshilash bilan ham bogliq. Shuni qayd qilish kerakki, bugungi kunda nutq madaniyati kursinining barcha o‘quv yurtlarida o‘rgatilishi quvonarlidir. Chunki notiqlik san`ati sirlarini o‘rganish, o‘z fikrini bayon qila olish, til vositasini kerakli va lozim bo‘lgan o‘rinda qo’llash, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. O‘zbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy o‘rganish ham o‘zbek nutqi madaniyati sohasi uchun nihoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til meyorlarining umumiyligi holatini, undagi turgun va noturgun hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish aslo mumkin emas.

Til ham, fe`l-atvor ham odamga qon bilan kirib, uning butun jismu joniga taralib ketuvchi ananalar ekan, bularga e`tibor bermaslik, hamisha katta-kichik fojalarni keltirib chiqaradi.

Nutq madaniyati fani o‘zbek tilshunosligining o‘ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingen bilimlarga suyangan holda to‘g‘ri va chiroyli nutq tuzish yo‘llarini o‘rgatadi. U til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Nutq madaniyati fan sifatida o‘z tekshirish obyekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til normalari va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli) fazilatlaridir. Nutq madaniyati nazariyasida til normasi markaziy tushunchadir. «Til madaniyatining asosiy tekshirish obyekti adabiy til normalari, asosiy vazifasi esa ushbu normadagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo‘lmogi kerak»

Shunday qilib, nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi undagi ba`zi unsurlarning eskirishi, ular o‘rnida yangi normativ unsurlarning paydo bo‘lishini ko‘zatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy normalarni yaratmaydi, ba’zi bir hodisalarni norma sifatida majburan kiritmaydi. Balki o‘zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini ko‘zatib boradi, ob`ektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining to‘liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi hech birimizga sir emas. Bu til diyorimiz vakillari uchun umumiy til sifatida shakllandı.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi jumxuriyatimizda davlat ishlarining, o‘qish-o‘qitish, ta’lim-tarbiya, targibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o‘rganish ishlari keng ko‘lamda olib borilyapti. Lekin, shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo‘lmish nutq madaniyati etarli taraqqiy etmaganligi achinarli bir holdir. Shu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o‘rganish oldimizga qo‘ylgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug‘ullanish ishiga faqat tilshunoslarga emas, balki jumhuriyatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vaqillari e`tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Shunki, nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bqlib, kishilarni yuksak madaniyatli bo‘lishlarini belgilaydi. Bu masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchidan, xalqaro hayotda ikki qarama-qarshi ijtimoiy gurux o‘rtasida mafkuraviy kurash nihoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mafkuraviy kurashning asosiy quroli bo‘lgan tilning har qachongidan ham o‘tqir va keskin bo‘lishini taqazo etadi. Prezidentimiz I.A. Karimov ham bunga alohida e`tibor berib bunday degan edilar: «G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin»: «...Eng dahshatlisi fikr qaramligi, tafakkur qulligi»...

«...Maktabda bolalar mustaqil fikr yuritishga o‘rgatiladimi, aminmanki o‘rgatilmaydi. Mabodo, biror o‘quvchi o‘qituvchiga e’tiroz bildirsa, ertaga hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagagi jarayonda o‘qituvchi

hukmron. U boladan faqat o‘zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishini talab qiladi. Prinsip ham tayyor: mening aytganim-aytgan, deganim-degan».

«O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo, bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir». (Barkamol avlod orzusi. 16-bet).

Nutq tadbirkorligini singdirish maktabda o‘qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashgulotgacha o‘quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Shu o‘rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Maxmudovning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlarini keltirib o‘tish lozim: «Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagisi, hech bir istisnosiz, barcha o‘quv fanlari ham bilvosita shugullanishi kerak. Matematika bo‘ladimi, fizika yoki tarix bo‘ladimi, o‘qituvchi o‘z nutqiy madaniyati bilan namuna ko‘rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo‘l bilan o‘quvchidagi so‘z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta’lim amaliyotida ko‘rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o‘qituvchi juda ko‘p vaqtini turli ko‘rgazmali quollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma`qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o‘rgatish, chiroyli so‘z zavqini o‘sirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko‘rgazmali qurol o‘qituvchining o‘zidir». («Ma`rifat manzillari» N. Mahmudov)

Akademik A.Hojiyev o‘zining «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati» kitobida nutq madaniyati terminiga quyidagicha t1rif beradi.

1. Filologiya fanining jamiyat taraqqiyotidagi tildan foydalanish jarayonini o‘rganish, kishilar orasidagi aloqa vositasi bo‘lgan tildan foydalanish qoidalarini ilmiy asosda belgilash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi.
2. Nutqning normativligi, uning ma’lum tarixiy taraqqiyot davrida shu tilda so‘zlashuvchi jamoa tomonidan qo‘yiladigan talablarga mosligi: talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, shakl yasalishi, so‘z birikmasi va gap tuzish meyorlariga amal qilish. Nutqning normativligi fikrning aniq,ravshan va sofligini ham o‘z ichiga oladi (yq-bet). Demak, nutq madaniyati tushunchasi ikki xil (tor va keng) ma’noda qo‘llanilar ekan.

Nutq madaniyati fani tilning hamma sohalari bo‘yicha adabiy til normalarini tadqiq qilib boradi. Eng maqbul hodisalarning adabiy normasini mustahkamlash uchun tavsiyalar beradi. Biroq bu fan adabiy normalarni yaratmaydi, b1zi bir hodisalarni norma sifatida majburan kiritmaydi. Balki o‘zbek milliy adabiy tili faoliyati, uning rivojlanishni kuzatib boradi, ob``ektiv qonunlarni kashf etadi, shular asosida ta’lim beradi.

Nutq madaniyati o‘zbek tilshunosligining nazariy bilimlariga suyangan holda to‘g‘ri va chiroyli nutq tuzish sanatini o‘rgatadi. U tarbiyashunoslikning malum sohasi sifatida chiroyli nutq sifatlari, nutq uslblari, kamchilik va xatolari,

nutqiy asoslari, ko‘rinishlari hamda talffuzga doir muammolari yuzasidan bilim beradi. Kishilarda madaniy nutq malakasini shakllantirish, yani adabiy til, umumtil mezonlariga, mavjud qoidalarga to‘la amal qilagan holda nutq tuzish malakasini shakllantirish nutq sanltining asosiy vazifalaridar. Shu bilan birga yaxshi nutqni baholash va targ‘ib qilish ham uning vazifasi doirasiga kiradi.

Nutq madaniyati kursi lingvistik sohalarning barchasi bilan chambarchas aloqador. Shunngdek u adabiyot, pedagogika, psixologiya, etika, estetika kabi fanlar bilan ham aloqadorlikka ega.

Umumiyl madaniyatni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblangan nutq madniyati, shuningdek nutq odobi, muomala madaniyati ularning o‘zaro munosabati kabilar yangi asr bo‘sag‘asida o‘zining umumjahon halqlari o‘rtasidagi o‘rni va mavqeini anglashga intilayotgan kishilar tomonidan o‘z-o‘ziga berilayotgan savollarga topilgan eng ixcham va ilmiy asosga ega javoblardan biri shuki, insonning kimligi uning ikki jihat - xatti-harakati va so‘zi (nutqi), odamlar bilan o‘zaro muomalasida namoyon bo‘ladi.

Notiqlik san'ti tarixidan. Qadimgi Rim va yunon notiqligi Reja:

- 1. Qadimgi Rim va yunon notiqligi.**
- 2. Notiqlik san'ati turlari.**

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar qadimgi Misr, Ossuriya, Bobil (Vavilon) va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san`ati tajribasidan ma'lum. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqliknini san`at darajasiga ko'targan edi. Chunki u paytlarda davlat arboblarining obro-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san`ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Bu ikki san`atni mukammal egallagan kishilargina yuqori lavozimlarga saylanganlar. Umuman etuk inson bo'lish uchun, albatta, notiqlik san`atini egallah shart qilib qo'yilgan. Grek notiqlari Demosfen, Aristotel va Rim notiqlari Siseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotlaribunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san`atining o'ziga xos maktabini yaratdilar. Sitseronning "Notiqlik haqida", "Notiq", "Brut" asalari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida", Aristotelning "Ritorika" kabi asarlari ham qadimgi Rim va Yunonistonda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi rivojlanganligini ko'rsatuvchi bir omildir.

Yunonistonda notiqlik sa'natinining yuzaga kelishiga turtki bergan sharoit va ijtimoiy omillar

Qadimgi Yunonistonda qabila boshliqlari, urug' oqsoqollari, harbiylar soyliklar va daryo havzalaridagi unumdar yerkarni egallab, o'z ustaxonalari va ekin yerlarida odam yollab ishlatar edilar. Bunday kishilar asta-sekin boyib, jamiyatning nufuzli tabaqalariga aylana bordilar. Aholining ko'pchilik qismini kambag'allar tashkil etar edi. Bunday tabaqalanish urush tufayli yana ham kuchayib borar, urushdan tushgan o'ljalilar evaziga qabila boshliqlari boyigan sari boyib borar, asir olingan kishilar hisobiga o'z qullariga ham ega bo'lar edilar. Bunday tabaqalanish oxir-oqibatda aslzodalarining xo'jalik yuritishini, savdo-sotiq, boshqa o'lkalar bilan aloqasini, harbiy ishlar yuritilishini nazorat qiladigan davlat xokimiyatiga ehtiyojni keltirib chiqardi. Yunonistonda bunday ishlarni amalga oshirish Xalq yig'inlari ixtiyorida bo'lgan. Xalq yig'inlarida qabila boshliqlari saylangan. Bunday shahardavlatlarning o'z qo'shini, qamoqxonalari, mirshablari, sud'yalar bo'lgan. O'rta Yunonistonning janubi-sharqida joylashgan viloyat Attika deb yuritilgan. Attikaning g'arbiy qismida tekislik mavjud bo'lib, uning o'rtasidagi tepalikda Afina shahri joylashgan. Miloddan avvalgi VI asrga kelib, bu shahar Attikada siyosiy va iqtisodiy ustunlikka erishib, viloyatning ma'muriy markaziga aylangan.

Miloddan avvalgi VII asrda davlatni urug' aslzodalari – evpatridlar boshqarar edi. Kengash a'zolari, xokimlar va sud'yalar ham faqat aslzodalardan saylangan. Bu davrda dehqonlarning ahvoli juda og'irlashgan. Tez-tez yuz berib

turgan qurg'oqchilik ularning ahvolining yana ham qiyinlashtirgan: ekin ekish uchun ularda urug'lik ham bo'lмаган. Dehqonlar boylardan pul qarz olib, qarzini vaqtida to'lashga qurbi yetmasa, butun oilasi bilan boyning quliga aylangan.

Afinada oddiy xalq demos deb yuritilgan, ular safiga dehqonlar, hunarmand kosiblar, dengizchilar, matroslar, mardikorlar kiritilgan. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda demosning bir qismi boyib ketgan va ular boy savdogarlar, kema va ustaxonalarining egalari va badavlat dehqonlarga aylanganlar, ularning o'z qullari ham bo'lgan. Biroq ularning ustidan hukmronlik ham aslzodalar qo'lida edi. Bu hol demos bilan evpatridlar o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga sabab bo'lgan edi. Demos davlatni idora qilishda ishtirok etishdan manfaatdor edi.

Miloddan avvalgi VI asr boshlarida oddiy dehqonlar qarzlarining bekor qilinishini, zamindorlardan yerlarni tortib olib, yersiz va kam yer dehqonlarga bo'lib berilishini talab qila boshladilar. Natijada demos bilan evpatridlar o'rtasidagi qonli to'qnashuvlar yuz berib, ikki tomonidan hamma odamlar halok bo'ldi. Vaziyatning bunday yakun topishidan qo'rqib ketgan aslzodalar, uni yumshatishga majbur bo'ldilar. Miloddan avvalgi 594-yilda o'ta bilimdon dengiz savdogari, jasur jangchi, shoir va notiq Solon aslzodalar tomonidan Afina arxonni, ya'ni hokimi etib tayinlandi. Solon hokimiyatni boshqarishga kirishgach, qator islohotlar o'tkazdi: qarzlar tufayli qulga aylangan dexqonlar qullikdan ozod qilindi, ozod afinaliklarni qul qilish ta'qiqlab qo'yildi. Afinaning har bir ozod fuqarosi Xalq yig'inlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Solon tomonidan o'tkazilgan islohotlarning notiqlikka bevosita dahldori – Afinaning har bir ozod fuqarosi sudda o'zini himoya qilishi lozimligi haqidagi qonun edi. Mazkur qonun Afinada notiqlikning rivojiga katta turtki berdi. Solon islohotlari natijasida Xalq yig'inining mavqeい mustahkamlandi, davlatni idora etish bilan bog'liq muhim masalalar Xalq yig'inida muhokama qilinadigan bo'ldi: hokimlar, sud`yalar va mansabdor shaxslar shu yig'inda saylanadigan bo'ldi. Attikaning voyaga yetgan har bir fuqarosi sud`ya sifatida saylanish huquqiga ega bo'ldi. Aytish mumkinki, ayni shu islohotlar ijtimoiy-siyosiy notiqlik uchun ham, sud notiqligi uchun ham, ularning yuzaga kelishi va rivoji uchun ham sharoit hozirladi.

Aristokrat oilasidan chiqqan Psistrat o'z tarafдорлари va yollanma askarlari yordamida miloddan oldingi 560 yilda Afinaning mustabid hokimi bo'lib oldi. U aslzodalarining yerlarini tortib olib, dehqonlarga ularshib berdi, dehqonlarga davlat tomonidan qarz berishni joriy etdi. Psistrat va uning o'g'illari saroyga eng yaxshi adiblarni to'pladilar. Gomerining "Odisseya" va "Iliada" dostonlari yozib olindi, dastlabki teatr paydo bo'ldi. Qadimgi Yunonistonda qabila boshliqlari, urug'oqsoqollari, harbiylar soyliklar va daryo havzalaridagi unumdar yerlarni egallab, o'z ustaxonalarini va ekin yerlarida odam yollab ishlatar edilar. Bunday kishilar astasekin boyib, jamiyatning nufuzli tabaqalariga aylana bordilar.

Aholining ko'pchilik qismini kambag'allar tashkil etar edi. Bunday tabaqalanish urush tufayli yana ham kuchayib borar, urushdan tushgan o'ljalar evaziga qabila boshliqlari boyigan sari boyib borar, asir olingan kishilar hisobiga o'z qullariga ham ega bo'lar edilar. Bunday tabaqalanish oxir-oqibatda aslzodalarining xo'jalik yuritishini, savdo-sotiq, boshqa o'lkalar bilan aloqasini, harbiy ishlar yuritilishini nazorat qiladigan davlat xokimiyatiga ehtiyojni keltirib

chiqardi. Yunonistonda bunday ishlarni amalga oshirish Xalq yig'inlari ixtiyorida bo'lgan. Xalq yig'inlarida qabila boshliqlari saylangan. Bunday shahar-davlatlarning o'z qo'shini, qamoqxonalari, mirshablari, sud'yalarini bo'lgan. O'rta Yunonistonning janubi-sharqida joylashgan viloyat Attika deb yuritilgan. Attikaning g'arbiy qismida tekislik mavjud bo'lib, uning o'rtasidagi tepalikda

Afina shahri joylashgan. Miloddan avvalgi VI asrga kelib, bu shahar Attikada siyosiy va iqtisodiy ustunlikka erishib, viloyatning ma'muriy markaziga aylangan. Miloddan avvalgi VII asrda davlatni urug' aslzodalarini – evpatridlar boshqarar edi. Kengash a'zolari, xokimlar va sud'yalar ham faqat aslzodalardan saylangan. Bu davrda dehqonlarning ahvoli juda og'irlashgan. Tez-tez yuz berib turgan qurg'oqchilik ularning ahvolining yana ham qiyinlashtirgan: ekin ekish uchun ularda urug'lik ham bo'lmasan. Dehqonlar boylardan pul qarz olib, qarzini vaqtida to'lashga qurbi yetmasa, butun oilasi bilan boyning quliga aylangan. Afinada oddiy xalq demos deb yuritilgan, ular safiga dehqonlar, hunarmand kosiblar, dengizchilar, matroslar, mardikorlar kiritilgan. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda demosning bir qismi boyib ketgan va ular boy savdogarlar, kema va ustaxonalarning egalari va badavlat dehqonlarga aylanganlar, ularning o'z quyllari ham bo'lgan. Biroq ularning ustidan hukmronlik ham aslzodalar qo'lida edi. Bu hol demos bilan evpatridlar o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga sabab bo'lgan edi. Demos davlatni idora qilishda ishtirok etishdan manfaatdor edi.

Miloddan avvalgi VI asr boshlarida oddiy dehqonlar qarzlarining bekor qilinishini, zamindorlardan yerlarni tortib olib, yersiz va kam yer dehqonlarga bo'lib berilishini talab qila boshladilar. Natijada demos bilan evpatridlar o'rtasidagi qonli to'qnashuvlar yuz berib, ikki tomonidan hamma odamlar halok bo'ldi. Vaziyatning bunday yakun topishidan qo'rqiб ketgan aslzodalar, uni yumshatishga majbur bo'ldilar.

Miloddan avvalgi 594-yilda o'ta bilimdon dengiz savdogari, jasur jangchi, shoir va notiq Solon aslzodalar tomonidan Afina arxonti, ya'ni hokimi etib tayinlandi. Solon hokimiyatni boshqarishga kirishgach, qator islohotlar o'tkazdi: qarzlar tufayli qulga aylangan dexqonlar qullikdan ozod qilindi, ozod afinaliklarni qul qilish ta'qiqlab qo'yildi. Afinaning har bir ozod fuqarosi Xalq yig'inlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Solon tomonidan o'tkazilgan islohotlarning notiqlikka bevosita dahldori – Afinaning har bir ozod fuqarosi sudda o'zini himoya qilishi lozimligi haqidagi qonun edi. Mazkur qonun Afinada notiqlikning rivojiga katta turki berdi. Solon islohotlari natijasida Xalq yig'inining mavqeい mustahkamlandi, davlatni idora etish bilan bog'liq muhim masalalar Xalq yig'inida muhokama qilinadigan bo'ldi: hokimlar, sudyalar va mansabdor shaxslar shu yig'inda saylanadigan bo'ldi. Attikaning voyaga yetgan har bir fuqarosi suda sifatida saylanish huquqiga ega bo'ldi. Aytish mumkinki, ayni shu islohotlar ijtimoiy-siyosiy notiqlik uchun ham, sud notiqligi uchun ham, ularning yuzaga kelishi va rivoji uchun ham sharoit hozirladi.

Aristokrat oilasidan chiqqan Psistrat o'z tarafdorlari va yollanma askarlari yordamida miloddan oldingi 560-yilda Afinaning mustabid hokimi bo'lib oldi. U aslzodalarning yerlarini tortib olib, dehqonlarga ularshib berdi, dehqonlarga davlat tomonidan qarz berishni joriy etdi. Psistrat va uning o'g'llari saroyga eng yaxshi

adiblarni to'pladilar. Gomerning "Odisseya" va "Iliada" dostonlari yozib olindi, dastlabki teatr paydo bo'lди.

Yunon notiqligining dastlabki bosqichlari va uning boshlanishi bilan bog'liq ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan emas. Albatta, yunonlarning davlat boshliqlari chetdan bo'ladijan hujumlarga xalqni, o'z armiyasini jangga ilhomlantira oladigan sarkardalar, so'zamol kishilar, usta notiq bo'lganlari ayon. Lekin tarixchilarning asarlarida ham bu haqda guvohliklar uchraymaydi. Bu haqda ayrim ma'lumotlar uchraydigan manba Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlaridir.

Gomerning "Iliada" dostoni Ilion shahrining nomi bilan bog'liq bo'lib, yunonlar Troya shahrini Ilion deb ataganlar. Doston Troya voqealari haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan. Asar gekzametr – uzun va qisqa bo'g'inlar almashinuviga asoslangan she'riy o'lchovda yozilgan va 24 kitobni tashkil etadi.

Notiqlik sanati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning quyidagi turlarini ko'rshimiz mumkin:

- 1.Siyosiy-ijtmoiy notiqlik (siyosiy, iqtisodiy sohadagi, sessiya, anjumandagi, diplomatik, harbiy vatanparvarlik, miting nutqi va h.)
- 2.Akademik notiqlik (o'quv yurtlaridagi, ilmiy ma'ruzalar, ilmiy sharh, axborot kabi)
- 3.Sud notiqligi (Qoralovchi, oqlovchi, o'z-o'zini himoya qilish kabi).
- 4.Ijtimoiy-maishiy notiqlik (madhiya, yubiley yoki maqtov, t1ziya (motam),tabrik (tost, alyor) nutqi kabilar.
- 5.Diniy notiqlik (xutba, va'z)

Yunonistonda sud jarayonida boshqa birov manfaatini ko'zlab nutq so'zlovchilar *sinegorlar (hozirgi advokatlar)* deyilgan. *Logograflar* ded ataluvchi toifalar esa sinegorlarning bir ko'rinishi bo'lib, nutq matnlarini tuzib, yozib berish bilan shug'ullanganlar.

Afina tuprog'ida notiqlik sanatiga juda qiziqish natijasida uning yangi-yangi turlari yuzaga kela boshlagan. Ana shulardan biri *epideyktik notiqlik*, yani tantanali notiqlikdir.

Demosfen nutqlari tili va uslubi

Demosfening tili – o'z davrining sof attika tili. U o'z nutqida arxaizmlardan foydalanmaydi, poetik so'zлarni ishlatmaydi, Fukididga o'xshab yangi so'zlar yasamaydi. Dionisiyning qayd etishicha, Demosfening kengashga oid nutqlari, suddagi so'zlagan nutqlariga nisbatan yuqori uslubda. Ayrim shaxslar uchun tayyorlagan nutqlarida ba'zan og'zaki xalq nutqiga xos ifodalar, xalq maqollaridan foydalangan. Ayrim nutqlarida Fukidid uslubiga xos oborotlardan foydalanganligi seziladi: infinitivdan, o'rta jinsdagi sifatlardan foydalananishi kuzatiladi. Infinitivdan foydalananishi natijasida uning dastlabki nutqlarida aniqlikka putur yetgani seziladi. Ko'p o'rnlarda birgina tushuncha ifodasida sinonimlardan foydalananish hollari uchraydi: bundan maqsad esa tinglovchilarning diqqatini ayni tushunchaga qaratishdan iborat: "Mayli aytishsin va maslahatlashishsin", "xursand bo'lmoq va

shodlanmoq”, “yig’lamoq va ko’z yoshi to’kmqo”, “so’zlar va nutqlar” kabi. Isokratning ta’limotiga ko’ra, bir so’zning oxirida va ikkinchi so’zning boshlanishida ikki unlining qator kelishi nomaqbul holat sanalgan, Demosfen ham bu qoidagi o’zining dastlabki nutqlarida amal qilgan bo’lsa ham, keyingi nutqlarida bundan chekingan. Demosfen o’z nutqlarida qisqa bo’g’inlarning bir o’rinda yig’ilib qolishiga yo’l qo’ymagan, uzun bo’g’inlardan foydalanishi natijasida xushohanglikni ta’minlagan. U mantiqiy urg’u olgan so’zlarni gaplarning boshiga va oxiriga joylashga harakat qilgan. Bu hol gap bo’laklarining erkin o’rinlashuvini ta’minlagan. Galikarnaslik Dionisiy va Sitseron Demosfen nutqlarida davrlarning simmetrik joylashuvini qayd etishgan. Ayni jihat uning nutqlariga xushohanglik baxsh etgan. Demosfen bir so’zni jumlalar boshiga joylashni, ya’ni anaforadan foydalanishi xush ko’rgan. Uning uslubiga xos jihatlardan yana biri antiteza bo’lib, ko’proq qiyosga asoslangan. U o’z nutqida ritorik so’roqlardan keng foydalangan: “Xo’sh, buning hammasiga sabab nima?”, “Nega men buni hozir gapiryapman?” kabi. Demosfen o’z o’tmishdoshlaridan farqli ravishda qoliplashgan ifodalardan foydalanmagan, rang-barang holda ular tili va uslubining eng yaxshi xislatlarini o’zlashtirgan. Dionisiyning e’tiroficha, uni alohida uslubning vakili sifatida ajratish qiyin, unda turli uslubning qorishmasini kuzatish mumkin.

Demosfen nutqlariga xos jihatlarni uning siyosiy faoliyati ham belgilaydi: shuning uchun uning nutqlari siyosiy jihatdan o’tkir va mazmundorligi bilan ajralib turar edi, bundan tashqari, vatan taqdiri, mamlakat aholisining taqdiri uchun qayg’urish, uning dushmanlariga nafrat tuyg’ulari bilan sug’orilgan edi.

Demosfen nutqining ta’sirchanligini ta’minlagan omillardan yana biri fikrini jonli tarzda tinglovchilarga yetkazish, noverbal vositalar – tana xarakati, qo’l harakati, yuz ifodalaridan unumli foydalanishidir. Bu haqda Avl Gelli: “Nutqni talaffuz etish – uning ritmi va pafosi bilan birga, kuylashga o’xshaydi”, – degan edi.

Sitserondek talabchan notiq Demosfen notiqligida o’zi orzu qilgan notiqni ko’rgan: “...Men hammadan yuqoriga Demosfenni quydim va faqat uning kuchi men boshqa notiqlarda ko’rganim suxandonlikda emas, balki men orzu qilgan suxandonlikka mos keladi. Hech kim na salmoqdorlikda, na latofatda, na me’yorda undan o’tib ketolmagan”, – deb baho bergan. Xullas, Demosfen Yunonistonning sodiq farzandi sifatida o’z xalqi va vatani taqdirini o’z taqdiridan ajratmagan inson edi. Bunga uning o’zi aytgan quyidagi so’zlari guvohdir: “Notiqda na so’z, na uning ovozidagi tovush qadrli emas, aksincha, undagi eng qimmatli narsa shuki, xalq nimagaki intilgan bo’lsa, u ham shunga intilsin, vatani kimni sevsaga yoki yomon ko’rsa, u ham o’shalarni yomon ko’rsin yoki sevsin”.

Aristotel (er. ol. 384-322)

Aristotel miloddan avvalgi 384-yilda Stagir shahrida tug’ilgan. Otasi Makedoniya podshohining saroy tabibi edi. Sharqda Arastu nomi bilan mashhur bo’lgan Aristotel` – jahon falsafasi va fanlari rivojiga katta hissa qo’shgan Yunonistonning qadimgi mutafakkiri va qomusiy olimi edi. U 20 yil davomida Afinadagi Platon tashkil etgan akademiyada ta’lim oldi. Miloddan avvalgi 343 yildan e’tiboran Makedoniya podshosi Filippning o’g’li va taxt vorisi –

makedoniyalik Aleksandrning tarbiyachisi vazifasida xizmat qildi. 335 yilda Afinada o'z Likey maktabini ochdi va shu yerda shogirdlariga dars berdi. Qadimgi Yunonistonda bu maktab peripatitiklar maktabi nomi bilan mashhur bo'ldi. Aristotel` bu maktabida 13 yil ustozlik qildi, 63 yoshida kasallikdan vafot etdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, u Platon akademiyasida ta'lim olgan paytlarida bilimga chanqoqligi va mehnatsevarligi bilan ajralib turgan, keyingi yillarda shu yerda shogirdlarga ustozlik qilgan. Shu barobarida akademianing rahbari Platon mehrini ham qozongan. Hatto u yashagan uy “o'quvchining uyi” nomi bilan atalgan. Bu qaratkichli birikma nom Platonning o'zi tomonidan berilganligiga ishora qiladi. Platon ko'pincha, “O'quvchining uyiga ketdik”, – degan jumla bilan murojaat qilgan. Yuqoridagi jumlada Platon qo'llangan “o'quvchi” so'zi hozir biz tushungan ma'noda emas, balki Aristotelning bilimga chanqoqligi, ishtiyoyqini ifodalaydigan boy ma'noga ega. Keyingi jumla esa Platonning o'z shogirdiga hurmati va ixlosining naqadar kuchli bo'lganini dalillaydi. 343 yilda Makedoniya podshosi Filip o'g'li Aleksandrga ustozlik kilishni taklif etadi. Aristotelning Aleksandrga ustozligi 340 yilgacha davom etgan. Aristotel` unga Yunoniston va Eron tarixi, geografiya, etika, siyosat, poeziyadan dars beradi. Ko'proq Gomer ijodini o'rgatadi.

Aristotelning qiziqish doirasi juda keng bo'lgan, uning ilmiy ijodiga mansub asarlarini tematik jihatdan yetti guruhga ajratadilar: 1. Mantiqqa oid traktatlar. 2. Fizikaga oid traktatlar. 3. Biologiyaga oid traktatlar. 4. Falsafaga oid traktatlar. 5. Etikaga oid traktatlar. 6. Ijtimoiy-siyosiy va tarixiy asarlar. 7. San'at, poeziya va ritorikaga oid asarlar. Bu borada yettinchi guruh tarkibiga kiritilgan “Ritorika” asari notiqlik tarixi va nazariyasini o'rganishda eng qimmatli manbalardan hisoblanadi. Aristotelning ilmiy merosi jahon fanlari va falsafasiga juda katta ta'sir qildi, ma'naviy madaniyatning taraqqiyotida katta rol` o'ynadi. Uning vafotidan so'ng u asos solgan peripatitiklar maktabiga Feofrast, Straton, Afrodeziy kabi shogirdlari rahbarlik qildilar. Aristotelning ilmiy merosi Sharq mamlakatlariga ham katta ta'sir etgan. Xususan, Markaziy Osiyo olimlaridan Abu Nasr Forobiy Aristotelning “Metafizika”, “Jon haqida”, “Etika”, “Kategoriylar”, “Topika”, “Analitika” va boshqa asarlariga sharhlar yozdi va uning ilmiy qarashlarini rivojlantirdi. Bu xizmatlari uchun Aristoteldan keyin “Ikkinchi muallim” unvoniga sazovor bo'ldi, “Sharq Arastusi” nomi bilan ulug'landi. Ibn Sino esa “Uchinchi muallim” unvoniga loyiq topildi. Ularning asarlari 12-13 asrlardayoq lotin tiliga tarjima qilindi. Aristotel` ilmiy merosi ichida notiqlik tarixi va nazariyasini o'rganishda “Ritorika” asarining o'rni beqiyosdir. Quyidagi ma'lumotlar shu asarga tegishlidir. Bu asar miloddan avvalgi 335 yilda, ya'ni Aristotelning Afinaga qaytib, o'z maktabini ochgan yilda yozildi, unda notiqlik nazariyasi bayon qilingan.

“Ritorika” uch kitobdan iborat bo'lib, har bir kitob muayyan masalani o'z ichiga oladi: Birinchi kitobda nutq xizmat qilishi lozim bo'lgan printsiplar yoritilgan. Ikkinchi kitobda notiq uchun zarur bo'lgan xususiyat va qobiliyat bayon qilingan. Uchinchi kitobda nutq texnikasi va uslublari haqida bahs yuritilgan.

Bu o'rinda nutqqa xos bo'lgan texnik jihatlar va uslublar yoritilgan uchinchi kitob yuzasidan fikr yuritiladi. Uchinchi kitobning birinchi bobi kirishdan iborat bo'lib, unda “Ritorika” ning oldingi I va II kitoblarida yoritilgan mavzular jamlangan holda keyingi bayonning mavzulari belgilangan. Xususan, I va II kitoblarda antik

ritorikada “izlab topish” nomi bilan yuritilgan tushunchaning argumentlarini topish va ular yordamida hissiy ta’sir etish masalalari qayd etilgan. “Ishontirish” tushunchasi II kitobda yoritilgan. Unda ishontirishga qanday erishish mumkinligi: eshituvchining hissiyotiga ta’sir etish, tinglovchilar ongida yoqimli tasavvur uyg’otish, mantiqiy argumentlar keltirish orqali maqsadga erishish mumkinligi haqida qisqa bayon berilib, uslub masalasi navbatdagi mavzu ekanligi aytilgan. Aristotel` yoritilishi zarur masalani shunday tasvirlaydi: “Nimani gapirishning o’zi yetarli emas, qanday gapirishni ham bilish lozim, bu nutq orqali zarur tasavvurlarni uzaga keltirishga ko’p yordam beradi”. Ayni fikrlarni aytish bilan mavzuni deklamatsiya masalasiga bog’laydi. Unga ko’ra, deklamatsiyada muhim jihat ovozdadir, hissiyotlarni ifodalashda kuchli, sokin, o’rta, yuqori ovozda so’zlashni bilish lozim. Ovozning kuchi har bir vaziyatga mos ravishda ohangdor va muayyan ritmga ega bo’lishi kerak. Diqqatni jalb qiladigan uch narsa bor: bor ovozda gapirish, musiqiylik va ritm. Hamma holatda ham, oz darajada bo’lsa ham, uslubga e’tibor bilan qarash lozim. Ritorikani qadimgi yunonlar boshqariluvchi faoliyat deb tushunganlar. Ular turli ijodiy eksperimentlar olib borib, bu tajribalar tinglovchining talabiga bo’ysundirilgan holda kechgan edi. Notiqlik san’atining maqsadi turli tajribalar asosida ommanning hissiyotiga ta’sir etib, o’z navbatida, ommanning javob reaktsiyasini boshqarishga yo’naltirilgan edi. Aristotel` yuqoridagi fikrlarda ritorikaning ayni jihatlarini ta’kidlagan ko’rinadi. Mazkur asarning ikkinchi bobi “Uslubga qo’yiladigan talablar – aniqlik va o’rinlilik” deb nomlangan.

Sarlavhaning o’zidan ko’rinishicha, aniqlik va o’rinlilik ushbu bobning asosiy masalasidir. Aristotelning ko’rsatishicha, aniqlik uslubning qimmatli jihatidir, bunga dalil shuki, agar nutq aniqlik darajasiga olib borilmas ekan, u o’z vazifasini bajarmaydi. U yana tuban ham bo’lmasin, bo’rttirib ham yuborilmasin, ammo o’rinli bo’lishi kerak, aytaylik, poetik uslub tuban bo’lmasa ham, proza uchun o’rinli emas. O’z ma’nosida qo’llangan ot va fe’llar uning aniqligini ta’minlaydi. Odatdan tashqarilik uslubni tantanavor ko’rsatadi, chunki kishi bunday uslubdan xuddi xorijlik o’zga yerdan boshqacha tasavvur olganday ko’yga tushadi. Odatdagidan tashqarilik kishini hayratlantiradi, hayratlanish esa yoqimlidir. Aristotel` mazkur bobda sinonimlarning ko’proq shoirlar uchun, omonimlarning sofistlar uchun foydali ekanini aytib o’tadi. Metaforadan foydalanishda e’tiborliroq bo’lishni maslahat beradi: “Prozada bunga (metaforaga) diqqatliroq bo’lish lozim, chunki proza poeziyaga qaraganda kamroq yordamchi vositalarga ega. Metafora aniqligi, yoqimliligi, odatdan tashqariligi bilan ham ajralib turadi, uni hech kimdan qarz olish mumkin emas”. “Shu bilan birga, agar sen nutq predmetini bezashni istasang, metaforani shunga o’xshash narsalar qatoridan yaxshisini tanla, agar qoralashni istasang, yomonini ol”. Aristotel` metaforani yaxshi tuzilgan topishmoqqa o’xshatadi, lekin undan ham o’rinli foydalanishni maslahat beradi. Asarning uchinchi bobি nutq hashamadorligi sabablariga bag’ishlanadi. Bu bobda muallif nutqni hashamor qiluvchi to’rt sababni yoritib bergan. 1. Ikki o’zakli so’zlar. Bu o’rinda biz tushungan qo’shma so’zlar nazarda tutilgan. Hozirgi paytda ko’proq ular terminologik leksikada ko’zga tashlanadi. Qadimgi yunonlarda bunday so’zlar poetik nutqning bezakdorligi, jimjimadorligi uchun xizmat qilgan. Shuning uchun

prozaik nutqda ulardan foydalanish o'rinsiz hisoblangan. 2. Noodatiy so'zlar. Mazkur so'zlar qatoriga mualliflar tomonidan yasalgan, hozirgi paytda individual-muallifiy deb yuritilayotgan co'zlar kiritiladi. Shoirlar ijodidan ularga ko'plab misollar keltirish mumkin. 3. Epitetlarni suiste'mol qilish. Aristotel` Gomerning dostonlarida ko'p ishlatilgan "oq sut" birikmasida qo'llangan "oq" kabi barqaror yoki predmetga xos doimiy belgini ifodalovchi epitetlarni ishlatishni nazarda tutadi. Bu hol poeziya uchun mumkin, biroq prozada o'rinsiz ekanligi, ya'ni nuqson hisoblanishi eslatib o'tiladi. 4. Metaforadan o'rinsiz foydalanish. Aristotel` Gorgiy qo'llagan ayrim metaforalarning o'rinsizligi, faqat hasham uchun ishlatilganini tanqid qiladi. Masalan, "Sen uyatli ekin ekding va achchiq hosil olding". To'rtinchi bob o'xshatish haqidagi talqinlarni o'z ichiga oladi. Aristotel` metafora bilan o'xshatish orasidagi farq kamligini, "xuddi sherdai tashlandi" – o'xshatish, "sher tashlandi" – metafora misollarini orqali ko'rsatib beradi. Perikl tomonidan qo'llangan o'xshatishlardan misollar beradi: Samosliklar go'daklarga o'xshaydi, o'ziga tegishli bo'laklarni oladilar-da, yana yig'laydilar. Xuddi dublar bir-biri ustiga yiqilganiday, bir-biri bilan jang qilayotgan biotiyaliklar ham dublarga o'xshaydi. "Ritorika" ning beshinchi bobida nutqning sofligi va uning shartlari yuzasidan bahs yuritiladi. Uning tarkibida quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Yuklama va bog'lovchilarni to'g'ri qo'llash.
2. Ifodaning aniqligi (sintaktik aloqaning aniqligi, hamma narsani o'z nomi bilan ifodalash).
3. Ikki ma'nolikka yo'l qo'ymaslik.
4. Grammatik jinsga rioya qilish.
5. Grammatik songa rioya qilish.
6. O'qishga qulaylik (talaffuz qulayligiga erishish). Tinish belgilarini o'rnida ishlatish ham shu tarkibga kirgan. Uslubning tantanavorligi oltinchi bobda yoritilgan. Tantanavorlikni yuzaga keltiruvchi usullarga quyidagilar kiritilgan:
 1. Nom o'rnida tasviriy ifodani qo'llash, qisqalikni ta'minlash uchun tasviriy ifoda o'rnida nomning o'zini qo'llash.
 2. Metafora va epitetylardan foydalanish, biroq poetiklikdan saqlanish.
 3. Birlik son o'mida ko'plikni qo'llash.
 4. Artiklni o'rnida qo'llash, ya'ni ikki nomni o'z artikli bilan ishlatish.
 5. Nutqda bog'lovchilardan foydalanish, qisqalik uchun ulardan foydalanmaslik.
 6. Inkor orqali tasvirlash. Bu o'rinda Aristotel` – siz va be-, no- qo'shimchalari bilan yasalgan so'zlarni nazarda tutgan. O'rinnilik yettinchi bobdan joy olgan. Uslubning bu belgisi sifatida quyidagilar belgilangan: Nutqda ehtiros va xarakter ifodalansa va o'z predmetiga mos bo'lsa, uslub o'rinli hisoblanadi: muhim narsalar haqida jo'n gapishtirish, odatdag'i narsalar haqida tantanavor gapishtirish o'rinli emas. Alamli narsa haqida g'azabli gapishtirish, gunohli va uyatli voqe'a haqida qo'rquinchi gapishtirish, maqtovli narsa haqida hayrat bilan gapishtirish, achinarli narsa haqida alamli gapishtirish zarur. Agar bularga rioya qilinmasa, nutqning sun'iyligi sezilib qoladi.

Yosh jihatidan farqlarga mos ravishda gapishtirish ham, nutq egasining qaerlik ekaniga qarab ham nutqni moslash orqali o'rinnilik ta'minlanadi. Bu o'rinda Aristotel` etopeyani nazarda tutadi. Sofistlar sud jarayoni uchun nutq yozganlarida bunga katta e'tibor bergenlar. Bulardan tashqari, Aristotel` nutqda tilga olingan

voqeа tasviriga mos ravishda yuz ifodalarini o'zgartirib turish ham o'rirlilik hisoblanishini aytib o'tgan. Sakkizinchи bob nutqning ritmi bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan. Aristotelga ko'ra, uslubning qiyofasi o'lchovli ham, ritmsiz ham bo'lmasligi lozim, o'lchovli bo'lsa, sun'iylik kelib chiqadi, ritmsiz bo'lsa, yoqimsiz va mujmal bo'ladi. Shuning uchun nutq ritmga ega bo'lishi lozim, biroq o'lchovsiz bo'lishi lozim, aks holda, bu she'rga aylanadi. Bundan xulosa qilinsa, ritmda mo"tadillikni topish lozim. Bu fikrlar Aristotelning nutqqa nisbatan estetik munosabatini anglatadi. To'qqizinchи bob "Tubanlashtiruvchi uslub va qorishiq uslub" nomida berilgan. Aristotelning bayoniga ko'ra, tubanlashtiruvchi uslub – tarixiy uslub: "Geradotning tarixni bayon qilish uslubi bo'lib, undan hamma foydalangan, hozir ayrimlar foydalanadi, xolos. Tubanlashtiruvchi deb yuritilishi shuki, mavzuga asos qilib olingan predmet tasviri tugamaguncha, oxiriga ega emas. U chegaraning yo'qligi uchun yoqimsiz, axir hamma oxirini bilishni xohlaydi. Qorishiq uslub davrlardan tarkib topadi. Men davr deganda, shuni nazarda tutamanki, o'z boshi va oxiriga ega bo'lgan parcha bo'lib, yaxshi ko'zga tashlanib turadigan davomiylig bo'ladi. Bunday parcha yoqimli va oson o'zlashtiriladi. Bunday uslubdan tinglovchi doimo tugallangan narsani oladi, axir o'z oldingda biror narsani ko'rmaslik va biror mo'ljalga yetolmaslik juda yoqimsiz, uning osonligi shundaki, yaxshi eslab qolinadi... Shuning uchun ham prozadan ko'ra she'rni hamma yaxshi eslab qoladi, chunki she'rdagi o'lchovda miqdor mavjud... Davrlar kolonlardan tarkib topadi yoxud oddiy bo'ladi. Kolonlardan tarkib topgan davr tugallangan, tarkiblangan va bir nafas bilan talaffuz qilinadigan bo'ladi". Bundan so'ng muallif davr va kolonlarning cho'ltoq ham, ortiqcha cho'ziq ham bo'lmasligini, cho'ltoqlik tinglovchining mazmunni o'zlashtirishda qoqilishiga sabab bo'lishini, ortiqcha cho'ziqlik ham maqsadga muvofiq emasligini uqtiradi.

"Nafislikka erishish vositalari va tahsinga sazovorlik" "Ritorika" ning o'ninchи bobida bayon qilingan. "Nutq o'tkirlik va maftunkorlikni qaerdan oladi?" degan savolni qo'yish bilan Aristotel` bobni yoritishga kirishadi. Bunga erishish talantli va tajribali ritorning ishi ekanligiga urg'u beradi. Uningcha, nutqda o'tkirlik va maftunkorlikka erishishning usullari ko'p. "So'z nimanidir bildiradi, so'zlar orasida nimalargadir o'rgatadiganlari biz uchun ma'qullaridir. Umumiste'moldagi so'zlar bizga shunday ham tanish, shuning uchun ham metafora xohishimizga ko'proq mos keladi. Masalan, shoир qarilikni "hosili o'rib olingan o'simlik tanasi" deb nomlasa, u orqali gullab bo'lgan nima haqidadir bilim beradi. Shoirlarning o'xshatishlari, agar ular yaxshi tanlab olingan bo'lsa, shunday tasavvur beradi. Biroq o'xshatish cho'ziqroq, u nimaning nima ekanligini tasdiqlamaydi. Shunday qilib, uslub qachonki muayyan bilim berishga xizmat qilsa, u nafis uslub sanaladi". Aristotel` ko'plab metaforalarni misol sifatida keltirib o'tadi. Ular orasida Perikl tomonidan aytilgan metaforaning juda maftunkorligini aytib o'tadi: Urushda halok bo'lgan yoshlar, kimdir yil fasllari orasidan bahorni olib tashlaganday, shahardan g'oyib bo'ldilar (Bu o'rinda misol metafora sifatida emas, o'xshatish ko'rinishiga ega).

Aslida "Shahar bahoridan mahrum bo'ldi" yoki "Urush tufayli shahar bahoridan ayrildi" tarzida bo'lishi kerak. Ushbu bobda Aristotel` sofistlar ijodida keng qo'llangan entimema – haqiqatmandlik orqali tasvirda go'zallikka erishish usullari sifatida o'hshatish va metaforalardan o'z zamonasi mualliflaridan ko'plab misollar

beradi. Demak, entimema tushunchasi o'z tarkibiga o'xshatish va metaforalarni ham qamrab oladi. Aristotel` bu bobda o'xshatish va metaforalarni kishi bilim doirasini kengaytiruvchi vositalar sifatida tasvirlaydi. Bu o'rinda muallif nutqda tahsinga sazovorlikka yuqori baho beradi. O'n birinchi bob nutqning ko'rgazmalilikiga bag'ishlangan. Aristotel` nutqda ko'rgazmalilikka qanday usullar bilan erishish mumkinligi yuzasidan o'z qarashlarini bayon qiladi. Uningcha, ifodada ko'rgazmalilikka erishishning sharti – narsa-hodisani harakatda ko'rsatishdir. Yaxshi kishini "to'rtburchak" deb aytish – metafora, chunki to'rtburchak ham, yaxshi kishi ham mukammal, biroq bu metafora harakat ifodalamaydi, "u o'z kuchi bilan gullayapti" – harakat ifodalaydi. Gomer jonsiz narsalarni jonlantirib, metafora qo'llar edi: Tog' bo'y lab tekislikka aldovchi tosh yumaladi. Bu o'rinda "aldovchi" so'zi orqali tosh shaxslantirilyapti. Adabiyotshunoslikda personifikatsiya termini qo'llanib, jonlantirish, shaxslantirish so'zları orqali beriladi. Ko'rgazmalilikka metafora orqali yuzaga keltirilgan aldov orqali ham erishish mumkin. Bunda tinglovchi metaforada yuzaga keltirilgan ziddiyatli holatni anglab yetgach, "Bu qanday ishonchli! Men bo'l sam, boshqacha o'y labman..." – degan fikrga keladi. Aleksandr aytganiday: O'limga sazovor bo'l may, o'lish naqadar go'zal". Keltirilgan misolda paradoksal holat bor: uni turlicha talqin qilish mumkin, hali hech narsaga ulgurmay o'lish afsuslanishga sabab bo'lishi mumkin; shunday o'limning go'zalligi – qarama-qarshi holat.

Aristotel` mubolag'a (giperbola) orqali ham ko'rgazmalilikka erishish haqida fikr yuritadi: "Filamonning o'z qopi bilan qanday mushtlashayotganini ko'rsang edi". Bu o'rinda Filamonning ishdan bo'sh paytida musht jangiga qop bilan mashq qilib tayyorlanishi aks ettirilgan. Asarning o'n ikkinchi bobi uslubning asosiy turlariga bag'ishlangan. Bu bobda Aristotel` quyidagi asosiy uslublarni ajratib ko'rsatadi.

Uningcha, nutqning har bir turi uchun alohida uslub mos kelishini unutmaslik kerak. Yozma nutq uchun uning o'ziga mos, bahs olib borish uchun esa boshqa uslub to'g'ri keladi, bir uslub yig'ilishlar, boshqasi suddagi nutqqa mos keladi. Ikkala uslubni ham egallah lozim. Ikkinci uslubni bilish bahs nutqi uchun mo'ljallanib, yunoncha sof gapira bilishni taqozo etadi; birinchisini bilish indamay turish xavfidan, ya'ni birovga nimanidir bayon qilishni bilmaydiganlar bilan ro'y beradigan xavfdan qutilish uchun zarur. Yozma nutq uslubi – eng mukammal nutqdir. Bahs uchun mo'ljallangan uslub hammadan ham aktyorlar o'yiniga mosdir. Uning ikki ko'rinishi bor: biri xarakterni ifodalasa, ikkinchisi – ehtirosni aks ettiradi. Shundan ma'lumki, p`esa yozuvchilar shunday aktyorlarni izlasa, aktyorlar shunday p`esa yozuvchilarni axtaradilar... Shunga o'xshab, bog'lovchisizlik va ko'p marta takrordan foydalanish yozma nutq tomonidan inkor qilinadi, og'zaki bahsda bunday vositalarga haqiqiy notiqlar murojaat qiladilar... "Mana u sizning qarshingizda, o'sha o'g'ri, mana u, o'sha aldoqchi, mana u...". Agar kimki, bunday hollarda aktyorlik o'yinini olib bormasa, u aravani quruq olib qochqanday bo'ladi. Bog'lovchisizlik bilan ham shunday yo'l tutish lozim: "Keldi, uchratdi, iltimos qildi". Bundan foydalanganda, bir xil talaffuz, bir xil ifoda, bir xil ohangdan qochish kerak. Yana bir xususiyati bor: birdaniga ko'p narsa aytilganday tasavvur beradi... Xalq majlisiga mo'ljallangan nutq uslubi xuddi tasviriy san'atdag'i oqish-qoramtir bo'yoqlarga o'xshaydi: olomon qanchalik ko'p bo'lsa, nuqtai nazarlar ham

bir-biridan uzoq bo'ladi, shuning uchun muxtasarlik ortiqcha, hatto nuqson hisoblanadi". "Epideytik uslub ko'proq yozma bayonga yaraydi va o'qib berishga mo'ljallangan; undan keyin sud nutqi uslubi keladi. Uslubni yana boshqa turlarga ajratish ortiqcha". Bu o'rinda Aristotel` shirinsuxanlik yuqorida ko'rib o'tilganlarni qorishtirish orqali yuzaga kelishini, biroq bunda ham o'rinlikka rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

"Ritorikaning o'n uchinchi bobি nutqning qurilishiga bag'ishlangan. Aristotelning fikricha, nutq ikki qismdan iborat: boshlanishda bahsli masalaning mohiyatini aytish, keyin isbotlash zarur... Xuddi dialektikadagidek vazifa va uni hal qilishga ajratilganidek, birinchisi taqdim etish, ikkinchisi isbotlashdir. Ular umuman har qanday nutqqa xos. Biroq ko'pchilik nutqlarning bo'linishi quyidagilardir: kirish – taqdim etish – isbotlash – xulosalash. Aristotel` asarining o'n to'rtinchi bobini "Kirish" deb nomlagan va quyidagicha izohlagan. "Kirish - she'rdagidek muqaddima va nayda ko'y chalishdagidek daromad, nutqning boshlanishidir. U ham, bu ham, uchinchisi ham xuddi keyingisiga yo'l tayyorlovchi – boshlanish..."

Epideytik nutqda kirish maqtovni yoki koyishni o'z ichiga olishi mumkin: Gorgiy o'zining "Olimpiy nutqlari"da shunday yo'l tutadi: O ellinlar, ko'plardan ko'ra Siz hayratga loyiqsiz!" U butun ellin bayramlarini joriy etganlarni maqtaydi; Isokrat bo'lsa, aksincha, ularni jismoniy muvaffaqiyatlarni tuhfalar bilan siylaganlari, ammo aql kuchi uchun hech qanday mukofot belgilamaganlari uchun koyiydi... Umuman, epideytik nutqning kirishi maqtovdan, qoralashdan, ko'ndirishdan, qaytarishdan, tinglovchilarga murojaatdan tashkil topishi mumkin. Sud nutqlarida kirishning kuchi dramatik asarlardagi prologlarda, epideytik nutqlardagiday qimmatga ega. Kengash nutqiga xos kirish xuddi suddagidek kechadi,... axir u yerda nima gap ketishi ilgaritdan ma'lum-ku! Shuning uchun kirishga ehtiyoj sezilmaydi". Aristotel` ritorikasining o'n beshinchi bobи o'n to'rtinchi bobning davomi bo'lib, unda yomon otga chiqarilgan shaxsning o'zidan gumonlarni bartaraf qilish uchun gapirgan nutqning kirishi haqida so'z boradi: "Buning birinchi usuli – o'z-o'zini himoya qilishdir. Ikkinchi usul – bahsli masalaga qarama-qarshi borish. Uchinchi usul – aybni yumshatishga harakat qilish. To'rtinchi usul – ayblovni chalkashtirish. Beshinchi usul – badnomlikda taniqli kishilarni ishga tortish. Oltinchi usul – o'zidan gumonni bartaraf qilish. Yettinchi usul – ayblovchining o'ziga badnomlikni ag'darish va boshqalar. O'n oltinchi bob bayon qilishning usullaridan bahs yuritadi.

1. Epideytik nutqda bayonni qatoriga emas, qismma-qism olib borish.
 2. Ma'lum narsani yodga tushirish.
 3. Tez ham, sekin ham emas, me'yorda bayon qilish.
 4. Yo'l-yo'lakay bayon tarkibiga tasdiqlovchi narsa-hodisalarni jalb qilib borish.
 5. Himoyalanuvchining bayoni qisqa bo'lishi va boshqalar.
- O'n yettinchi bob isbot va dalillar keltirish haqida boradi. Uningcha, "Isbotlar apodiktik, ya'ni shubhaga o'rin qoldirmaydigan bo'lishi zarur. Isbot bahsli masalaga aloqador bo'lishi lozim". Aristotel` bu o'rinda sudda ishni ko'rib chiqish jarayonida muayyan xatti-harakat bo'lganmi, bo'lmasaganmi, biror zarar yetkazilganmi yoki yo'qmi, adolatsizlik yuz bergenmi, yo'qmi kabi masalalarga to'xtalib, ularning har

biriga aloqador dalil-isbot keltirilishi haqida o'z qarashlarini aytib o'tadi: "Epideytik nutqda qadrli va foydali jihatlar uchun keltirilgan dalillar haqiqatga yaqin bo'lishi lozim. Kengashga tegishli nutqda bahsga sabab bo'lgan muallif tomon taklifining o'rinli va o'rinsizligi, shu bilan birga, muxolif aldov ishlattyaptimi yoki yo'qmi kabi jihatlar hisobga olinishi, isbot-dalillar keltirilishi zarur. Kengash nutqida dalil-isbotlar qo'llash sud nutqidagiga qaraganda mushkulroq, chunki kengashda bo'lajak ishlar yuzasidan, sudda esa bo'lib o'tgan ishlar yuzasidan bahs yuritiladi". O'n sakkizinch bob nutq jarayonida beriladigan savollarga bag'ishlangan. Aristotelning talqiniga ko'ra, "Savolni, raqib tomon nutqda biror nuqsonga yo'l qo'yganda, berish o'rinli, bema'nilik yuzaga chiqishi uchun birgina savolning o'zi yetarli. Agar bir asos aniq va shubhasiz bo'lsa, savolga javob berayotgan raqib ikkinchi asosni ham beradi. Demak, shunday hollarda savol berish o'rinsiz. Raqibning o'ziga o'zi qarshi chiqayotganini ko'rsatishni istasang, savol berasan. Raqibning savolga sofistika yordamida javob berishi shubha uyg'otmasa, savol berish lozim. Raqibning savolga javob berishni uddalashi aniq bo'lsa, savol bermaslik kerak". Aristotel "Ritorika" sining oxirgi – o'n to'qqizinch bobi xulosani qanday tarkiblantirish yuzasidan bahs yuritadi. Aristotel bu bobda xulosaning to'rt vaziyat asosida tarkib topishini keltirib o'tadi:

1. Tinglovchilarni o'ziga moyil qilish va raqibdan uzoqlashtirish uchun
2. Ulug'lash va kamsitish uchun
3. Tinglovchida zarur hissiyotni yuzaga keltirish uchun
4. Aytilganlarni eslatish uchun.

So'ngra har bir xulosaning mohiyatini ochishga harakat qiladi. Oxirida qisqa va lo'nda xulosadan namuna beradi: "Aytdim, eshittingiz, bilasiz, hukm qiling". Ko'rindiki, Aristotel` xulosaning qisqa va lo'nda tuzilishiga jiddiy e'tibor bergen. Xullas, Aristotelning "Ritorika" si notiqlik san'ati nazariyasi va amaliyotiga muhim hissa sifatida qo'shilishi bilan birga, hali ham bu sohadagi bilim rivojiga barakali ta'sir o'tkazib kelmoqda. Uning bu asari o'z-o'zidan yuzaga kelgan emas. U qadimgi yunon notiqlik san'ati erishgan amaliy tajribalari va nazariy xulosalarining umumlashtirilishi, sistemalashtirilishi, unga bo'lgan ijodiy yondoshuv mahsulidir. Mazkur asar notiqlik san'ati bilan qiziqqan hozirgi avlodga ham va kelajak avlodga ham hali ko'p xizmat qiladi. Notiqlik san'atining yuzaga keltirgan, uning rivojiga turki bergen omillardan biri sud notiqligidir. Qadimgi Yunonistonda shahardavlatlarning ko'pligi, ular orasidagi iqtisodiy, siyosiy, savdo aloqalari, har bir polislarning o'z fuqarolari o'rtasidagi munosabatlar haddan tashqari ko'p nizoli masalalarning ko'rib chiqilishini kun tartibiga qo'yishi sud institutini yuzaga keltirdi. Afinada qarama-qarshi tomonlarning har biri sud jarayonida qoralashi ham, himoyalanishi ham lozim edi. Faqat kichik yoshdagilar va ayollar uchun vakillar ishtirok etishiga ruxsat berilgan. Bunday yordamchi shaxslar sinegorlar deb, ularning nutqi esa sinegoriya deb atalgan. Buning natijasida yana bir mutaxasislik paydo bo'ldi. Hozirgi tushunchamizga ko'ra, advokatning proobrazi deb atashimiz mumkin. Afina sudi jarayonida o'z huquqini manfaatdor shaxsning o'zi himoya qilgan, juda kam hollarda sud jarayoni bilan tanish va tajribali kishilardan maslahat so'ralgan. Biroq yirik va murakkab ishlarni hal qilish uchun faktlarni keltirishning o'zi kifoya qilmas, ularni zarur darajada guruhlash va

tushuntirish, yoritish, sudni va boshqa tinglovchilarni ishontirish lozim edi. Bunday hollarda manfaatdor tomonning ishni yutib chiqishi uchun logograflar instituti tashkil topdi, ular manfaatdor tomonning buyurtmasi bilan sudda so'zlanadigan nutqni yozib berishar, shunga munosib qalam haqi olar edilar.

Logograflik kasbini egallash oson bo'lgan emas, buning uchun maxsus ritorlar maktabida ta'lif olish zarur edi. Maxsus yuridik ta'lif bunday maktablarda berilmas edi, biroq o'sha davr kishisini har tomonlama bilimli shaxs sifatida tayyorlash uchun yurisprudentsiyaning ayrim unsurlari o'rgatilar edi. Shunday tayyorgarlikdan o'tgan kishilardan kelajakda olimlar, logograflar va jamiyat arboblari yetishib chiqqan edi. Ularning ayrimlari o'zining shunday maktablarini ochishgan edi. Bundan tashqari, bunday tayyorgarlikdan so'ng, bitiruvchilarning kelajakda o'z bilimini oshirishi, jamiyatda o'z yo'lini topib olishi uchun zarur malaka va ko'nikmalar berilar edi. Biroq hammaning ham bunday ta'lif olishga qurbi yetmas edi. Shuning uchun ham qadimgi Afinada yetishib chiqqan olimlar va notiqlik san'ati namoyondalari o'ziga to'q, badavlat oilalarining farzandlari edi. Bunday maktabda ta'lif olish uchun haq to'lash kambag'alning qo'lidan kelmas edi. Ritor yoki notiq bo'lish uchun nutq yozishning o'zi kamlik qilar edi, ovozning yetarli darajada kuchli bo'lishi, jamoat oldida o'zini tuta bilishi, tiniq va aniq talaffuzga ega bo'lishi lozim edi. Bunga Demosfening hayoti misoldir. Qonun bo'yicha Afinaning ozod har bir fuqarosi tribunaga chiqib gapirish huquqiga ega edi, haqiqatda esa 30, nari borsa 50 kishi tribunaga jur'at qilib chiqsa olar, shulardan bir necha kishigina demosni o'ziga jalb qilib, nutq so'zlay olar edi. Xullas, ritorika maktabini bitirganlarning ko'plari olgan bilimlarini hayot kechirish vositasi sifatida ishlatib, ritorika o'qitar yoki logograflik qilar edilar.

Logografning ishi birmuncha murakkab edi, chunki sudga murojaat qiluvchilar turli masalalar bilan kelar, ularning har biri uchun mos nutq tayyorlab berish zarur edi. Logograf nutqni bu tarzda mijozning ijtimoiy o'rni, ma'lumoti, oilaviy ahvoliga qarab, fe'l-atvoriga oiddalillar asosida uning tilidan tuzish texnikasi qadimda etopeya termini bilan atalgan.

Epideytik notiqlik o'zining yuzaga kelish e'tibori bilan nutqning eng qadimgi turi hisoblanadi. Negaki, uning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Masalan, ko'p xudolilik (politeizm) davrida xudolar sharafiga aedlar tomonidan aytilgan qo'shiqlar ham, epik asarlar ham ko'plab xalq bayramlarida kishilarning ko'ngilli dam olishlarini ta'minlangan. Rapsodlar ham epideytik nutqning yuzaga kelishiga turki bergen deb bemalol aytish mumkin. Ushbu turning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillardan yana biri Kadimgi Yunonistonda odat bo'lgan umumyunon o'yinlari edi. Bunday o'yinlar muntazam ravishda turli yerlarda o'tkazilib turilgan. Bu o'yinlar dasturiga chavandozlik, kurash tushish, yugurish, gimnastik mashqlar, musiqa san'ati bilan bog'liq musobaqalar kiritilgan. Ushbu umumyunon o'yinlarining qaerda o'tkazilishiga muvofiq tarzda o'z nomlariga ham ega bo'lgan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, epideytik nutq maqtov va sharaflashdan iborat. Biroq bunday nutqni faqat maqtovlardan iborat deb tushunmaslik lozim. Bu nutq tarkibiga tanbeh nutqlarini ham kiritish zarur bo'ladi. Aristotel` o'zining "Ritorika" asarida er.av. 392 yilda Gorgiyning Zevs ibodatxonasining zinasida

so'zlagan Olimpiya o'yinlari g'oliblariga bag'ishlangan nutqidan quyidagi kirish qismini keltiradi: "Oh, ellinlar! Siz ko'plarning hayratiga sazovorsiz!" – degan maqtovni, so'ngra Isokratning jismoniy yutuqliklarni tuhfalar bilan taqdirlashlari, biroq aqliy yutuqlarni hech qanday narsa bilan sharaflamasliklarini aytib tanbeh bergenini eslatadi. Aristotel` epideytik uslubning yozma bayonga yarashi va o'qib berishga mo'ljallanganligini qayd etadi. Bundan tashqari, epideytik nutqning kirish qismi maqtovdan, qoralashdan, ko'ndirishdan, qaytarishdan, tinglovchilarga murojaatlardan tashkil topgan bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan. Epideytik nutqning bayoniga tegishli mulohazalari ham mazkur asarda berilgan. Epideytik nutq bayonini bir varakayiga emas, qismma-qism olib borish lozim. Tez ham emas, sekin ham emas, me'yorida bayon qilish zarur. Yo'l-yo'lakay bayon tarkibiga tasdiqlovchi daliliy ashyolarni jalb qilib borilishi, shu bilan birga, qimmatli, foydali jihatlar uchun keltirilgan dalillar haqiqatga yaqin bo'lishi lozimligi uqtirilgan. Bundan ko'rindaniki, epideytik notiqlik Qadimgi Yunonistonda maqtovga asoslangan tantanavor nutq sifatida yuzaga kelib, keyinchalik mavzu doirasini kengaytirgan. Tanbeh, ko'yish, olqish kabi mavzular ham ular tarkibiga kiritilgan. Epideytik nutqning hozirgi poetik janrlar hisoblangan gimn, oda va qasida janrlari bilan umumiy jihatlari bor.

Sharqda voizlik san'ati

Reja:

1. O'rta Osiyo notiqligi.
2. Va'z va vazxonlik.
3. XX asr o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati rivoji.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan, Mavarounnahrda notiqlik, voizlik, ya`ni, va`zzonlik, Qur'oni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma`nosi va undan o'rinli foydalanish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtanazardan qaralsa, "Nutq odobi", "Muomala madaniyati" nomlari bilan yuritilib kelgan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortib kelgan: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Mahmud qoshg'oriy, Zamashshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy e'tibor berishga da`vat etish bilan birga tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozdilar. Buyuk qomusiy olim **Beruniy (973-1048 -yillar) o'zining "Geodeziya"** asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rligi haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta`lim berish va ta`lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchitil haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman..."

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosa chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda **leksikologiya, grammatika va mantiqning** naqadar ahamiyatli zo'rligi haqida shunday yozadi: "qanday qilib ta`lim berish va ta`lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya -narsalar) va aksidensiya (hodisalari)ga ism beruvchi **til haqidagi ilmlar** deb tasdiqlaymiz."

Ikkinci ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aktsidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hiqmatli so'zлarni va nutqni qanday tuzilishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir. Ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri, nima

yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz². **Abu Nasr Forobiy. Risolalar. -T., 1975. 54-b.**

Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan “Qobusnomda ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytildi. Asar 44 bobdan iborat bo‘lib, uning 6-7-boblari so‘z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o‘quvchini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So‘zlaganda o‘ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko‘z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi kamtar bo‘lishi, o‘zini xalq orasida oddiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, maxmadonalik qilish, ko‘p gapirish donolik belgisi emas... “Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so‘z bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmagaysan. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganarki, jum o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqlli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...”

Ulug‘ shoir Yusuf Xos hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va to‘g‘ri qo‘llash haqida: “Bilib so‘zlasa so‘z bilig sanalur” degan edi. qisqa so‘zlash, so‘zlarga iloji boricha ko‘proq ma`no yuklash haqida:

Ugush so‘zlama so‘z biror so‘zla oz,
Tuman so‘z tugunini bu bir so‘zla yoz.

deydi. Mazmuni:

So‘zni ko‘p so‘zlama, kamroq so‘zla. Tuman (ming) tugunini shu bir so‘z bilan yech. Gapirishdan maqsad so‘zlovchi ko‘zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to‘g‘ri, ta`sirchan etkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to‘g‘riliqi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so‘zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, xovliqmasdan, so‘zning ma`nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII asrlar) ham so‘zlaganda nutqni o‘ylab, shoo’masdan tuzishga, keraksiz, yaramas so‘zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so‘zlashga chaqiradi. Noto‘g‘ri tuzilgan nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmagan, deb so‘zlovchini ogohlantiradi:

Uquv so‘zla so‘zni eva so‘zlama,
So‘zing qizla, kedin, boshing kizlama.

(Mazmuni, so‘zni uqib so‘zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so‘zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.)

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko‘rsatmalarda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik, laqmalik, qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish, yolg‘onchilik, tilyog‘lamachilikni qoralash va boshqalar haqida gap boradi.

O‘rta Osiyo notiqligining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o’sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san`ati ustalarining **nadimlar, qissago‘ylar, masalgo‘ylar, badihago‘ylar,**

² Абу Наср Форобий. Рисолалар. Т., 1975, 54-6.

qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini to‘g‘ri anglovchi sog‘lom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to‘g‘ri tushunib kelganlar. Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. o‘zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo‘lgan buyuk shoir Alisher Navoiy turkiy tilda nutq tuzishning bayroqdori sifatida uning butun ijodi bilan o‘zbek tili boyliklarini namoyon etdi. Navoiy o‘zbek adabiy tilida buyuk asarlar yaratish mumkinligini namoiysh qildi. Shoir o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida har bir tilning ijobiy va salbiy tomonlari borligini eslatib o‘tadi. Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazmul javohir” asarlari o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalari bo‘lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo‘shdi. U o‘zining “Mahbub ul qulub” asarida shunday deydi: “Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo‘lsa, boshning ofatidir...”, ya’ni til shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir, agar u o‘rinsiz ishlatilsa tilning ofatidir.

Navoiy to‘g‘ri, qisqa, lo’nda, yoqimli, mantiqli, tushunarli, jo’yali, aniq va ta`sirli nutq haqida o‘zining “Arbain” asarida, shuningdek, “Xamsa” asaridagi besh dostonning har birida ham ajoyib fikrlarni aytib o‘tgan.

O‘zbek mumtoz adabiy tilining xomiysi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy turkiy tilda g‘azal, nutq tuzishning bayroqdori sifatida o‘zining butun ijodi bilan o‘zbek tili boyliklarini, uning latif va go‘zal qirralarini kashf etdi. Keyingi asrlarda ijod qilgan Xorazmiy, Bobur, Munis, Mashrab, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz o‘tar o‘g‘li, Fitrat, Behbudiy, So‘fizoda, hamza va boshqa buyuk mutafakkirlar ham o‘zbek muloqot xulqi haqida o‘z fikrlarini turli janrlardagi asarlarida bayon etdilar.

Biroq nutq madaniyati muammolari bilan ilmiy asosda jiddiy shug‘ullanish masalasi birinchi marta Praga lingvistik to‘garagi vakillari tomonidan o‘rtaga tashlandi. Ular 1929-yilda Pragada bo‘lib o‘tgan slavistlarning I syezdi uchun tayyorlangan maxsus tezislari va keyingi asarlarida bu masalaga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Yuksak taraqqiy etgan, Amerika, Yaponiya, Angliya, Germaniya va boshqa qator xorijiy davlatlarda tadqiqotchilar hozirgi paytda asosiy e`tiborlarini xuddi shu masalaga qaratmoqdalar. Bunga Madelin, Berkli-Alen, R.Brikman, R.Kershner, V.Birkenbil, Ch.Likson, D.Karnegi, A.Piz, F.Nitsshe, L.Gumilyov kabilaning ishlarining misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Garb mamlakatlarda nutqiy muloqot, uning sotsiolingvistik, psixolingvistik va pragmatik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab maxsus журнallar chiqsa boshladi. So‘nggi yillar AQSH olimlari nuqtai muloqot sohasida juda katta tadqiqotlarni olib borayotganlarini aytib o‘tish kerak. AQSHda muloqot va ritorika bilan mashg‘ul ko‘plab ilmiy jamiyatlar va assotsiatsiyalar tashkil topganini va ular o‘z ilmiy izlanishlarini chop etib borayotganliklarini eslatish zarurdir.

Bu masalani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o‘rganishga rus tilshunosligida 20-30-yillarda kirishildi.

1977-yilda Moskvada “Natsionalno-kulturnaya spetsifika rechevogo povedeniya” nomli, sal keyinroq “Natsional’no-kulturnaya spetsifika rechevogo obucheniya narodov SSSR” nomi bilan mualliflar hamkorligidagi monografiyalarning chop etilganligi, shuningdek, yana bir qator olimlarning bu muammoga oid qator monografik tadqiqotlarining yuzaga kelganligi nutqiy faoliyat muammosini tobora dolzarb masalaga aylanib borayotganligidan dalolat beradi.

Turkologiyada ham insonlarning o‘zaro muloqotga kirishish jarayoni tilshunoslarning diqqatini anchadan beri o‘ziga jalb etib keladi. Jumladan, F.F.Sultonov, N.Djunusov, A.B.Medjidova, T.Aydarov, T.Karakeeva, D.Saidbekova kabi olimlar bu masala ustida maxsus izlanishlar olib borganlar.

O‘zbek tilshunosligida bu masala bilan jiddiy shug‘ullanish endigina bashlandi deyish mumkin. Bu holni o‘zbek tilshunos olimlari S.Ibrohimov, O.Usmonov, E.Begmatov va boshqalar **1969-yili** Toshkentda nutqimiz rivoji masalalari mavzuida o‘tkazilgan **Birinchi Respublika Konferentsiyasida** qilgan ma‘ruzalarida alohida ta‘kidlaydilar. Jumladan, “...Masalaning bunday qo‘yilishidan o‘zbek tilshunosligida nutq madaniyati muammosi, umuman, o‘rtaga qo‘yilmagan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Nutq odobi deb yuritilib kelingan qoidalarning o‘ziyoq, bu masalaning ko‘hna tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi, qolaversa, 20-30-yillarda **til qurilishi, til siyosati** degan nomlar bilan yuritilan barcha millat va xalq tillari rivojiga bevosita tatbiq etilgan ulkan tadbir va choralarning o’sha vaqtida **til madaniyati**, endilikda **nutq madaniyati** deb yuritilayotgan muammoga qanchalik aloqadorligini belgilash g‘oyat muhimdir”, deb yozadi E.Begmatov. Afsuski, o‘zbek tili nutq madaniyatiga oid ishlarda uni nazariy jihatdan o‘rganish o‘rtaga jiddiy qo‘yilgan emas. O‘zbek tilshunoslaridan S.Ibrohimov, E.Begmatov, L.Xo’jayeva, B.O‘rinboyev, A.Rustamov, S.Inomxo’jayev, R.Qo’ng‘urov, S.Karimov, T.Qurbanov, A.Abduraxmonov, N.Maxmudov, T.Qudratov, Y.Tojiyev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Qo‘ldosheva, B.X.Rahmatullayeva, Sh.Iskandarova N.Mahmudovlarning ishlarida nutq madaniyatiga oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan.

Nomlari ta‘kidlab o‘tilgan mualliflarning ishlaridan ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek tilshunosligida ham nutq madaniyati va uning nazariy masalalari bo‘yicha anchagina izlanishlarning aksariyati nutq madaniyatini sof lingvistik, uslubiy yoki pedagogik maqsadga yoritib berishga qaratilgan bo‘lib, masalaga ijtimoiy-lisoniy aspektda yondoshilmagan.

Xullas, asrlar mobaynida kishilarni qiziqtirib kelgan nutq madaniyati soxasi ilmiy muammo sifatida tan olindi va uni chuqur tadqiq qilish lozimligi ko‘pchilik olimlar tomonidan maqullandi. Shu sababli xam tilshunos V.V Veselitskiy 60-yillarning boshlaridayoq: “hozirda nutq madaniyati bo‘yicha tadqiqot olib borishning zarurgini isbotlab o‘tirish ortiqchadir” deb yozgan edi.

Shunday ekan, O‘zbekiston dunyoga, dunyo xalqlari O‘zbekiston nazar tashlayotgan, butun o‘zbek xalqi o‘z Prezidenti atrofida tobora mustahamroq jipslashib, milliy ma’naviyat, milliy ong, milliy mafkura haqida har qachongidan ham ko‘proq qayg‘urayotgan bugungi kunda biz bilan do’stona va samimiyl muloqatda bo‘lishni istovchi davlatlar va millatlardan o‘zbekdarning o‘ziga xos

muloqot xulqini ham sir tutmaymiz, aksincha o'zbeklar bilan muammo chog'ida nimalar e'tibor berish lozimligini avvalo o'zimizga va boshqalarga o'rgatamiz. Zero, hech bir inson, hech bir millat o'zligini teran anglamasdan turib o'zgani durust tushunib etmagan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek nutqi madaniyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimdan bu sohaga "Nutq odobi" nomi ostida ancha keng e'tibor berilgan bo'lib, keyingi asrlarda, ayniqsa, XIX-XX asrlarning ayrim vaqtlarida e'tibor ancha susayganligi ko'zga tashlanadi. Biroq keyingi yillarda bu sohada ko'p ishlar qilindi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamizda davlat ishlarining, o'qish, o'qitish, ta`lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi., uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamma olib borilayapti. Lekin shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyati etarli taraqqiy etmaganligi achinarli bir holdir. Shu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalarlardan biri hisoblanadi. Chunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunos largina emas, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, kishilarning yuksak madaniyatli bo'lishlarini belgilaydi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, xalqaro haytda ikki qarama-qarshi ijtimoiy guruh o'rtasida mafkuraviy kurash nihoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mafkuraviy kurashning asosiy quroli bo'lgan tilning har qachongidan ham o'tkir va keskin bo'lishini taqozo etadi. Prezidentimiz I.Karimov ham bunga alohida e'tibor berib bunday degan edilar: "g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin", "Eng dahshatlisi fikr qaramligi tafakkur qulligi"...

"Maktabda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi, aminmanki o'rgatilmaydi. Mabodo, biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga hech kim xavas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishini talab qiladi. Printsip ham tayyor: mening aytganim – aytgan, deganim - degan".

"O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. o'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarga mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski amalda tajribamizda unga amal qilmaymiz. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo, bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikr ham katta boylikdir". (Barkamol avlod orzusi. 16-bet.)

Nutq tadbirkorligini singdirish maktabda o‘qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg‘ulotgacha o‘quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Shu o‘rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlarini keltirib o‘tish lozim:

“Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o‘quv fanlari ham bilvosita shug‘ullanishi kerak. Matematika bo‘ladimi, fizika yoki tarix bo‘ladimi, o‘qituvchi o‘z nutqiy madaniyati bilan namuna ko‘rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo‘l bilan o‘quvchidagi so‘z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta`lim amaliyotida ko‘rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o‘qituvchi juda ko‘p vaqtini turli ko‘rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma`qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o‘rgatish, chiroyli so‘z zavqini o’stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko‘rgazmali qurol o‘qituvchining o‘zidir”. (“Ma‘rifat manzillari”)

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Nutq madaniyati haqidagi ta`limot qadimda qayerda shakllangan?
- 2.G‘arb notiqligining yirik vakillari kimlar?
- 3.Notiqlikning qanday ko‘rinishlarini bilasiz?
- 4.Sinegorlar, logograflar nima bilan shuqullanishgan?
- 5.Epideytik notiqlik haqida nima deya olasiz?
- 6.Sharqda nutq madaniyati masalalari bilan shug‘ullangan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
- 7.Nuqt madaniyati haqidagi ta`limot qadimda qayerda shakllangan?
- 8.Sharqda nutq madaniyati masalalari bilan shug‘ullangan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
- 3.Nutq madaniyati kursini o‘qitishdan maqsad nima?
- 4.Kursning maqsad va vazifasi haqida so‘zlang.
- 5.Nutq madaniyati kursining dolzarbliji nimada?
- 6.Nutq madaniyati boshqa qaysi sohalar bilan aloqadorlikka ega?
7. Nutq madaniyatiga bog‘liq qanday asarlarni bilasiz?
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida til va nutq madaniyatiga qanday e`tibor berilmoqda?

Adabiyotlar

- 1.Rasulov R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati. -T., 2004-yil.
- 2.Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. -T., 2002-yil
- 3.E.Begmatov. Nutq madaniyati muammosining paydo bo‘lishi va asoslanishi // Nutq madaniyatiga oid masalalar. --T., Fan, 1971-yil.
- 4.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., O‘qituvchi, 1991-yil
5. Mahmudov N. O ‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari. (2 soat)

Til va nutq munosabatlari (2 soat)

Reja:

- 1.Adabiy til – nutq madaniyatining asosi.
- 2.Nutq madaniyati va me`yor (norma).
- 3.Til va nutq.
- 4.Til madaniyati va nutq madaniyati.
- 5.Nutq shakllari.
- 6.Nutqni rivojlantirish usullari.
- 7.Yozma va og‘zaki nutq.

Tayanch tushunchalar:

Norma – meyor, o'lchov

Pauza - ruscha to 'xtam

Monolog – so 'zlovchining o 'ziga yoki tinglovchiga qaratilgan nutq

Diolog – ikki yoki undan ortiq kishining o 'zaro suhbati

Imo-ishora - bu nutq jarayonida ixtiyorsiz ravishda namoyon bo 'ladigan qo 'l va gavda harakatlari.

Adabiy til paydo bo‘lgunga qadar nutq madaniyati borasida amal qilgan talab va tasavvurlar adabiy til paydo bo‘lgandan keyingi davr, ya`ni adabiy til bilan bog‘liq bo‘lgan nutq madaniyati tasavvurlaridan farqlanadi. Chunki nutq madaniyati chinakam ma`noda adabiy til va uning normalari bilan bog‘likdir.

Adabiy til haqida gap borganda avvalo adabiy til – xalq tilining, milliy tilning oliv shakli de-yilgan ta`rifga duch kelamiz. Adabiy tilning oliv shaklligi bu tilning o‘ziga xosligida, uning o‘ziga belgilari va vazifalarida ko‘rinadi. Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo‘lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu tilning ijtimoiy-siyosiy sohalar tili, rasmiy muomala va yozishmalar tili, idoraviy ishlar va hujjatlar tili, diplomatik aloqalar tili, radio va televideniya tili, og‘zaki targ‘ibot va tashviqot tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va sahna tili, maorif, madaniyat tili kabi ko‘p yo’nalishlarda rivoj topishi uchun yo‘l ochadi.

Adabiy til ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-madaniy hayotning barcha sohalarida aloqa quroli darajasiga ko‘tariladi. Bu hol adabiy tilni madaniyat va tsivilizatsiyaning vositachisiga, bunga doir tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi, o‘zida saqlovchi va keyingi nasllarga etkazuvchi qurolga aylantiradi.

Kishilardan nutq madaniyatini , ya`ni to‘g‘ri so‘zlash va yozishni talab qilish uchun mana shunday so‘zlash va yozishga vosita bo‘la oluvchi qurolni belgilash lozim bo‘ladi. Bunday qurol adabiy tildir. Adabiy til nutq madaniyatining tug‘ri so‘zlash va yozishning o‘lshovi, mezonidir. Ammo adabiy til tayyor holda qaerdandirpaydo bulgan, birdan tayer holda osmondan tushgan hodisa emas. U aslida nutq madaniyatining tarkibiy qismi, o‘zi ham madaniylikka intiluvchi hodisadir. Shuning uchun ham masalan, “Praga lingvistik

to'garagi" deb yuritiluvchi ilmiy maktabning vakillari bo'lmish tilshunoslar nutq madaniyati tushunchasini til madaniyati, adabiy til madaniyati deb nomlashadi. Ular nutq madaniyati de-yilganda avvalo adabiy til madaniyatini tushunishadi: "Adabiy til madaniyati deganda biz adabiy tilni ongli ravishda qayta ishslashni tushunamiz"¹.

Adabiy til madaniyati uchta hodisa (tushuncha)ni o'z ichiga qamraydi:

- 1) adabiy tilni ongli ishslash (normalash);
- 2) adabiy tilning ishlangan, ya`ni madaniylashgan holati;
- 3) madaniy adabiy til normalaridagi ba`zi holatlarni yanada qayta ishslash va takomillashtirish.

Nutq tuzish qoidalari quyidagi tartibda bo'ladi:

- a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatoridan kerakli variantni ajratib nutqda qo'llash;
- b) nutqda ishlatiladigan so'zning anglatgan ma'nolarini har tomonlama bilish, noijodiy taxminiy qo'llashlardan qochish, chunki betayn so'z qo'llash nutqni beburd qiladi;
- v) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi.
- d) paronimlarni bilish ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish.

Odatda mundarijaga mavzu tegrasidagi fikrlar, ma'lumotlar, voqealarning asar tilagiga muvofiq mohiyatini ochib bera oladigan yo'nalishlar kiritiladi.

Mundarijadagi asosiy qismlarning bir-biridan uzun, bir-biriga qarshi bo'lmasliklari, ya`ni bittasining bergan ta'siriga ikkinchisi qarshi bo'lmasligi darkor.

Tartib mundarijada yig'ilib to'lgandan keyingina "tartib"ga kirishi kerak. Tartib yolg'iz asar yozishda emas, so'zlashishda ham muhim ahamiyatga ega.

So'zlar, gaplarni uyushtirib tuzilgan asarlar adabiy bo'lsa bo'lmasa ikki yo'sindan birida tuziladi.

Bir asarda so'zlar, gaplar belgili bir ohangga bog'lanmasdan, belgilik bir o'lchov bilan o'lchanmasdan tarqalib, sochilib tuzilgan bo'lsa, bu asar "sochim" yo'sinida tuzilgan bo'ladi. Bir asarda so'zlar, gaplar belgilik bir ohangga boylanib belgilik bir o'lchov bilan o'lchanib tuzilgan bo'lsa, u asar "tizim" yo'sinida tuzilgan bo'ladi.

So'zlashuv uslubi – bu usul leksikasi, fonemasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so'zlashuv tilini o'zida aks ettiradi. So'zlashuv uslubi uchun oddiylik, soddalik, betakalluflik, hayajonlilik xosdir. So'zlashuv uslubidagi og'zaki nutqda ba'zan yozma nutqqa, shevaga, vulgarizm va boshqalarga xos va so'z shakllarining ta'siri bo'ladi.

Og'zaki nutqning quyidagi vazifaviy (funktsional) ko'rinishlari mavjud:

- 1.Kundalik adabiy so'zlashuv nutqi ko'rinishlari, Bunga adabiy tilda gapiruvchi shaxslarning kundalik so'zlashuv nutqini kiritish mumkin.
- 2.Lektorlar nutqi. Bu ko'rinishga o'rta va oliy maktab o'qituvchilarining, targ'ibotchi lektorlarning, olimlarning ma'ruzalari, chiqishlarini kiritish mumkin. Og'zaki nutqning bu xili asosan, monologik nutq xarakterida bo'ladi.

3.Radio va televideniya nutqi (tili). Bu ko‘rinishga radio va televideniya orqali adabiy tilda so‘zlangan nutqlar kiradi. Radio va televideniya nutqi asosini diktorlar, radio va televideniya izohlovchilari nutqi tashkil qiladi. Radio va televideniya orqali adabiy tilda olib borilgan eshittirishlar, ko‘rsatuvlar, suhabatlar tili ham radio va televideniyaning o‘ziga xos talablariga bo‘ysunadi va ba’zi o‘ziga xos normativ tomonlariga ega.

4.Sahna nutqi. Og‘zaki nutqning alohida turi sahna nutqidir. Sahna nutqida ijro etilayotgan asarning til xususiyatlarini saqlagan holda, tomoshabinlar uchun umumtushunarli bo‘lgan tilda so‘zlashda intilish mavjud. Sahna nutqining umumtushunarli bo‘lishini ta`minlaydigan asosiy omil adabiy tilda so‘zlashdir. Bunda adabiy talaffuz ayniqsa muhim o‘rin tutadi. Sahna nutqi nutqning yuqorida qayd qilingan ko‘rinishlaridan diologik xarakterga egaligi bilan ham farqlanadi.

Nutqiy turlarni ba`zan ijtimoiy tabaqalar va guruhlar tili nuqtai nazaridan nomlash ham uchraydi. Chunonchi: o‘qituvchilar nutqi, o‘quvchilar nutqi, yosh – talabalar nutqi, bola nutqi (bog‘cha balalari nutqi) kabi.

Umumiy norma ma‘lum tilning, masalan, o‘zbek tilining barcha ko‘rinishlarida qo‘llanayotgan normalar sistemasining yig‘indisidan iborat:

- 1) o‘zbek adabiy tili normasi;
- 2) o‘zbek lahja va shevalari normasi (dialektal norma);
- 3) o‘zbek so‘zlashuv nutqi normasi;
- 4) o‘zbek tilining ijtimoiy tarmoqlari, ya’ni “ijtimoiy dialektlar”, “ijtimoiy argolar” normasi (jargonlar, professional nutq ko‘rinishlari, argoning boshqa xillariga xos normalari”).

Bizni, albatta, nutq madaniyati nuqtai nazaridan adabiy til normasi qiziqtiradi. Ana shu norma tufayli til, yukorida ta’kidlaganimizdek, umumxalq tilining yashash shakllaridan farq qiladi. Til unsurlarini normativ holatga keltirishga intilish adabiy tilning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bu jarayon muntazam davom etib turadi. Norma va maqsadga muvofiqlik – norma kishining xulqini boshqaruvchisi, yo‘naltiruvchisidir. Bunday boshqarish juda zarur, ammo yaxshi nutq uchun bu boshqaruvning o‘zi yetarli emas. Chunki norma nutqning borliqqa, zarur jamiyatga, ongga, kishilar xulqiga munosabatlariga norma aloqador emas, ularni o‘z ichiga olmaydi.

Talaffuz normalari. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakli bo‘lgani kabi, nutqda ham imloviy hamda talaffuz normalari mavjuddir.

Talaffuz normalari, ya’ni adabiy talaffuz normasi til birliklarining og‘zaki nutq jarayonida adabiy til normasiga muvofiq kelishidir. YOzuv tufayli o‘zbek tilining imloviy normasi anchagina durust holga keltirilgan bo‘lsa ham, talaffuzda kamchiliklar hali anchagina. Sabab sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1.O‘zbek adabiy tilining g‘zaki normalarini barcha bir xilda mukammal egallay olmagani sezilib turadi. Og‘zaki adabiy tilni egallash yozma adabiy tildan foydalanishga ko‘ra sustroq.

2.Adabiy tilda so‘zlovchilar nutqida mahalliy shevalar ta’siri kuchli. Bu ayniqsa, lahjaviy talaffuz va lahjaviy aktsentlarda sezilib turadi.

- 3.O‘zbek adabiy talaffuzi doirasidagi ko‘zga tashlanuvchi xususiyatlardan biri keksa va yosh avlod nutqidagi tafovutdir...
- 4.Adabiy til og‘zaki shakli normalarining qat’iylashuvida yozma nutq, yozilgan matnlar, talaffuz (orfoepik) va imlo lug‘atlari ijobiy rol o‘ynab keldi... Og‘zaki nutqda yozma nutq uchungina xos bo‘lgan ibora va uzun jumlalar yuzaga keldi.

O‘pkadan kelgan havoning nutq organlariga ta`siri natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifitida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir.

Nutq kishi ongida ham hosil bo‘lishi mumkin. Ichki nutqqa kishilarning og‘iz ochmasdan fikrlashi, munozara yuritishi, o‘ylashi misol bo‘ladi.

Til va nutq bir-biriga bog‘liq hodisadir. Ularni bir-biridan ajratib qarash asossizdir. Til nutq uchun moddiy materialdir. Bu material asosida nutq tashkil topadi.

Tildan hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo‘ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud. Morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruxiy material hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma`lum tovush to‘xtami (komiksis) namoyon bo‘ladigan so‘z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy materialidir. Bunda til bir tomondan hodisa bo‘lsa, ikkinchi tomondan ruxiy hodisadir, degan hulosa keliб chiqadi. Tilning ruxiy hodisaligi – uning ongda shakllanishidir. Moddiyligini esa nutq jarayonida yuzaga keluvchi mavjud tovushlar belgilaydi.

Nutq bu til deb ataluvchi, o‘ta muhim vazifalarnin bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birlklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namayon bo‘lishidir. Nutq harakatdagi til bo‘lib, nutq 1zolarining harakati jarayonida paydo bo‘ladi va so‘z shakllari, erikin birikmalar, so‘z tartibi va gaplardan tashkil topadi.

Nutq mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda mavjudlikka (haqiqatga) aylangan fikrdir. Nutq a`zolarining harakati jarayonida paydo bo‘ladi. Ruxiy hodisa bo‘lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o‘tgach haqiqatga aylanadi.

Til boyligi deganda nimani tushunmoq kerak? Odatda u yoki bu tilning boyligi gapirliganda asosan shu tildagi so‘zlar ko‘zda tutiladi. Tilda so‘z miqdori qancha ko‘p bo‘lsa o‘scha tilni boy til tarzida talqin qilish keng tarqalgan. Bu talqin ma`lum ma`noda to‘g‘ridir. Chunki tildagi so‘z miqdori til boyligining ta`minlovchi asosiy omillaridan hisoblanadi. Bu o‘rinda albatta o‘zbek tilining sinonimlarga, frazeologizmlarga nihoyatda boy ekanligi, ular ma`nolarining, shuningdek, umuman o‘zbek tilidagi so‘zlarning ko‘p ma`nolilik darajasi nihoyatda yuqori ekanligi ham hisobga olinadi.

O‘zbek tilida so‘zlar tarkibidagi turli xil tovush o‘zgarishlari, masalan, qora-qora, ora-ora kabilar o‘ziga xos ifoda vositalaridir. Shuningdek, o‘zbek tilida so‘z urchishi hodisasi ham mavjud. So‘zlardagi bu hodisani urchish atamasi bilan belgilash albatta shartlidir.

Bunda ayrim so‘zlar tarkibidagi tovushlar qo‘llanish jarayonida vujudga keladi. Sekin-asta esa bu variantlar o‘zaro farqlanib ketadi va bir-biridan juda nozik darajada farqlanadigan tushunchalarini ifodalaydigan alohida so‘zlarga aylanib qoladi: dam – dim, ol – il, yon – yoq kabi va h.k.

Nutq boyligi tildagi ana shu imkoniyatlar, ya`ni boylikni unda qay darajada o‘z aksini topganligi bilan belgilanadi. Nutqda tildagi rang-barang vositalar o‘z ifodasini topgan bo‘lsa bunday nutq boy nutqdir. har bir kishi o‘z nutqiga e`tibor qilsa, nutq tuzish mas`uliyatini his etsa, nutqning boy bo‘lishini ta`minlashi mumkin. Zero, so‘zga, nutqqa e`tiborsizlik bilan qarash uni qashshoqlashadiradi. Bu esa tilning qashshoqlashishi uchun ham sabab bo‘ladi. Adabiyotshunos olim O.Sharafiddinovning quyidagi fikrlariga e`tibor qiling: “So‘z juda o’jar narsa bo‘ladi. Unga befarq qarasang ma`nosidan bir chimdim yashirib qolishga, hamma rangni namoyon qilmaslikka urinadi. Shunday so‘zlar borki, ular kapalakka o‘xshab jumladan jumlaga engil ko‘chib yuraveradi, tayinli xizmati bo‘lmaydi”. (“Birinchi mo’jiza”, 294-bet).

Savollar

1. Og‘zaki nutqning xususiyatlari.
2. Xabar monologi qanday bo‘ladi?
3. Dramatik monolog qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
4. To‘xtam nima?
5. Urg‘u nima?
6. Ichki monolog nima?
7. Tashqi monolog nima?
8. Lirik monolog nima?
9. Diolog nima?
10. Imo-ishora nima?

Adabiyotlar

- 1.Rasulov R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati. -T., 2004-yil.
- 2.Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. -T., 2002-yil
- 3.E.Begmatov. Nutq madaniyati muammosining paydo bo‘lishi va asoslanishi // Nutq madaniyatiga oid masalalar. -T., Fan, 1971-yil.
- 4.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., O‘qituvchi, 1991-yil.
5. Mahmudov N. O ‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Nutqning kommunikativ (aloqaviy) sifatlari (4 soat)

Reja:

- 1.Nutqning to‘g‘riliqi.
- 2.Adabiy til va mezon.
- 3.Nutqning to‘g‘riliqi va badiiy adabiyot.

Tayanch tushunchalar

Voiz – diniy mazmunda va`z qiluvchi, va`z aytuvchi, va`xon.

Jargon – (fransuzcha) biror ijtimoiy guruhning o‘ziga xos va o‘zagagina tushunarli bo‘lgan, boshqalar tushunmaydigan yasama tili.

Uzus – biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarning foydalaniib kelinayotgan qismi. Uzus bir tilni boshqasidan ajratib turadigan shartlarni ham tilning ichki normalarini ham o‘z ichiga oladi. Nutq normasi.

Har qanday nutq ma`lum bir so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan tinglovchi yoki o‘quvchiga qaratilgan matnning shakllantirilgan tashqi ko‘rinishidir. Albatta bu yo‘llangan nutq tinglovchiga etib borib ma`lum bir ta`sir ko‘rsatsagina unga nisbatan yaxshi nutq deyishimiz mumkin. Nutq har tomonlama yaxshi bo‘lishi uchun o‘z oldiga ma`lum talablarni qo‘yadi. Bu talablar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb yuritiladi. Ular nutqning to‘g‘riliqi, aniqligi, mantiqiyligi, ta`sirchanligi, tozaligi, tushunarliligi va maqsadga muvofiqligidir va b.

1. Nutqning to‘g‘riliqi. “To‘g‘rilik deganda,-deb yozadi V.Y.Kostomarov, - nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma`lum paytda qabul qilingan normasiga qat`iy va aniq muvofiq qilinishi, uning talaffuz, imloviy lug‘at va grammatik normalarini egallashini tushunish lozim bo‘ladi”.

Nutqning to‘g‘riliqi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Nutq to‘g‘ri bo‘lmasa boshqa kommunikativ sifatlari ham vayron bo‘ladi. Nutqning tuzilishi to‘g‘ri bo‘lmasa, uning mantiqiyligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur etadi.

Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun, asosan, ikki normaga – urg‘u va grammatik normaga qattiq amal qilishni talab qiladi. So‘zlardagi urg‘uning ko‘chishi bilan ma`nosi ham ba`zan o‘zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak. Bu ham nutqning buzilishiga olib keladi: Olma – olma, hozir – hozir, yigitcha-yigitcha, o‘quvchimiz – o‘quvchimiz, yangi – yangi va h.k.

Gap tarkibidagi bir so‘zga tushadigan mantiqiy (logik) urg‘uni ham ma`noni farqlashdagi xizmati katta.

Grammatik normaga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to‘g‘ri foydalinish, o‘zak va qo‘sishchalarini qo‘sishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik, kelishik qo‘sishchalarini o‘z o‘rnida qo‘llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo‘laklarni ularga bog‘lanish qonuniylatlari tushuniladi.

Nutqning aniqligi – bu so‘zning o‘zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan

ma`lum. G`arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Arastu: “Agar nutq noaniq bo`lsa, u maqsadga erishmaydi”, -degan bo`lsa, Kaykovus: “Ey farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so‘zlaganda ma`noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma`noga ega ekanligini bilmasang qo‘shga o‘xshaysan...” deydi.

Aniqlik nutqning fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan, nutq predmetining ma`nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so‘z ma`nolarini bilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Qadimgi yunon donishmandi Aristotel o‘zining “Ritorika” kitobida nutqning asosiy fazilati uning aniqligida ekanligini aytib, “agar nutq aniq bo`lmasa, u o‘z maqsadiga erishi olmaydi” deb ta`kidlaydi.

Agar notiq o‘zi fikr yuritmoqchi bo‘lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so‘zlar tanlasa va o‘zi tanlagen so‘zlarining ma`nolariga mos vazifalar yuklasa nutq aniq bo‘lishi tayin. Aniqlik ikki xil bo‘ladi: narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi.

Aniqlik ikki xil bo‘ladi. Narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi. Narsaning aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikni narsalar, hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko‘rinadi. Rus adibi L.N Tolstoyning “So‘zdagi noaniqlik, shubhasiz, fikr noaniqligining alomatidir” deb yozadi. Demak, mavjudlik narsalar, hodisalar orqali nutqda aniq aks etgan. Filologiya fanlari doktori N.Mahmudov aniqlik haqida shunday yozadi: “Demak, nutqning aniqligi so‘zning tildagi ma`nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat`iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir” (ko`rsatilgan adabiyot, 90-b.)

Aniq nutq yaratish so‘zlovchidan quyidagilarni o‘rganish va ularga amal qilishni talab qiladi:

- A) tilning sinonimlik imkoniyatlarini bilish va sinonimlik qatoridan kerakli variantni ajratib nutqda qo‘llash;
- B) nutqda ishlatiladigan so‘zning anglatgan ma`nolarini har tomonlama bilish, noijodiy taxminiy qo‘llashlardan qochish, chunki betayin so‘z qo‘llash nutqni beburd qiladi;
- V) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;
- D) paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e`tibor berish.

Quyidagi misollarda aniqlikning buzilishini kuzatish mumkin. Ro`yxatga olish kitobi (ro`yxat daftarga olinadi), Tarbiyachi bolalarga tushunarli bo`lishi uchun kitobni olib, xontaxta tortmasiga qo`yadi (xontaxtada tortma bo`lmaydi.), Avlodlar merosini o`rganamiz (ajdodlar merosini bo`lishi kerak), Ishtirokchilarining ismi sharifini yozib oling (ismi sharif – sharaflı ismingiz degani, sharif familiya ma`nosini bermaydi), kasallik chaqiruvchi mikrob (mikrob kasallik chaqirmaydi, kasallik qo`zg`aydi), Beliga beshta bomba bog`lab oldinga tashlandi (belga bombani bog`lab bo`lmaydi), ikki tilli Dilshodi Barno ijodi o`ziga xosligi bilan ajralib turadi (inson ikki tilli bo`lmaydi, ikki tilda ijod qiladi). Mana bu jumlaga e`tibor beraylik: Gippokrat **kasal** ko`rganda, undan: “Siz kim tomondasiz? Men tomondami yoki **kasal** tomondami?” deb so`rarkan. Shunda **kasal**: “Albatta, siz

tomondaman-da”-desa, Gippokrat unga qarab: “Men tomon bo`lsangiz biz ikkovlon **kasalni** yengamiz. Agar **kasal** tomonda bo`lsangiz, men yolg`izlanib qolaman-da”, -der ekan (“Hurriyat”, 2006,5-iyul). Albatta, kasal polisemantik so`z. Izohli lug`atda uning 7ta ma`nosi qayd etilgan. 1) organizm normal faoliyatining buzilganlik belgisi (sifat); 2) organizmning normal faoliyati buzilgan kishi (ot); 3) organizm normal faoliyatining buzilganlik holati; 4) qutulib bo`lmaydigan odat; 5) kamchilik, illat va h. Parchada bu so`z 2-3-ma`nolari bilan ishlatilgan. Ko`rinadiki, fikr aniqligi yetishmayapti. Korxonaga yangi texnologiya o`rnatildi. (Korxonaga yangi texnologiya joriy etildi bo`lishi kerak, texnika o`rnatiladi) ...30 ming tonna benzin yoki boshqa yoqilg`i kerak bo`ladi (yoqilg`i umuman yonadigan ashyo (toplivo), yonilg`i suyuq modda, ya`ni goryuchee)

Savollar

- 1.Nutqning kommunikativ sifatlari deganda nimani tushunasiz?
- 2.Nutqning to‘g‘riliqi nutq madaniyati uchun qanday ahamiyatga ega?
- 3.qanday nutqni biz aniq nutq deymiz?
- 4.Nutqning aniqligiga qanday yo‘llar bilan erishiladi?
- 5.O‘zbek shoir va yozuvchilarining so‘z boyligi haqida so‘zlang.

Adabiyotlar

- 1.Rasulov R., Mo‘yдинov Q. Nutq madaniyati. -T., 2004-yil.
- 2.Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. -T., 2002-yil
- 3.E.Begmatov. Nutq madaniyati muammosining paydo bo‘lishi va asoslanishi // Nutq madaniyatiga oid masalalar. --T., Fan, 1971-yil.
- 4.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., O‘qituvchi, 1991-yil
5. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -Buxoro, 2002-y.
6. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Nutqning mantiqiyligi, sofligi va boshqa xususiyatlari (4 soat)

Reja:

- 1.Nutqning mantiqiyligi.
- 2.Nutqning sofligi va unga putur yetkazuvchi unsurlar.
3. Nutqning boshqa sifatlari.

Tayanch tushunchalar:

Aniqlik, sinonimiya, omonimiya, dialog, monolog, paronimiya, metafora, metonimiya, leksikografiya, jargon, vul`garizm, kantselyarizm, ekstrolingvistik, semasiologiya, leksikologiya.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatic jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug‘aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillilikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib etmasligi, ba`zan umuman anglashilmasligiga olib keladi. Nutqni tuzishdagi e`tiborsizlik natijasida ba`zan, hatto, mantiqsizlik yuz beradi. quyidagi misolga e`tibor qiling: “Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish rejalarini muddatidan oldin bajaradilar (gazetadan)”. Gapda so‘zlarning tartibi to‘g‘ri bo‘lmanligi, “olti oylik” birikmasining “sotish” so‘zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur etayapti, hatto xato fikr ifodalanayapti.

Tushuncha mantiqiyligi alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo‘lishini taqozo qiladi. Ammo, bu talabni nutqiy jarayonning hamma ko‘rinishlarida ham o‘rtaga qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan: vazifaviylik uslublarida, xususan ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini olib ko‘raylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir tuzilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo‘lib, ular yagona bir xalqaga birlashadi. Matnda bayon qilinayotgan fikrlar qat`iy izchillikda bayon qilinadi. Badiiy nutq tuzilishi esa, bir oz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelindi-yu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilinib ketiladi. Bu narsa go‘yo mantiqiy izchillikka putur etkazganday ko‘rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng planlilik tasvir qurilishini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqan putur etmaganligi bunday asarlarning oxirida ma‘lum bo‘ladi. Nutqning mantiqiyligi – nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarning o‘zaro munosabatliligi mantiqiylilik deb yuritiladi. Mantiqiy nutqda gaplardagi fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanadi. Ular orasida ziddiyat bo‘lmaydi, mantiqiylilik aniqlikka suyanadi. Bunda predmet aniqligi ham tushuncha aniqligi ham mavjud.

B.N.Golovinning ta`kidlashicha, “Narsa mantiqiyligi va iushuncha mantiqiyligini farqlash maqsadga muvofiq”. Lutfiy Navoiyga Amir Hisrav Dehlaviyning bir she`ridagi go`zal ma`no va o`xshatish haqida maqtov bilan gapirib beradi. Ya`ni: “Mahbuba yomg`irli kunda yo`lda tiyg`anib yiqilay deydi. U shuqadar go`zal va nozikki, yog`ayotgan yomg`ir rishtasini ushlab, uning madadi

bilan o`zini o`nglab oladi”. Bu ta`rif Navoiyga behad ma`qul tushadi. Saroydagagi bir majlisda uni Boyqaroga aytib beradi va uning hayratlanishini kutadi. Ammo Boyqaro “Yuqoridan pastga tushayotgan yog`in rishtasi yiqilayotgan kishiga madad bo`lorlmaydi”, -deb e`tiroz bildiradi. Navoiy Boyqaroning o`tkir va nozik mantig`iga va she`rfahmlig`iga qoyil qoladi. Demak, Boyqaro bu yerda tushuncha mantig`ining buzilishini ilg`agan. Yana bir misol. “Darakchi” gazetasida: ... Meteoritning qulashi shu qadar kuchli bo`lganki, uning natijasija elliptik shakldagi qiyalik paydo bo`lgan. **Qiyalikning chuqurligi** taxminan 40 metrni, uzunligi 10 kmni, eni 7kmni tashkil etadi. Yuzaning shimoli g`arbida **balandligi 60 metr va uzunligi 1 km bo`lgan chuqurlik** paydo bo`lgan (qiyalikning chuqurligi, chuqurlikning balandligi, chuqurlikning uzunligi kabi birikmalarda mantiq sog`lom emas). Yoki, Buldozer, “Zil” avtomashinamiz miltiqning o`qiday uchadi (buldozer uchmaydi). Loqaydlik tufayli ko`rsak ham indamaymiz (aslida: Ko`rsak ham loaydlik tufayli indamaymiz)

Atoqli yozuvchi A.Qahhorning “San`atkor”, “Adabiyot muallimi” kabi hikoyalarda ba’zi bir, hatto o‘qimishli shaxslar nutqida ham mantiqsizlik kuzatilishi yaqqol aks etgan va ular kulgu osniga olinadi (parcha o‘qib beriladi).

Xulosa qilganimizda, nutqning matiqiyligi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora aniq maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

Nutqning tozaligi (sofliyi). Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, ideal nutq hozirgi o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo‘lishi, turli til, g‘ayri adabiy til unsurlaridan xoli bo‘lishi kerak. Bu masalaning lisoniy tomoni bo‘lib, nutqiy tozalikning nolingvistik jihatlari ham undan kam bo‘lмаган аhamiyatga ega.

Nutqimizning toza bo‘lishiga halaqit berayotgan lisoniy unsurlar, asosan, dialektizmlar va varvarizmlardir. To‘g‘ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo‘lmaydi. Chunki, badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar bilan ma`lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma`lum g‘oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Aytaylik, milliy kaloritni bermoqchi yoki asar qahramonining qaerlik ekanligiga ishora qilishda dialektizm va varvarizmlarga murojaat qilishi, hatto, zarurdir. Masalan: “*Yoshulli, saning qizing bunda gatirilmagan. Ova, yoshulli. San manglayi qara batkirdor, na sababda mundoq yomon so‘zlarni elga tarqatding*” (Mirmuxsin). Ushbu misolda dialektizmlar hududiy kaloritni berishga xizmat qilgani kabi quyidagi misolda varvarizmlar – chet so‘zlar xarakter yaratishda yozuvchiga ko’maklashgan. “Dubora” yana bordi bir ishga shul, (so‘kib-net, - dedi, kelma durrak, poshul!)

Parazit so‘zlar deb ataluvchi lug‘aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatilib, notiqning o‘z nutqini kuzatib bormasligi, e’tiborsizligi natijasida paydo bo‘ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan: ayrim kishilar o‘zlarini sezmagan holda demak, xo’sh kabi so‘zlarni qaytaraverishga o‘rganib qolganlar. “*Bir dokladchining bir soatlari nutqida, -deb yozadi A.Axmedov – “o‘rtoqlar” so‘zi 101 marta, “ya’ni” so‘zi 73 marta, “demak” so‘zi 60 marta takrorlanganligining guvohi bo‘lamiz. Qarang, bir*

soatlik nutqda 234 ta ortiqcha, “bekorchi” so‘z ishlatalgan” (A.Ahmedov. Til boyligi. – -T., 1968, 27-bet).

Adabiy til uchun begona usullari bo‘lman axloq normalari tan olmaydigan so‘zlardan xoli bo‘lgan nutq sof nutq de-yiladi. Ba`zi holatlarda nutq sofligiga quyidagilar putur etkazib turadi:

- A) mahalliy dialekt va shevalarga xos so‘z va so‘z birikmalarining talaffuzi, urg‘usi;
- a) o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari;
- b) jargonlar;
- v) vul`garizmlar;
- g) nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so‘zlar;
- d) kantselyarizmlar.

A.Qahhor o‘zining “Nutq” hikoyasi (felyetoni)da bir qolipdan chiqa olmaydigan, uyda ham, ishda ham bir xil nuqqa ega g‘ilof bandalarini ayovsiz qamchilaydi. (Matn o‘qib beriladi)

Nutqning ta`sirchanligi. Nutqning ta`sirchanligi deganda, asosan, g‘zaki nutq jarayoni nazarda tutilgan va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruxiy vaziyatni e`tiborga olish ham muhimdir. Ya`ni, notiq tinglovchilarni hisobga olishi kishilarning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigagacha, o‘z nutqining tinglovchilar eshitayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turishi, o‘z nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilayotganini nazorat qilishi lozim bo‘ladi. Professional bilimga ega bo‘lgan kishilar oldida jo’n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo‘lmanagi kabi, oddiy, etarli darajadagi ma`lumotga ega bo‘lman tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish kerak emas. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni to‘laligicha tinglovchilarga etkazishga harakat qilish vazifa qilib qo‘yiladi. Xo’sh, ta`sirchan nutq deganda qanday nutqni tushunmoq kerak? *Unga B.N.Golovin shunday ta`rif beradi: “Ta`sirchan nutq deb nutq qurilishining tinglovchi va o‘quvchi e`tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga aytiladi, o‘z navbatida shu xususiyatlarga ega bo‘lgan mutq ta`sirchan sanaladi”*.

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish notiqlar oldiga qo‘yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo‘lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o‘zaro bog‘lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tanishtirib, gapni bog‘lash lozim. Vaqtini hisobga olish notiqlik fazilatlaridandir. Chunki so‘zlash muddati oldin e’lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo‘lsa, sal oldinroq tugatilsa, tinglovchilar zerikmaydi.

So‘zlovchining o‘z nutqiga munosabati ham muhimdir, chunki, shunday bo‘lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish bo‘ladi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi aloqa yaxshi bo‘ladi. Notiq fikrlarni o‘zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir sub`ektiv fikr mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ta`sirli bo‘ladi.

Nutq madaniyatining aloqaviy sifatlaridan hisoblangan mantiqlilik, aniqlik va ta'sirchanlik ham, ma'lumki, adabiy til normalariga to'la amal qilish orqali ta`minlanadi. Normaga amal qilmaslik mantiqsizlikni vujudga keltirib qo'yishi, nutqni buzishi mumkin. Masalan, "Kunlar isib ketdi, muzlar eridi" gapini olaylik. Bu gap bog'lovchisiz qo'shma gapdir. Grammatik qurilish to'g'ri, so'zlar o'zaro to'g'ri bog'langan, qo'shma gap qismlari hisoblangan har bir sodda gap orqali ifodalangan fikr ham to'g'ri, umumiy fikr ham mantiqqa mos keladi. Shu gapni "Muzlar eridi, kunlar isib ketdi" shaklida o'zgartirib ko'rilsa, yana har bir gap ifodalagan fikr ham so'zlarning birikishi va to'g'rilingicha qolaveradi. Biroq endi mantiq buziladi. Demak, bu qo'shma gap qismlarining o'rinalashish tartibi faqat birinchi holatdagi kabi bo'lishi lozim. Yoki boramiz biz uyimizga tarzida qo'llash adabiy normaga mos emas. O'zbek adabiy tilida eganing oldin, kesimning gap oxirida kelishi grammatik normadir. Shunga ko'ra, bu gapdagi bo'laklar Biz uyimizga boramiz gapidagi kabi joylashishi kerak, aks holda nutq to'g'ri bo'lmaydi, mantiq buziladi, ta'sirchanlik ta`minlanmaydi.

Ko'rindaniki, lisoniy vositalarni yuqoridagi kabi noto'g'ri qo'llash birinchidan nutqni buzsa, ikkinchidan mantiqiylukka, aniqlikka va ta'sirchanlikka ta'sir qiladi. Demak, adabiy til normasining buzilishi, nutq sifatiy xususiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ana shuning uchun ham nutq madaniyati sohasi tilshunoslik fani bilan – normativ grammatika bilan chambarchas bog'liq holda bo'ladi va unga tayanadi.

Nutq madaniyatining sifatlaridan biri **nutqning boyligidir**. Nutqning boyligini tilning lug'at boyligi ta'minlaydi. Shuning uchun ham tilda lug'atlarining o'rni kattadir. U so'zlovchi uchun katta bir xazina bo'lib, notiq ana shu xazinadan bahramand bo'lsagina o'z nutqini boy qila oladi. Ma'lumki, yangi so'zlar, atamalarning hosil qilinishi, o'zlashtirilishi tilshunoslik fanining tekshirish obyektidir.

Nutq madaniyati sohasining **leksikologiya** va **semasiologiya** sohalari bilan uzviy bog'liqligi hech shubhasizdir. Nutqiy aniqlik va mantiqiylukni tilning so'z boyligini egallamasdan, har bir so'zning ma'nolarini aniq bilmasdan turib ta'minlash mumkin emas. Jumladan, tildagi sinonimlarni yaxshi bilmasdan turib, tushunchalarni aniq ifodalab bo'lmaydi. Masalan **yuz** so'zi anglatgan tushuncha bilan **bashara** so'zi anglatgan tushuncha bir emas: Basharangga odam qarab bo'lmaydi gaplarini olib qaraylik. Bu ikkala gap ma'nosida go'yo farq yo'qdek. Biroq birinchi gapda shaxsning butun gavdasi, ust-boshi ko'zda tutilsa, ikkinchi gapda yuzi ko'zda tutiladi. Demak, yuz va bashara so'zları o'zaro sinonim bo'lsada, ular anglatayotgan tushunchalar bir-biridan farq qiladi.

Tilning so'z boyligini, uning sinonimlar, antonimlar, qolaversa, omonimlar sistemasini, har bir so'zning o'ziga xos ma'no va grammatik xususiyatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish – nutqning tozaligi, ta'sirchanligi, ifodaliligi, jo'yaliligi, qisqaligi kabi ko'pgina boshqa aloqaviy sifatlarni ham ta'minlaydi. o'zbek tilida mavjud bo'lgan lug'aviy imkoniyatlarni bilmaslik natijasida, masalan, elvizak so'zi shrnida skvoznyak yoki tomorqa so'zini bilmaslik natijasida uning o'rnida hovli yoki boshqa so'zni ishlatib qo'yish kabilar o'z-o'zidan nutq tozaligiga putur etkazadi, sinonimlarni bilmaslik nutq ifodaligiga

salbiy ta`sir qiladi; jumla tuzishni bilmaslik, grammatik qoidalarni to`g`ri egallamaslik nutq tejamliligiga zarar qiladi va h.k. Bir deganni ikki demak xush emas, Chu so`z takror topti dilkash emas, deydi hazrat Navoiy. Shuning uchun ham u o`z ijodida 26 mingdan ortiq so`zdan foydalangan ekan. Pushkinda bu ko`rsatkich 21 mingtani, Abayda esa 5 mingdan ortiqroqni tashkil etgan.

Yuqorida aytganimizdek, tilning lug`at tarkibini yaxshi bilmasdan turib boy nutqqa erishib bo`lmaydi. Demak, nutq madaniyati ilmiy tarmoq sifatida **lug`atshunoslik** (leksikografiya) bilan uzviy aloqadordir.

Lug`atlarning xazina ekanligini, nutq malakalarini oshirishda juda katta ahamiyatga ega ekanligini ko`pgina buyuk olimlar, har xil sohalarning mutaxassislari, yozuvchilar, shoirlar doimo ta`kidlab kelishgan.

S.Akobirovning quyidagi fikri juda ahamiyatlidir: “Fikrni qisqa, aniq va to`g`ri ifodalash uchun eng muvofiq so`z topish kerak bo`lgan hollarda ham lug`atlardan foydalilanadi”.

Notiq nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o`rinni egallaydi. Ular o`quvchi bilimining, dunyoqarashining omili hisoblanadi. Shuning uchun o`qituvchi har bir yangi atamani to`g`ri va yorqin izohlab o`quvchi ongiga singdirib berishi lozim.

Nutq boyligi – notiq nutqining boyligi (rang-barangligi) deyilganda unda ishlatiladigan til vositalarining ko`pligi, kam takrorlanganligi, tinglovchiga ko`rsatgan ta`siri tushuniladi.

Nutqning ifodaliligi – notiq nutqining muhim shartlaridan biri ifodalilikdir. Ifodalilik nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishini ta`minlaydi. Irodalari sodda, ammo katta mazmunga ega bo`lgan nutq tinglovchilik nuqtai nazaridan qaraganda kishilarning nutqlari xilma xildir. hatto bir mavzuga bag`ishlangan turli kishilarning nutqi turlicha ifodalanishi mumkin. Bunday nutqlarning biriga tinglovchi qiziqib qarasa, boshqasiga nisbatan loqayd munosabatda bo`ladi. Nutqni ravon qilishda mavzu va xabarning mantiqi, dalillarning yangiligi, muallifning ta`sir o`tkazish vositalari, nutqning struktura xususiyatlari muhimdir.

O`xshatish –kabi, singari, -day, -dek kabi vositalar bilan hosil qilinadi. O`xshatish nutqning turlari uchun ham muhim. Ammo u badiiy nutqda ko`proq uchraydi:

...Okoplardan ov chiqadi
Och bo`riday ulishib.

Metafora – narsalar, hodisalar orasida o`xshashlikka asoslanib bir-biriga xos bo`lgan belgi xususiyatlarini boshqasiga ko`chirishdir.

Sinekdoxa ham nutqning ifodalilagini ta`minlaydi.

Biz ham... quyosh, tuproq vaslidan,
qiziydi, orqada, oldimizda yo`l
Go`zal bo`lib ketmish tuproq aslida,
Urib sochib o`tgach mehnat nomli gul.

Metonimiya – narsalarning zamon va makonda o`zaro bog`lanishlariga asoslanadi.

Faqat Chust do`ppisi ostidan toshgan,
Kumush xalqalardan oqib tushar ter.

(Zulfiya).

“Kumush xalqalar”ning chust do‘ppisi ostidan toshib turishi ularning qo’ng‘iroq soch o‘rnida ishlatilganligini anglashga imkon beradilar.

Tabiiyki, tashviqot xarakteridagi ma`ruza yoki dars jarayonidagi bayon nutqida ham ifodalilik alohida zaruriyatga aylanadi. O`qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o`z nutqining ifodaliliga e`tibor bermasa, ifodalilikni ta`minlaydigan vositalardan foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo`ladi. Ifodalilikni ifodalash tilning barcha sathlarida mavjud. Adabiyotshunoslikda allertatsiya, assonans deb yuritiladigan unli va undoshlar takrori bor. Sevimli shoirimiz E.Vohidov ana shu usuldan mohirlik bilan foydalana olgan.

*Qaro qoshing, quyuq qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz,
Qilib qatlimg`a qasd, qilich qayrar qotil qaroshing, qiz.
Qafasda qalb qushin qiynab,qanot qoqmoqqa qo`ymassan,
Qarab qo`ygil qiyokim,qalbimni qizdirsinquyoshing, qiz.*

Ayol

*Ardoqlangiz abad a’zal ayol ahlin,
A’molini avaylangiz ag’yorlardan.
Anduhlardan asrang aql-u armonini,
Alyor ayting, alyor ayting ayyomlarda.*

*Axir avval alla aytgan ayol ahli,
Alla aytib, allalagan ayol ahli,
Avaylabon anduhlardan avlodini,
Aslimizni azizlagan ayol ahli.*

Nutqning o‘rinliligi (jo‘yaliliqi) – bu nutqning fazilatlari ichida eng muhimlaridan biridir. Chunki nutqning boshqa fazilatlari barcha uchun, nutq so‘zlanib turgan sharoit uchun o‘rinli bo‘lsagina o‘zini ko‘rsata oladi.

Kaykovusning shunday bir o`giti bor: “Tilingni yaxshi hunar bilan o`rgatg`il va muloyim so`zdin o`zgani odat qilmag`il. Nedinkim, tilga har nechik so`zni o`rgatsang, shuni aytur, so`zni o`z joyida ishlatg`il, so`z agar yaxshi bo`lsa, ammo noo`rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshm so`z bo`lsa ham, yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so`zlamag`ilki, foydasizdur. Bunday befoya bo`z ziyor keltirur va har so`zki undin hunar isi kelmasa, bunday so`zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: “So`z bir nash`adur, undan xumor paydo bo`lur”.

Xalqimiz donoligida “So`zga tushmagan so`zni aytma, sozga tushmagan g`azalni”, “Jo`yali so`z jo`yasin topar – jo`yasiz so`z iyasin topar”, “Jo`yaga tuya ham cho`kadi”, “O`rinli so`zga tuya cho`kadi, o`rinsiz so`zga hamma so`kadi”. Notiq nutq tuzar ekan, uning jo`yasini, o`rnini aniq tasavvur qilishi shart. Masalan, kimningdir og`ir kasalligi yoki vafoti haqida jimjimador, tantanavor gapirib bo`lmaydi. O`lmoq fe`lining vafot etmoq, olamdan o`tmoq, yo`qotmoq, ko`z yummoq va h. Ko`plab ma`nodoshlari bor.

Nutq uslublari haqida gap ketganda, ularning har biri uchun xoslangan til vositalari borligi ta`kidlanadi. Masalan yozma va og`zaki nutqning voqe bo`lish sharoitlari bir xil emas. Ularning grammatik shakllari, qoliplari bor.

Jo`yali nutq tuzish uchun tinglovchi yoki o`quvchining yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi, madaniy-ma`rifiy saviyasi kabi jihatlarni ham yoddan chiqarmaslik kerak.

Takrorlash uchun savollar

1. Aniqliq nima Uning kommunikativ sifatlari haqida aytib bering.
2. Sinonimiya, omonimiya va paronimiya nima?
3. Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
4. Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar nima?
5. Nutqning boyligi, ifodaliligi, jo`yaliligi deganda nimalarnini tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Rasulov R., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati. -T., 2004-yil.
2. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. R.Qo`ng`urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. -T., 2002-yil
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., O`qituvchi, 1991-yil
4. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -Buxoro, 2002-yil.
5. Mahmudov N. O`qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Nutq shakllari va turlari. Og‘zaki va yozma nutq xususiyatlari (2soat)

Reja:

Insonning nutqiy ko‘rinishi uch turda namoyon bo‘ladi. Bular **so‘zlash, mutolaa va eshitish**. So‘zlash noma‘lum bo‘lgan narsalar haqida so‘rashni anglatadi. So‘zlanganda so‘zlovchining deyilganda so‘zlovchining ma‘lumot, maslahat berish, buyurish, o‘ziga bilimi, madaniyati, odobi yuzaga chiqadi.

So‘zlash monologik va diologik ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Monologik nutqda bir kishining mulohazalari qarshi savollarsiz yokijvoblarsiz yuzaga chiqadi. Suhbatdosh tomonidan bo‘linmaydi. Diologik nutqda muloqot qiluvchi navbat bilan goh tinglovchi, goh so‘zlovchi bo‘lib turadi.

Mutolaa o‘quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli o‘quvchi yozma nutqda aks etgan voqeа-hodisalardan xabardor bo‘ladi. Mutolaa ma‘lumot olishning eng muhim yo‘lidir. Kishi o‘qish orqali ma`naviy yetuklikka erisha boradi.

Ma‘lumki, nutq og‘zaki va yozma ko‘rinishga ega. Og‘zaki nutq gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo‘lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi.

Og‘zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi. Tushunchalar bilan “uning libosi” bo‘lgan so‘z birgalikda “yashin tezligida” tilga kela boshlaydi.

Og‘zaki nutqda so‘z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi fikrlarga monand holda tezkorlik bilan tanlanadi. Gap qurilishini, modellarni aql nazorat qilib boradi. Fikri aytganlarini xotirada ushlab turgan holda rivojlantirishga to‘g‘ri keladi.

Og‘zaki nutq tahrir imkoniyatidan maxrum. U qanday shaklda borliqqa kelgan bo‘lsa shundayligicha tinglovchiga xavola qilinadi.

Og‘zaki nutqda odatda, muloqot uchun eng zarur narsalarnigina zuhur etiladi. Bu bir tomonidan vaqt iqtisodi bilan ikkinchidan nutq kuchini tejash bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra unda uzundan-uzoq kirish, keng izohlar ham uchraydi. Ayniqsa, hodisalarning, narsalarning o‘zaro bog‘liqlik darajalari, ularning tinglovchi va so‘zlovchiga ravshanligi darajasi hisobga olinadi.

Og‘zaki nutq so‘z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag‘al bo‘ladi. Unda bir xil so‘zlar, bir xil shakllar bir qadar ko‘proq takrorlanadi, bu hol til vositalarini tanlash qiyinchiliklari bilan bog‘liqdir.

Og‘zaki so‘zlovchining faol nutqiy harakati to‘xtam (pauza), ohang, urg‘u, turli xil imo-ishoralar asosida tinglovchiga etib boradi.

To‘xtam – ovozning vaqtincha to‘xtashi bo‘lib, bu davrda nutq a‘zolari to‘xtaydi, nutq oqimi uzeladi. To‘xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagagi qismini talaffuz qilishga hozirlik ko‘riladi. To‘xtamdan turli maqsadlarda foydalaniladi. Nutqning bir nafas tugaguncha aytilgan qismidan so‘ng yangi nafas olish uchun qilingan to‘xtalish nafasni rostlash to‘xtami deyiladi. Nafas rostlash to‘xtamida o‘pkaga havo to‘ldirilib olinadi. Bunday to‘xtamdan radio, televideniya suxandonlari yaxshi foydalanadilar.

Yozma nutq og‘zaki nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Nutqni yozayotgan muallif vaqt jihatdan bemalol fikrlash imkoniyatiga ega

bo‘ladi. U o‘z nutq qismlarini va butun nutqni qayta-qayta tahlil qilish, fikr uchun eng mos imkoniyatlarni tanlashi, gap tuzilishini ko‘paytirishi mumkin. Shuning uchun ham yozma nutq og‘zaki nutqdan ravondir.

Kishilarning nutqiy faoliyati monolog, diolog, polilog ko‘rinishida amalga oshadi.

Monolog – so‘zlovchining o‘ziga yoki tinglovchiga qaratilgan nutqidir. Monolog nutqda so‘zlovchi o‘ziga ma’lum bo‘lgan voqeа – hodisalar, o‘z ichki kechinmalari haqida ma`lumot beradi.

Ichki monolog adabiyotda qo‘llanuvchi uslubiy usullardan biridir. Bu usul yuz bergen aniq voqealarni, ularning zamirida qahramon ichki kechinmalarida paydo bo‘lgan fikrlar sifatida bayon etish imkonini beradi. Ichki monolog so‘zlovchining ichki nutqidir.

Tashqi monolog so‘zlovchining tashqi nutqidir. Unda til imkoniyatlari harakatga keladi.

So‘zlovchining ichki his-tuyg‘ulari, ruxiy kechinmalarini ifodalovchi tashqi nutq lirik monolog deyiladi. Lirik monologda shaxsning orzu-umidlari, tashqi dunydan olgan ta`surotlari, kelajak rejalarini aks etadi.

So‘zlovchining yuz bergen voqeа-hodisalar haqida hikoya qilib berishi xabar monologi hisoblanadi. Xabar monologi hikoyachilik, qissachilikda ko‘proq qo‘llaniladi.

So‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytlishi urg‘u de-yiladi. So‘zning urg‘u tushgan bo‘g‘ini urg‘uli bo‘g‘in, qolganlari urg‘usiz bo‘g‘in de-yiladi. o‘zbek tilida urg‘u asosan so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. So‘zlarga qo‘srimcha qo‘shilsa urg‘u ham ko‘chadi.

Diolog nutq shakllaridan biri bo‘lib, unda har bir fikr to‘g‘ridan to‘g‘ri suhbatdoshga qaratilgan bo‘ladi. Diolog nutqning sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi. Diolog deganda ikki va undan ortiq kishilarning o‘zaro suhbatli tushuniladi. Diologda har bir shaxsning gapi xat boshidan tire qo‘yib yoziladi.

Imo-ishora deb, nutq jarayonida ixtiyorsiz ravishda namoyon bo‘ladigan qo‘l va gavda harakatlariga aytildi. Imo-ishoralar yordamida fikr bildiriladi.

Adabiy tilning muhim xususiyatlaridan biri uning murakkab, ko‘p qirrali vazifalarini ham yozma, ham og‘zaki shakllarda o‘tashidir. Xar qandai adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllarishshg yuzaga kelishi o‘z tarixiga va murakkab qonuniyatlarga egadir. Adabiy til har ikki shaklining paydo bo‘lishi ham o‘ziga xosdir. Bu dastlab adabiy til yozma shaklining yuzaga kelishi, keyinchalik zsa og‘aki shaklining paydo bo‘lishida ko‘rinadi.

Adabiy tillarning yozma shakli yuzasidan ko‘pgana tadkikotlar olib borilgan. Lekin adabiy til og‘zaki shaklining paydo bo‘liish va shakllanish qonuniyatlarini nihoyatda kam o‘rganilgan. Shuni xisobga olib biz kuyida bu masalaga kisqacha tuxtalamiz. Adabiy tilning dastlabki namunalari ilk davrda xalq- jonli tilining yozuvdagi ifodasi bo‘lgan. Shu sababli ilk davrdagi yozma va og‘zaki nutq orasida shakli farq kam bo‘lgan. Xozirgi ma‘nodagi sezilarli xususiitlar bo‘lmagan. Lekin yozuv, yozma nutqning o‘zi ma’lum ma’noda unga ijodiy yondoshish, uni estetak-

normativ baholash natijasidir. Yozuv kishining o'z tili, ya'ni Yoma nutqa ustida o'ylashiga, unga mayaan o'zgartirishlar kiritishiga imkon beradi. Yozma tilda badiiy, ilmiy asarlar ijod qilish, (yozishmalar olib borish esa qayd qilingan imkoniyat chegaralarini yanada kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Natijada muayyan davrga kelib, o'zining ma'lum xususilyalari bilan jonli og'zaki til (xalq tili) namunalaridan (sheva va dialektlardan) farqlanuvchi til, shakli yuzaga keladi. Bu hozirgi adabiy tilning ilk namunasi edi. Shunday qilib, adabiy tilning- paydo bo'lishida yozuv muxim va belgilovchi rol' o'ynyadi. Shu tufayli ham adabiy til dastlab yozma til - yozma adabiy til sifatida shakllandi. O'zbek adabiy tilning paydo bo'lishi va shakllanishi XI-XV asrlarga to'g'ri keladi. Adabiy til og'zaki shaklining yuzaga kelishi ma'lum sharoitlar bilan bog'liqdir. Bulardai eng muhimi adabiy tildan kundalik turmushda foydalanish zaruriyatining paydo bo'lishi va bu jarayonning kundalik xayotiy zhiyoyga aylanishi bilan bog'liqdir. Natijada adabiy tilning o'ziga xos alohida ko'rinishi og'zaki adabiy nutq yuzaga keladi va u o'ziga xos xususiyatlari bilan yozma tildan farq qiladi.

Adabiy til og'zaki shaklining paydo bo'lishi sheva va dialektlardan ustun turuvchi, qo'llanish doirasiga ko'ra ulardan ustunlik qiluvchi og'zaki nutqning yuzaga kelishidir. Og'zaki adabiy nutqning yuzaga kelishi har qanday rivoj topgan milliy tilning xam muxim belgisidir. Adabiy tilning dastlabki davrlarida adabiy tilniig ikki shakli - yozma nutq va og'zaki adabiy nutq bir-biriga qarama-qarshi qo'yib kelingan bo'lsa, adabiy tilning milliy tillik davriga kelib, adabiy nutqning bu ikki turi o'zaro yaqinlashadi, o'zaro bir-biriga o'tib turadigan bo'lib qoladi. Shunday qilib, adabiy til og'zaki shakli tilning milliy tillik davrlarida, ya'ni MILLIY TIL shakllanishi davrida yuzaga keladi. Bu paytga kelib adabiy til og'zaki shakli uchun zaruryat tug'iladi. Muayyan ijtimoiy-tarixi sharoitlar yuzaga keladi. Adabiy til bu davrda keng halq ommasi hayotiga kirib boradi, u og'zaki nutq tarzida qo'llana boshlaydi. Og'aki adabiy tilda gapiruvchilar soni kepgayib va ko'payib boradi. Adabiy tilning og'zaki shakli, xuddi uning yozma shakli kabi mакtab va maorif sohalariga kirib boradi, og'zaki nutq radio, keyinchalik televidenie tiliga aylanadi, og'zaki tilda keng doirada bilim beriladi, og'zaki targ'ibot ishlari olib boriladi. Adabiy tilning og'zaki shakli uning yozma shakli kabi ma'lum qoidalarga solinadi, uning me'yorlari belgilanadi. Adabiy til og'zaki shaklining yoyilishi va shakllanishida milliy teatr, radio televidenie tili, aynaqsa, O'rta va oliy maktab ta'limi alohida rol' o'ynaydi. Mana shunday sharoitlar o'zbek adabiy tili uchun XX asr davrida yuzaga keldi. Bu hol o'zbek adabiy tili og'zaki shaklining yuzaga kelishi va shakllanishi uchun asos bo'ldi. Shunday qilib, o'zbek adabiy tilida yangi

komponent - o'zbek adabiy tilining og'aki shakli paydo bo'ldi. Demak, o'zbek adabiy tili aloqa quroli sifatida ikki shaklga ega:

- 1) o'zbek yozma adabii tili;
- 2) o'zbek og'zaki adabiy tili. Adabiy tilning bu ikki shakli yozma adabiy nutq og'zaki adabiy nutq deb ham yuritiladi. Adabii til - umumxalq tilining oliy shaklidir. Ushbu fikr adabiy tillarga bag'ishlangan ishlarning barchasida qayd qilinadi. Ammo adabiy tilning «oliy shakl» ekanligi, bu tushunchaning mazmun va mohiyati tilshunoslikda yetarli ravishda ochib berilgan emas. R.A.Budagov to'g'ri ta'kidlaganidek, adabiy til tushunchasini izohlashda hali anchagina chalkashliklar,

muammoli o'rinalar bor. «Adabiy til» tushunchasining leksikografik ishlarda talqin qilinishiga diqqat qilinsa, bu til shaklining asosiy belgilari uning normalariga, bu normalardagi o'ziga xosliklarga bog'langan holda tushuntirilishini ko'ramiz. Chunonchi, adabiy til bu namunaviy ravishda normalangan tildir. Uning normalari «to'g'ri» va umummajburiy deb qabul qilinadi va dialektlar, shuningdek, sodda til so'zlariga qarama-qarshi qo'yiladi. Yoki: adabiy til «umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum normaga solingenan, xalqning turli madaniy ehshyojlariga xizmat qiluvchi formasidir». Adabiy tilning, oliy shakllik xususiyati uning normalariga bog'lanayotgani beziz emas, albatta. Chunki adabiy til milliy tilning boshqa ko'rinishlaridan normalanganligi, bu normalarga ishlov berilganligi, ifoda usullari va uslublarining sayqallanganligi, normativ vositalarning qayta baholanganligi, ular muayyan qoidalar ostiga olinganligi, norma deb qabul qilingaya hodisalarning bu tilda gaplashuvchilar tomonidan ma'qullanganligi va namunaviy deb tan olinganligi bilan farqlanadi. Ushbu normalar adabiy tildan foydalanuvchilar uchun umummajburiy hamdir. Adabiy til yo'q joydan olinmaydi, balki umumxalq tili asosida paydo bo'ladi. Ammo adabiy til uchun asos bo'lgan xalq tilidan, lahja va shevalar normalaridan yuqorida qayd qilingan xususiyatlarga ko'ra farqlanadi va ustun turadi. Shuning uchun ham adabiy til milliy tilning lahja va shevalarga nisbatan ustunlikka ega bo'lgan oliy shakli deb hisoblanadi. Adabiy til o'z qo'llanish doirasining kengligi, umumxalq quroli sifatidagi afzalliklari, imkoniyatlariga ko'ra xam milliy tilniig boshqa ko'rinishlaridan ustun turadi. Bu adabiy tilning ko'p vazifaligida, ya'ni polivalentligida, keng ravishda uslubiy tarmoqlanganligida ham namoyon bo'ladi. Bu xususiyat yuqorida izohlandi. Adabiy tilga xos qayd qilingan fazilatlar, afzalliklar adabiy tilni milliy tilning (xalq tilining) oliy shakli deb atashga asos bo'ladi. Adabiy til alohida sifatlarga ega madaniy tildir. Adabiy til paydo bulgunga qadar nutq madaniyati borasida amal qilgan talab va tasavvurlar adabiy til paydo bo'lgandan keyingi davr, ya'ni adabiy til bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati tasavvurlaridan farqlanadi. Chunki nutq madaniyati chinakkam ma'noda adabiy til va uning normalari bilan bog'liqdir. Demak, adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo'lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu tilning ijtimoiy-siyosiy sohalar tili, rasmiy muomala va yozishmalar tili, idoraviy ishlar va hujjatlar tili, diplomatik aloqalar tili, radio va televideenie tili, og'zaki targ'ibot va tashviqot tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va sahna tili, maorif, madaniyat tili kabi ko'p yo'naliishlarda rivoj topish uchun yo'l ochadi. Adabiy til ijtimoiy siyosiy va ilmiy-madaniy hayotning barcha sohalarida aloqa quroli darajasiga ko'tariladi. Bu hol adabiy tilni madaniyat va sivilizatsiyaning vositachisiga, bunga doir tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi, o'zida saqlovchi va keyingi nasllarga yetkazuvchi qurolga aylantiradi. Adabiy tilda ijtimoiy va madaniy hayotning turli sohalariga oid boy bilimlar mujassamlangan bo'ladi. Shuningdek, adabiy til abstrakt va mantiqiy fikrlashning amalga oshishida ham vosita vazifasini bajaradi. Adabiy tilga xos keltirilgan xususiyatlar adabiy tilning og'zaki shakli uchun ham hosdir. Chunki hozirgi paytda so'zlangan og'zaki nutqni tabiiy holda yozib olish va uzoq davr saqlashning keng texnikaviy usul va imkoniyatlari mavjud. Adabiy til

vazifasining kengayishi, unda murakkab uslubiy tarmoqlarning yuzaga kelishi, adabiy til vosita va imkoniyatlarining rivoj topishini va boy bo'lishini taqozo qiladi. Shu sababli ham adabiy til xalq tilining boshqa ko'rinishlariga nisbatan boy lug'aviy fondi, takomillashgan grammatik qurilishiga egaligi hamda uslubiy tarmoqlarining rivoj topganligi bilan farqlanadi. Adabiy tilda mana shu uslublar talabiga ko'ra sinonimik vositalar, lug'aviy variantlar, ko'p ma'noli so'zlar, xilmayxil ma'nolarni ifoda qiluvchi lug'aviy birliklar, so'z shakllari rivoj topadi. Bularning barchasi adabiy tilga ko'p qirrali murakkab tushunchalar va fikrlarni tushunarli va oson ifodalash imkonini beradi. Ammo adabiy tilning lug'at tarkibi va grammatik tuzilishi juda ko'p sonli va boy vositalarning shunchaki aralash-quralash yig'indisidangina iborat emas. Adabiy tilning lug'at tarkibi, grammatik tuzilishi lahja va shevalardan farqli ravishda muayyan qonun-qoidalarga bo'y sunadi, ular saralangan, ishlangan, baholangan bo'ladi.

Lisoniy norma adabiy til uchun ham, lahja va shevalar, turli ijtimoiy jargonlar uchun ham xosdir. Ammo adabiy til normali tilgina emas, normalangan - muayyan normalarga solingan tildir. Normalanganlik, normalashga muhtojlik adabiy tilning muhim xususiyatlaridan biridir. Adabiy tilning lug'aviy (so'z qo'llash) normalari, morfologik va sintaktik normalari, imloviy va talaffuz normalari mavjud. Adabiy til normasi tabiiy shakllashgan normalar bilan bir qatorda ongli ishlangan, ongli baholangan normalardan ham iboratdir. Bu normalar muayyan grammatik qoidalar, darslik va ko'llanmalarda, leksikografik tadqiqotlarda jamlangan bo'ladi. Adabiy tilda yozuvchi va so'zlovchi shaxs mana shu qoidalar asosida adabiy tilii o'rganadi, uning normalarini egallaydi. Adabiy til doimo o'z normalarining shakllanishi, turg'un holatga kelishiga intiladi. Shu sababli boshboshoqlik adabiy tilga ziddir. Adabiy tilning normalanishi, bu normalarning muayyan qoidalarga olinishi aslida adabiy tilning umumxalq quroli, umumxalq mulki ekanligi bilan bog'liqdir. Adabiy til o'zaro aloqa vositasi sifatida o'zi xizmat qilayotgan millatning barcha vakili uchun umumiyyidir. Adabiy tilning qabul qilingan, qoidalashtirilgan normalariga barcha joyda, barcha kishilar (yozuvda va so'zlovchilar) tomonidan bir xilda amal qilinadi. Chunki adabiy til ushbu til egasi bo'lgan barcha tomonidan milliy tilning namunali va ishlangan shakli deb qabul qilinadi va tan olinadi. Shunga ko'ra ham adabiy tilning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan va ma'qullangan normalariga, bu normalarga doir qoidalarga amal qilish, unga bo'y sunish hamma uchun majburiydir. Bunday umummajburiy normalar va qoidalar adabiy tilning so'z qo'llash va so'z yasash, gap tuzish, so'zlarni yozish va talaffuz qilish kabi barcha sohalarida ham mavjuddir. Adabiy tilda to'g'ri so'zlash va yozish uchun mana shu normalar, ular haqidagi qoidalarni bilish, o'zlashtirish lozim. Ba'zan adabiy tilni bir yoqlama va noto'g'ri tushunish va tushuntirish hollariga ham duch kelamiz. Bunda adabiy til deb faqatgina ro'znama tili, ilmiy asarlar tili va badiiy adabiyot tili ko'zda tutiladi. Bunda adabiy tilning og'zaki shakli hisobga olinmaydi. Shuningdek, ba'zi hollarda adabiy til faqatgina yozma til orqali qolipga solishdi, adabiy til normalari yozma nutqdagina to'la saqlanadi, deyilgan mulohazalar ham bildiriladi. Keltirilgan fikrlardan adabiy tilning og'zaki shakli normalangan emas ekan-da, adabiy til og'zaki shaklida adabiy til normalariga to'liq rioxha qilish shart emas zkan-da,

deyilgan noto'g'ri fikrga kelish mumkin. Adabiy tilni normalash hakida gap borar ekan, ba'zi olimlar hatto adabiy til doirasida bir xil, yagona talaffuzga erishib bo'lmaydi, adabiy tilda talaffuznint yagona namunasi yo'q deb hisoblaydilar. Bunday mulohazalar ba'zi tadqiqotchilarining notiqlik madaniyatini uchun yagona yo'riq (retsept) yo'q, nutqning qanday bo'llishini aniq sharoit belgilaydi, degan fikrlarni eslatadi. Keltirilgan tarzda fikrlash, albatta, bir yoqlamali bo'lib, og'zaki nutq madaniyatini takomidlashtirish ishiga zarar yetkazadi.

Kishilardan nutq madaniyatini, ya'ni to'g'ri so'zlash va yozishni talab qilish uchun mana shunday so'zlash va yozishga vosita, namuna bo'la oluvchi qurolni belgilash lozim bo'ladi. Bunday qurol - adabiy tildir. Adabiy tilsiz nutq madaniyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Adabiy til nutq madaniyatining - to'g'ri so'zlash va yozishning o'lchovi, mezonidir. Ammo adabiy til tayyor holda qaerdandir paydo bo'lgan, birdan tayyor holda osmondan tushgan hodisa emas. U aslida milliy madaniyatning tarkibiy qismi, o'zi ham madaniylikka intiluvchi hodisadir. Shuning uchun ham, masalan, «*Praga lingvistik to'garagi*» deb yuritiluvchi ilmiy mакtabning vakillari bo'lmish tilshunoslar nutq madaniyatini tushunchasini til madaniyati, adabiy til madaniyati deb nomlashadi. Ular nutq madaniyati deyilganda, avvalo, adabiy til madaniyatini tushunishadi. «Adabiy til

madaniyati deganda biz adabiy tilni ongli ravishda qayta ishlatish tushunamiz». Adabiy tilni qayta ishlashning nima zaruriyati bor, deyilgan savol tug'iladi. Adabiy til va uning normalari rivojiga ongli ravishda aralashish va qayta ishlash, bir tomondan, adabiy tilning paydo bo'lishi uchun, ikkinchidan, adabiy til normalarining takomillashuvi va silliqlanipsh uchun, uchinchidan esa, bu normalariing kishilar tomonidan tan olinishi, kundalik nutqiy hayotda qo'llanishi uchun zarur. Xo'sh, adabiy tilni qayta ishlash deyilganda nimani tushunish zarur, adabiy tilning qaysi tomonlari qayta ishlanadi deyilgan savollar tug'iladi. Bu savolga javobni o'zbek adabiy tilining bir necha yillardagi rivoji tarixidan bemalol topish mumkin. Masalan, o'zbek yozuvi o'tgan asrning 1930 yiliga qadar an`anaviy arab alfaviti asosida bir necha bor takomillashtiriladi, 1930 yillardan esa lotin alifbosi asosidaga, 1940 yildai esa rus alifbosi asosidagi yozuvga o'tkazildi; o'zbek tilining imlo qoidalari yaratildi, imlo lug'atlari tuzildi va ular bir necha marotaba, qayta ishlandi va takomillashtirildi. O'zbek adabiy tilining lug'aviy normalari ham ongli ravishda boshqarildi. Bir qancha ikki tilli lug'atlar, terminologik lug'atlar tuzildi va ularda so'z qo'llashning adabiy normalari muayyan darajada belgilab berildi. Imlo qoidalari, imlo lug'atlari, normativ darslik va qo'llanmalar yordamida

o'zbek tilining morfologik va sintaktik normalari ham muayyan qoidalari ostiga olindi. Adabiy tilning lahjaviy bazasini belgilash, uning tayanch shevalarini aniqlash o'zbek adabiy tili tovush va talaffuz normalarining belgilanishi va takomillashuviga yo'l ochdi va b.O'zbek adabiy tilini ongli ishslash, bu til normalarining shakllanishi va takomilida o'tgan asrning 1920-1940 yillarda ijod qilgan yetakchi o'zbek yozuvchilar, jurnalistlar, turli fan olimlari, ayniqsa tilshunoslar, shuningdek radio muhim rol` o'ynadi. Natijada o'zbek adabiy tili takomillashgan milliy, adabiy til darajasiga ko'tarildi. Uning to'g'ri yozish va to'g'ri so'zlash uchun lozim bo'ladigan til vositalari takomillashdi va silliqlandi. Adabiy tilniig mana

shu holati til madaniyatini, ya'ni madaniylashgan tilni bildiradi. Polyak tilshunosi B.Gavranek mana shu ma'noda quyidagilarni yozgan edi: «Adabiy tilni, zikr etilganidek, ongli ishlashning natijasi madaniylashtirilgan til va bu tildan amalda foydalanuvchi shaxslarning nutqiy faoliyati - til madaniyatidir». Demak, tilni ongli ravishda qayta ishlaga natijasida madaniy til yuzaga keladi. Bu madaniy til - adabiy tildir. Madaniy adabiy tilni yuzaga keltirish uchun olib boriluvchi faoliyat jarayoni adabiy til madaniyati uchun harakat, kurashdir. Shuning uchun adabiy til madaniy til deb ataladi. Adabiy, ya'ni madaniy tilni yuzaga keltirishdan maqsad to'g'ri so'zlash, to'g'ri yozish qurolini yuzaga keltirishdir. Bu qurol faol foydalanilgandagina va jamiyat a'zolarining o'zaro aloqasi uchun muvaffaqiyatlari xizmat qila olgandagina uning haqiqatan ham madaniy til ekanligi tasdiqlanadi. Demak, madaniy adabiy til bo'lish bilan bir qatorda bu tildan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan nutqiy jarayon, faoliyat ham mavjuddir. Bu faoliyat oldiga qo'yiladigan muayyan talablar ham bor. Til madaniyati tufayli madaniy til - adabiy til yaratilgan ekan, endi bu madaiiy quroldan to'g'ri, o'rinni foydalanish lozim, deyilgan talab o'rtaga ko'yiladi. Bu talab adabiy til uchun norma deb qabul qilingan til vositalariga, qoidalariga amal qilgan holda so'zlash va yozish bilan bog'liqdir. Adabiy til bilan amaliy nutqiy faoliyat orasidagi mana shu bog'liqlik jarayonini nutq madaniyati, polyak tilshunoslari fikricha esa, til madaniyati deb yuritish mumkin. Savodxonlik va savodsizlik, savodlilik va savodsizlik, to'g'ri imlo va noto'g'ri imlo, to'g'ri yozish va noto'g'ri yozish, imlo xatoli va imlo xatosiz, uslubiy xato, punktuatsion xato, so'zni tug'ri tanlash va qo'llash (ishlatish), to'g'ri so'zlash kabi ko'pgina atamalar nutqiy faoliyat, ya'ni nutq madaniyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalaydi

Adabiyotlar

- 1.Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati. -T., 2004-yil.
- 2.Nutq madaniyati va uslubiyat asoslar. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. -T., 2002-yil
- 3.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., O'qituvchi, 1991-yil
4. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -Buxoro, 2002-y.
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Nutq madaniyati va uslubiyat)

Reja:

- 1.Nutqiy madaniyat va uslubiyat.
2. Nutq uslublari.
3. Nutq madaniyati va grammatik stilistika.

Tayanch tushunchalar.

Nutqiy madaniyat, nutq uslublari, nutq madaniyati va grammatik stilistika.

So'zlovchi nutqida atamalar, so'z qo'llash va o'rnida ishlatish bugungi kunda eng ahamiyatli masalalar safidan joy olgan. Chunki o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi unga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Hozirgi kunda hamma-hammani e'tiborida tilimiz taqdiri bor: yoshlar, keksalar, talabalar; kasbidan, sohasidan qat'iy nazar har bir ziyoli tilimizning ravnaqi, kelajagi haqida qayg'urmoqda, o'z fikr-mulohazalarini bayon qilmoqda. Keyingi davrda fantexnikaning barcha sohalari rivojlandi, shakllandı. Natijada o'zbek tilida ham barcha sohalarda atamalar vujudga keldi, o'zlashtirildi, yangi atamalar yasaldi. Mavjud atamalarning ko'pchiligi o'zgardi, yangilandi. Bu atamalarning aksariyati umumadabiy tilga o'tib ommalashib ketdi va hamma uchun tushunarli bo'lib qoldi. O'zbek tili atamachiligidagi ilgari ko'proq arab tilidan o'zlashgan: jumhuriyat, munajjim, muarrih, munaqqid, muallif, inqilob kabi so'zlarning o'rnini rus tilidan o'zlashgan so'zlarni qo'llash kuchaydi. Boshqacha qilib aytganda, ayrim so'zlarga qaytadan «jon» ato etildi: jumladan, viloyat, tuman, sho'ro kabilar. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bir qator so'zlar borki, ularni hozirgi talabalar ham maxsus lug'atsiz yoki o'qituvchilarining yordamisiz tushunish qiyin: Masalan, munshiy, qozi, dodhoh, haram, avranush, sipohsolar, viqor, vojib, voyiz, badhu, alfov, anduh, andoza, asno, afgor, aftoda, misqol, mufti, qushbegi, pansod kabilarBunday holat mumtoz adabiyot namunalarini to'g'ri sharhlab berishga, ulardagi badiyatni chuqurroq his qilishga halaqt qiladi, u yoki bu baytni asl mohiyatini, shoir yoki adib ko'zda tutgan asosiy maqsadni to'la anglab yetmaslikka sabab bo'ladi. Ana shu kabi so'zlarning ma'nosini o'rgatmaslik, o'quvchiga singdirmaslik esa asar yoki g'azalning chala tushunilishiga olib keladi, o'quvchilarini va tinglovchilarini ularning sir-asroridan bebahra qiladi. Bu o'rinda R.Dekartning quyidagi fikrini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir: «So'zlarning ma'nolarini odamlarga tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini anglashilmovchilarining yarmidan xalos qilgan bo'lasiz». Inson o'qishni, yozishni, tinglashni, umuman ilmni asosan o'rta maktabda o'rganadi. Shunday ekan, gap o'qituvchi bilimi, saviyasi qandayligiga borib taqaladi. Bu degani o'qituvchi faqat tilni mukammal bilsin degani emas, bu bilan cheklanib ham bo'lmaydi. Umuman, go'zal va serqirra tilimizdan foydalanishda, atamalarni qo'llashda har bir soha vakili ham juda ehtiyyotkor bo'lishi shart. Aks holda ma'lum bir mavzuni tushunishni, anglashni qiyinlashtiradi. Bu esa tilimizga,

madaniyatimizga putur yetkazadi. Shuning uchun savodxonlikni yuksak darajaga ko'tarishga, o'qish-o'qitish ishlariga e'tiborni kuchaytirish kerak. 2. Hozirgi ilmiy adabiyotlarimizda nutq madaniyati va stilistika (uslubiyat) asosan qo'shib talqin qilinadi. Ba'zi hollarda bu ikki tushuncha bir-biri bilan qorishtirib yuboriladi, ular orasidagi farq lo'nda, aniq ajratib berilmaydi. Yuqorida nutq madaniyati tushunchasiga to'la aniqlik kiritildi va uning mohiyati olib berildi. Stil` so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib, yozish uchun ishlatiladigan uchi o'tkirlashtirilgan tayoqchani bildirishi bizga ma'lum. Qadimgi rimliklar, gretsiyaliklar stilga kishilarni ishontirish san'ati sifatida qaraganlar. Stil` so'zining asl mohiyati hozirgi kunda ham ana shu izohlardan uncha uzoqlashgani yo'q. Faqat keyingi davrdagi talqinlarda vazifaviy stilga (aslida uslub o'shadir) ko'proq talqin berib yuborilgan: uslub (stil`) nutqning jamiyat ijtimoiy faoliyati ma'lum tomoni bilan bog'langan o'ziga xos lug'ati va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan ko'rinishi bo'lib, nutqning xuddi shunday boshqa turlaridan o'z ichki xususiyatlari bilan tafovut qilib turadi. Stil` so'zi bilan uslub so'zlarining asosiy ma'nolari esa hozirgi kunda bir-biriga tengdir: yozuvchining o'ziga xos uslubi (yoki tili); badiiy uslub (badiiy stil`) kabi. Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda til uslublari quyidagi turlarga ajratiladi:

1. So'zlashuv nutqi uslubi (aloqa-aratashuv funktsiyasi)
2. Ilmiy uslub.
3. Rasmiy ish qog'ozlari uslubi (xabar, axborot berish).
4. Publitsistik uslub.
5. Adabiy, badiiy nutq uslubi (tilning ta'sir qilish, targ'ibot-tashviqot doirasi).

Leksik uslubiyat

1. *Omonimlarning uslubiy xususiyatlari*. Nutqda omonimlardan foydalangan holda turli so'z o'yinlari hosil qilinadi: *Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot, Nasihatim yod qilib ol, farzandim, Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot*. Bu o'rinda *ot* omonim so'zлari turlicha ma'nolarni ifodalayapti. Omonim so'zлardan foydalangan holda so'z o'yinlarini yaratish **tajnis (jinos)** san'ati deyiladi. Badiiy adabiyotda shu badiiy san'at qo'llanib yaratilgan to'rt qator she'r esa **tuyuq** deb ataladi.

2. *Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari*. Sinonimlarni qo'llashda hissiy-ta'siriyligi bo'yq mavjudligi jihatidan farqlanadi: *yuz, aft, bashara, bet, chehra, jamol, ruxsor, diydor* sinonimik qatoridagi *yuz* so'zi ma'nosi betaraf so'z bo'lsa, *bet, aft* so'zлari salbiy bo'yqqa ega, *bashara* so'zida esa salbiy bo'yq yanada kuchli, *turq* so'zida *bashara* so'ziga nisbatan ham kuchliroqdir; *chehra* ijobiy bo'yqqa ega, *jamol* so'zida bu bo'yq yanada kuchli. Shuningdek, sinonimlarning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo'lishi mumkin: *keksa, qari, oqsoqol, nuroni, mo'ysafid* sinonimik qatoridagi *qari* so'zining ishlatilish doirasi keng, qolganlariniki esa chegaralangan. Sinonimlarni o'rinsiz ishlatish oqibatida turli uslubiy xatolar kelib chiqadi: *Buldozer ko'chamizda yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yo'li ochar edi*

gapida yiqilay so ‘zi noo ‘rin qo ‘llangan, chunki bu so ‘z odamlarga nisbatan ishlatiladi; bu gapda devorga nisbatan qulamoq so ‘zi ishlatilishi kerak edi.

3. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari. Antonimlardan to ‘g ‘ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatoliklarni keltirib chiqaradi: *Choyxona mudiri Yusufjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o ‘xshaydi*. Bu gapdagi issiq-chuchugini juftligi o ‘rnida achchiq-chuchugini juftligi ishlatilishi kerak edi. Antonimlardan foydalangan holda yaratiladigan badiiy san’at **tazod** (antiteza) deb ataladi.

4. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari. Paronimlarni to ‘g ‘ri qo ‘llamaslik natijasida ham xatoliklar kelib chiqadi: *Chanoqlardagi lo ‘ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi*. Bu gapdagi toblanadi so ‘zi o ‘rnida tovlanadi so ‘zi ishlatilishi kerak edi. *Mol-dunyoga xirs qo ‘yish nafshi jilovlay olmaslikdandir*. Bu gapda xirs so‘zi o‘rnida hirs so‘zi ishlatilish kerak edi.

5. Turli sabablarga ko ‘ra qo ‘llanishi chegaralangan so ‘zlarning uslubiy xususiyatlari. Bunday so ‘zlarga eskirgan va yangi so ‘zlar, sheva, kasb-hunarga oid so ‘zlar, atamalar, jargonlar kiradi. Nutqda bu kabi so ‘zlar ham muhim uslubiy vazifalar bajaradi. Arxaizmlardan badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini kiritish uchun foydalanilsa, tarixiy so ‘zlardan o ‘tmish voqeligini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Sheva so ‘zları mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atamalar ilmiy va badiiy asarlarda fan-texnikaga oid tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi, jargonlar esa ma’lum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarurdir.

Albatta, bu guruh so ‘zlardan foydalanganda, chegaradan chiqmaslik lozim, aks holda nutqda g ‘alizlik paydo bo ‘ladi:

1. *Terilgan paxtani tashib turish uchun ko ‘tarimchi ajratildi*.

2. *Buning ustiga tokarlik stanogining rezsoderjateli o ‘rniga maxsus moslama tayyorlanib unga grebenlarni tozalovchi frez o ‘rnatildi*. Birinchi gapda ko ‘tarimchi degan o ‘rinsiz yasalgan yangi so ‘z ishlatilgan bo ‘lsa, ikkinchi gapda atamalar me’yordan ortiq ishlatilgan.

Nutqda ibora, tasviriy ifoda va maqollar ham ma’lum uslubiy vazifa bajaradi. Iboralardagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyatlari, tasviriy ifodalardagi balandparvozlik, maqollardagi mazmuniy ixchamlik katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi: Bir yogadan bosh chiqarmoq iborasi badiiy nutqqa mansub bo ‘lsa, bir jon, bir tan bo ‘lmoq iborasi umumnutqqa xosdir. Yozuvchi va shoirlarimiz ham ibora va maqollar ijod qilishadi: *O ‘likning yog ‘ini, tirikning tirnog ‘ini yeydi bu. (Abdulla Qahhor)* *O ‘qsiz soldat – qilichsiz qin. (Oybek)*

6. Mubolag ‘a (yoki giperbola) uslubiy vosita bo ‘lib, ifodalangan tushunchaning ko ‘pirtirib, orttirilib tasvirlanishidir. Mubolag ‘a xalq dostonlarida, ertaklarda, aytishuv va loflarda faol ishlatiladi: *To ‘qson molning terisidan kavushi...* (“Alpomish” dostonidan)

7. Sifatlash (yoki *epitet*) narsa, shaxs, hodisalarning belgisini ifodalash vositasidir. Bu vazifada tilimizdagi belgi bildiruvchi so ‘z turkumlari (asosan, sifatlar) qo ‘llanadi: **Zolim jallod, bilmaganim bildirgin...** (“Kuntug ‘mish” dostonidan)

Fonetik uslubiyat

1. Nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari

1) *asir, devon* kabi so ‘zlardagi tovushlarning noto ‘g ‘ri (*asr, divan* kabi) talaffuz qilinishi oqibatida nutqda tushunmovchilik yuzaga keladi.

2) *-da, -va, -qa* (yoki *-q*) kabi bo ‘g ‘inlardan keyin yana shunday tovushlar bilan boshlanadigan so ‘zlarni keltirish nutqiy g ‘alizlikni keltirib chiqaradi: *So ‘zlarning gapda qo ‘llanishi ya vazifalari...*

2. Urg ‘uning uslubiy xususiyatlari

So ‘z urg ‘usining ko ‘chishi shu so ‘z ma’nosini o ‘zgartirishi mumkin: *yangi’ kiyim* (sifat) - *ńangi damlandi* (ravish). Gapda ohangning o ‘zgarishi ham yangi uslubiy mazmun paydo bo ‘lishiga olib keladi: *Siz ahmoq odam emassiz* jumlasida **ahmoq** so ‘zidan keyin to ‘xtam (pauza) qilinsa, fikr qaratilgan shaxsning ham ahmoq, ham odam emasligi ifodalanishi mumkin: *Siz ahmoq, odam emassiz. Yoki Sen eshak aravaga minib keldingmi? gapida eshak arava so ‘zini bir bosh urg‘u bilan talaffuz qilinsa, vosita ma’nosi anglashiladi, agar eshak so ‘zidan keyin pauza qilinsa, so ‘z undalmaga aylanib, haqorat ma’nosi ifodalanadi. Odam bo’l, otang kabi axmoq bo’lma* gapida ham shunga o‘xhash holni ko‘rish mumkin.

Morfologik uslubiyat Ot turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. Kelishik qo ‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari.

Kelishik qo ‘shimchalari o ‘zaro almashib qo ‘llanishi mumkin:

1) *-ni* va *-dan* qo ‘shimchalari almashib qo ‘llanishi mumkin: *Qani, oshdan (ni) oling, mehmon.*

2) *-ni* va *-ga* qo ‘shimchalari almashib qo ‘llanishi mumkin: *Gapingizga (gapingizni) tushunmadim.*

3) *-ni* va *-da* qo ‘shimchalari almashib qo ‘llanishi mumkin: *Dalani (da) aylandim.*

4) *-ning* va *-dan* qo ‘shimchalari almashib qo ‘llanishi mumkin: *kelganlarning biri – kelganlardan biri.*

5) kelishik qo ‘shimchalari va ko ‘makchilar almashib qo ‘llanadi:

a) *-ga* qo ‘shimchasi o ‘rnida **uchun** ko ‘makchisi qo ‘llanadi: *Ukamga oldim – Ukam **uchun** oldim.*

b) -da qo ‘shimchasi o ‘rnida bilan ko ‘makchisi qo ‘llanadi: *Xatni qalamda yozdi – Xatni qalam bilan yozdi.*

v) -dan qo ‘shimchasi o ‘rnida orgali ko ‘makchisi qo ‘llanadi: *Xabarni radiodan eshitdik – Xabarni radio orgali eshitdik.*

g) -ni qo ‘shimchasi o ‘rnida haqida ko ‘makchisi qo ‘llanadi: *Akasi kelganini gapirdi – Akasi kelgani haqida gapirdi.*

2. *Egalik qo ‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari.*

1) otlarda qo ‘llangan egalik qo ‘shimchasi qaratqich kelishigi qo ‘shimchasining mavjudligini, qaratqich kelishigi qo ‘shimchasi esa egalik qo ‘shimchasining mavjudligini ko ‘rsatib turadi: *maktab hovlisi, bizning maktab.*

2) egalik (qarashlilik ma’nosи) -niki qo ‘shimchasi yordamida ham ifodalanishi ham mumkin, faqat bu qo ‘shimcha shaxs-son ko ‘rsatmaydi: *Bizning maktab – maktab bizniki.*

3) qaratqichli birikmalarda shaxs almashib qo ‘llanishi ham mumkin: *Mening uyim shu yerda – Kaminaning uyi shu yerda.*

3. *Ot yasovchi qo ‘shimchalarning uslubiy xususiyatlari.* Bu qo ‘shimchalar orasida o ‘zaro sinonim bo ‘lgan qo ‘shimchalar ham uchraydi: *adabiyotshunos – adabiyotchi, mehnatkash – mehnatchi. Doirachi – doirkash,*

Sifat turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. Sifatlardagi qiyosiy darajani yasovchi -roq qo ‘shimchasi o ‘rnida -mtir, -imtil, -ish qo ‘shimchalari qo ‘llanishi mumkin: *ko ‘kroq – ko ‘kish, qoraroq – qoramtil, sariq-sarg ‘imtil.*

2. Sifat yasovchi qo ‘shimchalar orasida sinonimlik hodisasi ko ‘plab uchraydi: *aybdor – aybli, serg ‘ayrat – g ‘ayratli, chopqir – chopag ‘on, beg ‘ubor – g ‘uborsiz, bama’ni – ma’nili. gapdon – gapchil, dardmand - dardchil*

3. Bu qo ‘shimchalar orasida antonimlik hodisasi ham uchraydi: *suvli – suvsiz.*

Olmosh turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. *U, bu, shu olmoshlari o ‘rnida bir so ‘zi (yoki bir xil so ‘zлari) qo ‘llanadi: Bir (shunday) chamanki, atrofida bulbullar giryon. Bir xil (shunday) odamlar tushunmaydi.*

2. *Men* olmoshi o ‘rnida kamina so ‘zi, siz o ‘rnida o ‘zлari so ‘zi qo ‘llanadi: *Bu ishda kaminaning zarracha tajribasi yo ‘q. Siz va’da bergen edingiz – O ‘zлari va’da bergen edilar.*

3. Ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda, yig ‘ilishlarda men olmoshining o ‘rnida biz olmoshi ishlatiladi: *Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda ko ‘rsatish olmoshlarining xususiyatlari haqida so ‘z yuritiladi.*

4. Hurmatni ifodalash uchun sen olmoshi o ‘rnida siz olmoshi ishlatiladi. Siz bugun kelasizmi? Aksincha hurmatsizlikni ifodalash uchun esa sen olmoshiga ko ‘plik qo ‘shimchasi qo ‘shiladi: Senlar buni tushunmaysanlar.
5. Ko ‘rsatish olmoshlari ta’kidlash, ajratish ma’nolarini ifodalaydi: Kitob – bu dono maslahatchi.

Fe’llarga xos uslubiy xususiyatlar

1. SHaxs-son qo ‘shimchalarining sinonimiysi:

- 1) fe’lning 2-shaxs birlik qo ‘shimchasi o ‘rnida 2-shaxs ko ‘plik qo ‘shimchasi qo ‘llanadi: Amaki, ertaga kelasizmi?
- 2) fe’lning 1-shaxs birlik qo ‘shimchasi o ‘rnida 2-shaxs birlik qo ‘shimchasi ishlatiladi: Tabiatning ishlariga hayron qolasan kishi.
- 3) 2-shaxs ko ‘plik o ‘rnida 1-shaxs ko ‘plik qo ‘shimchasi qo ‘llanadi: Bolalar, bugun diktant yozamiz.
- 4) 2-shaxs ko ‘plik o ‘rnida 3-shaxs birlik qo ‘shimchasi ishlatiladi: U norozi ohangda dedi: - SHunaqa ish bilan hazillashib bo ‘ladimi?

2. Zamon qo ‘shimchalarining sinonimiysi:

- 1) hozirgi zamon davom fe’li o ‘rnida hozirgi-kelasi zamon shakli qo ‘lla-nadi: Butun qishloq ular haqida gaplashishadi (gaplashishyapti).
- 2) kelasi zamon o ‘rnida hozirgi zamon shakli qo ‘llanadi: Ertaga terimga tushyapmiz.
- 3) hozirgi zamon o ‘rnida o ‘tgan zamon shakli keladi: Qarasam, yugurib kelayotibdi.

3. Mayl qo ‘shimchalari sinonimiysi:

- 1) ijro maylidagi fe’l buyruq mayli o ‘rnida keladi: Qani, ketdik, bolalar.
- 2) ijro mayli shart mayli o ‘rnida keladi: Kelaman dedingmi, kelish kerak.

4. Nisbat qo ‘shimchalari sinonimiysi:

- 1) birgalik nisbati qo ‘shimchasi ko ‘plik qo ‘shimchasiga sinonimdir: Ular kelishdi – Ular keldilar.
- 2) nisbat qo ‘shimchalari ichida o ‘zaro sinonimlikni hosil qiladiganlari ham bor: -l, il, -n, -in, -sh, -ish; -t, -tir, -dir, -ir, -giz; -kiz, -kaz, -qiz, -qaz.

5. Fe’l yasovchi qo ‘shimchalar sinonimiysi:

- 1) ba’zi yasama fe’llar iboralarga sinonim bo ‘ladi: gulladi – gulga kirdi.
- 2) qo ‘shimcha yordamida yasalgan fe’llar qo ‘shma fe’llarga sinonim bo ‘ladi: himoyaladi – himoya qildi.
- 3) fe’l yasovchilar o ‘zaro sinonim bo ‘ladi: sizlamoq – sizsiramoq, suvsamoq – suvsiramoq.

Sintaktik uslubiyat Gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlari

- 1) **sifatlovchi aniqlovchilar** ot bilan ifodalansa, majoziy ma'no ifodalaydigan bo 'lib qoladi: *Kumush choyshab yopib dalalar, qor qo 'ynida uxbab yotadi.* (Uyg 'un)
- 2) **sifatlovchi aniqlovchilar** turli so 'z turkumlaridan tuzilib, sifatlash vazifasini bajargan ibora va so 'z birikmalari bilan ifodalanadi: *Osmon o 'par tog 'lar, bag 'ri keng inson, cheki yo 'q qirlar, fikri tiniq insonlar.*
- 3) **sifatlovchi-aniqlovchi** takroriy so 'zlar bilan ifodalanganda ma'no kuchayishi yuz beradi: *Baland-baland binolar tez uchrav boshladi.*
- 4) **izohlovchi** ham uslubiy vazifa bajaradi. Ma'lumki, izohlovchi laqab, qarindoshlik, o 'xhatish kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda ma'lum shaxsga nisbatan munosabat seziladi, ya'ni uslubiy ma'no yuzaga keladi: *Mamajon quruq, Ali tajang, Soli sovuq* va h. O 'xhashlik ma'nosidagi izohlovchi jumлага ko 'tarinkilik(pafos) xususiyatini kiritadi: *ona-Vatan, gulchalar-qizchalar.*
- 5) **ajratilgan bo 'laklar** jumla tarkibidagi ayrim bo 'laklarga urg 'u berish, ularni alohida ajratib ko 'rsatish, shaxs va narsa haqida qo 'shimcha ma'lumot berish, belgi-xususitlarni ta'kidlash kabi vazifalarni bajaradi: *Biz, yoshlar, otabobolarimiz merosini ko 'z qorachig 'iday asrashimiz lozim.*
- 6) **undalmalar** ham turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Ular gap boshida va o 'rtasida kelsa, chaqiriq va murojaatni ifodalaydi: *Uka, mening yo 'qligimni bilintirma.* Gap oxirida kelgan undalma tinglovchiga nisbatan hurmat, muhabbatni ifodalaydi: *Tuprog 'ingni zar bilarman, ona-Vatanim!* Bulardan tashqari undalmalar iltimosni, so 'zlovchining his-tuyg 'usini, kuchli ehtirosini, ko 'tarinki holatni, piching va kinoyani ifodalash uchun ham xizmat qiladi.
- 7) **kirish so 'z va kirish birikmalar** so 'zlovchining o 'z fikriga bo 'lgan munosabatini bildiradi. Bu munosabat sifat, son, olmosh, fe'l va modal so 'zlar yordamida ifodalanib, gumon, tasdiq, inkor, fikr tartibi, fikr izohi, e'tiborni tortish, xulosa, ikki fikrni o 'zaro bog 'lash kabi ma'nolarni aks ettiradi: *U bugun kelmaydi, shekilli.*

Ayrim gap turlari o 'rtasidagi sinonimiya

- 1) ayni bir fikr gapning har xil turlari bilan ifodalanadi:
 - a) sodda gap bilan: *Har kim ekkanini o 'radi.* b) qo 'shma gap bilan: *Kim nimani eksa, shuni o 'radi.*
- 2) bir bosh bo 'lakli va ikki bosh bo 'lakli gaplar o 'zaro sinonim bo 'ladi: *Bugun ketamiz – Biz bugun ketamiz.*
- 3) darak va so 'roq gap sinonim bo 'ladi: *Vatanni kim sevmaydi – Vatanni hamma sevadi.*

Qo ‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlari

- 1) bog ‘langan qo ‘shma gaplar tarkibida biriktiruv va zidlov bog ‘lovchilari o ‘rnida -u, -yu, -da yuklamalari sinonim holatda qo ‘llanishi mumkin: *Havo bulutlashdi va yomg ‘ir yog ‘a boshladi. Havo bulutlashdi-yu, yomg ‘ir yog ‘a boshladi.*
- 2) ega, kesim, to ‘ldiruvchi, aniqlovchi ergash gapli qo ‘shma gaplar sodda gaplarga sinonim bo ‘ladi: *Shunisi aniqki, biz bugun yo ‘lga chiqa olmaymiz - Bizning bugun yo ‘lga chiqa olmasligimiz aniq.*
- 3) sabab, maqsad, o ‘xshatish ergash gaplarning kesimlari sifatdosh, harakat nomi, ot bilan ifodalansa, sodda gaplarga sinonim bo ‘ladi: *Tog ‘etagi juda go ‘zal edi, go ‘yo chiroyli gilam to ‘shalganday – CHiroyli gilam to ‘shalganday tog ‘etagi juda go ‘zal edi.*
- 4) payt, sabab, shart, to ‘siqsiz, natija, ravish ergash gaplarni o ‘z doirasida sinonimlari bilan almashtirish mumkin:
U kelsa (kelgan paytda, kelar ekan), hamma ketib bo ‘libdi.
- 5) bog ‘lovchisiz qo ‘shma gaplar bog ‘langan va ergashgan qo ‘shma gaplarga sinonim bo ‘ladi: *Qor yog ‘di – don yog ‘di (Qor yog ‘sa, don yog ‘adi. Qor yog ‘di-yu, don yog ‘di).*

Ko ‘chirma va o ‘zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari

Birovlarning hech o ‘zgarishsiz berilgan gapi (ko ‘chirma gap) o ‘zgalarning mazmuni saqlanib, shakli o ‘zgartirilgan holda berilgan gapi (o ‘zga gap) bilan sinonimik holatda bo ‘ladi: *O ‘qituvchimiz dedi: “Topshiriqlarni o ‘z vaqtida bajaring” – O ‘qituvchimiz topshiriqlarni o ‘z vaqtida bajarish lozimligi haqida gapirdi.*

Ko ‘chirma gap o ‘zlashtirma gapga aylantirilganda quyidagi o ‘zgarishlar yuz beradi:

1. Ko ‘chirma gap birikmali to ‘ldiruvchiga aylanadi: “*Hamma yig ‘ildi*”, - dedi navbatchi. *Navbatchi hammaning yig – ilganini* aytdi.
2. Ko ‘chirma gap tarkibidagi undalma vositali to ‘ldiruvchiga aylanadi: “**Rasulbek, biz bilan yuring**”, - deb taklif qildi do ‘sti. **Rasulbekka** do ‘sti o ‘zlar bilan yurishni taklif qildi.
3. Ko ‘chirma gap tarkibida kirish so‘z vazifasida kelgan undovlar, taqlid so‘zlar tushiriladi: “*Voy, qo ‘rqib ketyapman*”, - dedi xotini. *Xotini qo ‘rqib ketayotganini aytdi.*

Taniqli notiqlar ham o‘z nutqlarining namunali bo‘lishini ta`minlashda quyidagi asosli holatlarga alohida e`tibor bergenlar:

1. O‘zi to‘xtalmoqchi bo‘lgan masalaga o‘z munosabatini aniq belgilab olish;
2. O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish, so‘z bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.
3. Mavzuga mas`uliyat bilan yondoshish, uni omma oldida to‘liq ochib berishga, yoritishga diqqa qilish.
4. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko‘rish, jumladan, ma`ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o‘ylab olish, masalalarni o‘rtaga tashlash, ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o‘zarobog‘lanishini ta`minlash, ma`lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olib, o‘zi uchun alohida va keng to‘xtalish zarur bo‘lgan urinishlarini belilib olish va b.

Nutqning ta`sirchanligiga erishishda tilning tasviri vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, epitet, takror va adabiy ko‘chirmalarning ham o‘rnini beqiyosdir. Quyidagi misollarga e`tibor beraylik: Odam bo‘l, otang kabi axmoq bo‘lma – Odam bo‘l otang kabi, axmoq bo‘lma yoki Mulla a`lam, to‘g‘ri, odam emas – Mulla a`lam to‘g‘ri odam emas. Bu gaplarda ohangning o‘zgarishi gap mazmunining tamomila o‘zgarib ketishiga sabab bo‘lgan. Bulardan tashqari nutqda ta`sirchanlikni ta`minlash uchun maqollar, matallar, hikmatlar, so‘z va iboralar, ayniqsa, frazeologizmlardan keng foydalanish zarur. Yozuvchi Abdulla Qahhor o‘z hikoyalaring ko‘pchiligidagi epigraf sifatida maqollar keltirish bilan darhol o‘quchini diqqatini tortadi: “Osmon yiroq – yer qattiq” (“Bemor”); “Otning o‘limi – itning bayrami” (“O‘g‘ri”) kabilar.

Ochiq chehrali odam ikki yuzlamachilikdek nuqsandan yiroq bo‘ladi. Ochiq chehralilik, ayniqsa, o‘qituvchi uchun zarur fazilatlardandir. Zero, o‘quvchilar qalbiga yo‘l topish, mehrini qozonish, o‘z fanining chinakam ixlosmandi qila olish xazilakam ish emas. Buning uchun, albatta, o‘qituvchining keng fe`li-yu saxovatli qalbi o‘tkir zehni-yu, tiyrak nigohi muhimdir.

Agar, o‘qituvchi o‘quvchilarning yuragiga yaqin narsalarni bilolmasa, ularda o‘ziga nisbatan iliq hissiyat hosil qilolmasa, ular ko’ngliga yo‘l topishi juda qiyin bo‘ladi.

Inson xulq-atvorida eng muhim qonun bor, agar biz bu qonunga amal qilsak, hech qachon ko‘ngilsiz holatga tushmaymiz. Chunki bu qonun o‘quvchilarni ko‘proq o‘zimizga moyil qilishga yordam beradi. Lekin, biz uni ozgina buzishimiz bilan darrov ko‘ngilsizlikka uchraymiz. Bu qoida quyidagichadir: o‘quvchilar bilan shunday muomilada bo‘lingki, ular bu muomiladn o‘zlarining ahamiyatlairoq ekanini his qilishsin. Boshqalarning ko‘z o‘ngida ahamiyatlari bo‘lish xohishi inson tabiatining eng asosiy belgilaridan biridir. Chunki kattalarning o‘z suhbat mavzusi bo‘lgani kabi, bolalarning ham to‘lib-toshib

gapiradigan mavzulari bo‘ladi. Shuning uchun ko‘pni ko‘rgan kishilar bolalar bilan bola bo‘lib, keksalar bilan keksa bo‘lib suhbat qurishga harakat qiladilar. Tajribali o‘qituvchilar suhbat chog‘ida inson ko‘nglini asrashga unga muloyimlik bilan yo‘l topishga harakat qiladilar. Biror jiddiyroq fikrni aytishdan oldin o‘quvchisini (tinglovchini) suhbat mavzuiga tayyorlab olishga intiladilar. Shunday qilinganda eshituvchi har qanday hayajonli yoki qayg‘uli xabarlarni ham ancha engil qabul qiladi va to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi. Inson qalbini zabit etish, uning muhabbatini qozonish uchun ko‘p narsa kerak emas, shirin so‘z, samimiyy muomala kifoya.

Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta`sirchan bo‘lishiga intiladi. Zero, go‘zal va ta`sirchan so‘zlay bilish ham san`at. Lekin bu san`atdan bebahra insonlar ham hayotimizda uchrab turadi. Bu san`atdan, boshqa kasb egalaridan farqli o‘laroq o‘qituvchi bebahra bo‘lsachi? Bu aslo kechirib bo‘lmas xoldir. “Qaysi fanni o‘qitishdan qat`i nazar, o‘qituvchining asosiy quroli, ta`bir joiz bo‘lsa, ketmoni uning nutqidir. Ketmon o‘tkir bo‘lmasa, yerning ham, ketmonchining ham holiga maymunlar yig‘laydi. Xuddi shunday, o‘qituvchining nutqi o‘tmas, nochor bo‘lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo‘lmasin o‘ziga ham azob, o‘quvchi sho‘rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo’nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o‘qituvchisi uchun ham, ona tili o‘qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. o‘qituvchi go‘zal, o‘zini ham, so‘zini ham qiynamaydigan ravon va iboralarga boy nutqi bilan o‘quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo‘lgan bilimini yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan ona tili milliy ma`naviyatimizning, dunyonи teran idrok etishimizning zaminidir”. (“Ma`rifat manzillari” N.Mahmudov, 28-bet).

Nutq odobi – insonning umumiyy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. o‘rtा Osiyoda axloqiy tarbiya o‘z an`analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli, dastlabki fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarining asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan. Nutq shaxsiy hodisa, Nutqni har bir shaxs o‘zi tuzadi. Normativlarni tanlash, baholash ham shaxs tomonidan bajariladi.

Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo‘lgan notiq tinglovchilarni ovozining shiradorligi bilan ham asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun notiq o‘z ovoz kuchini, shiradorligini, yoqimliligini bilishi zarur. Lozim bo‘lganda undan foydalana bilish mahoratiga ega bo‘lishi darkor. o‘z ovozida kamchilik sezgan notiq uni yo‘qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va yaxshilash texnikasi bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo‘lmaydi. Notiqning ovozida quyidagi xususiyatlar bo‘lmog‘i lozim:

- jarangdorlik
- keng diapazonlilik;
- havodorlik;
- ixchamlik;
- chidamlilik;
- moslashuvchanlik;
- qarshi to‘lqinlarga nisbatan barqarorlik.

Nutq texnikasi de-yilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga etkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganidan uning texnikasini ikki xil ko'rsatish mumkin:

- 1.Og'zaki nutq texnikasi;
- 2.Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi – bunda tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi.

Yozma nutq texnikasi - bu nutq texnikasi o'z mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- A) har qanday yozma nutq xat boshidan bosh harf bilan boshlanadi. har gap mazmunan, nisbatan tugallagan bo'lishi, erkin fikr anglatishi kerak. Gap tugagandan so'ng mazmunga ko'ra tegishli tinish belgisi qo'-yiladi;
- B) ma'lum bir fikr bayon etilgandan so'ng, nutqning tarkibiy qismi bo'lgan boshqa bir fikr xat boshidan boshlanishi zarur. Xat boshidan bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim;
- V) diologlardan tashkil topgan yozma nutqdan har bir shaxsning gapi tire orqali yoziladi;
- G) ko'chirma gaplar, o'z ma`nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinad
- D) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar tire yoki qavs bilan ajratiladi;
- e) ot, kesim, izohlovchi, undalma ajratilgan bo'laklarga tegishli tinish belgilar bilan ajratiladi;
- J) nutqning xat boshidan yirik qismlari boblarga bo'lib ko'rsatiladi.

Nutq ma'lum sur'at bilan aytildi nutq aytish jarayonida surat oshib yoki pasayib turadi. Bu ifodali so'zlashga xos xususiyat bo'lib, tinglovchi xulqiga ta'sir etishi, nutqning yaxshi etib borishini ta'minlaydi. Sur'at ifodali nutqning ajralmas bo'lagi. Sur'atsiz bir maromda aytilgan nutq lanj, so'lg'il, ta'sirsiz bo'ladi. So'zlashganda ba'zi o'rinnarda sur'atni oshirib borish, jonlantirish, tinglovchilar diqqatini jalb etishdir.

Nutq texnikasi - deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganidan uning texnikasini ikki xil ko'rsatish mumkin.

To'xtam – ovozning vaqtincha to'xtashi (dam olishi orqali) bo'lib, bu bir davrda nafas olinadi va nutq a'zolari artikulyatsiyadan to'xtaydi va nutq oqimi uziladi. To'xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talaffuz etishga hozirlik ko'rildi. To'xtamdan turli maqsadlarda foydalaniлади.

Nutqning bir nafas tugaguncha aytilgan qismidan so'ng yangi nafas olish uchun qilingan to'xtalish nafasni rostlash to'xtamida o'pkaga xavo to'ldirib olinadi. Bunday to'xtam radio, televideniya suhandonlari yaxshi foydalananadilar.

Tilning tasviriy vositalari (4 soat)

REJA:

1. Tasviriy vositalar.
2. Troplar va ularning turlari (metafora, o'xshatish, sinekdoxa, mubolag'a va kichraytirish, alligariya, simvol, ironiya, antifraza, sarkazm, perifraza, jonlantirish), epitet, sifatlash, metonimiya.
3. Xulosa.

Tayanch so'z va iboralar: Nutq madaniyati va tasviriy ifoda vositalari, o'xshatish, sifatlash (epitet) metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, kichraytirish, allegoriya, simvol, ironiya (kesatiq), antifraza, sarkazm, perifraz, jonlantirish, apostrofa.

Savollar

1. Madaniy nutqda tasviriy vositalardan troplarning o'rni qanday?
2. Tasviriy vositalar va ularning turlari haqida so'zlab bering.
3. Troplarning ayrim turlari bir-biriga o'xshasa-da, ammo ular farqlanadilar. Bular qaysilar?

Ma'ruzaning mazmuni:

So'zlovchi yoki yozuvchi o'zi bayon qilayotgan fikrni tinglovchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berishga harakat qiladi. Masalan, ko'pincha biror narsa, belgi, xususiyatini tinglovchi yoki o'quvchiga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzundan-uzoq va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shunday vaqtarda so'zlovchi va yozuvchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda aytganimizdan birdan ortiq, uzundan-uzoq gaplarni qatorlashtirib tashlashdan qochadi-yu, ammo shu fikrni boshqa vositalar bilan ifodalaydi. Bu tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda – tasviriy vositalar deyiladi. Maxsus ifoda – tasviriy vositalar troplar va figuralar deb ikkiga bo'linadi. Maxsus ifoda – tasviriy vositalar, tilda obrazlilik, hissiylikni keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish bilan muallif tinglovchining sezgisiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari bayonda qisqalikka, aniqlikka erishiladi. Buning uchun esa, ma'lum shart-sharoitlar kerak bo'ladi: birinchidan, muallif notiq yoki yozuvchi ifoda tasviriy vositalarining tabiatini, xususiyatini yaxshi tushungan, biluvchan bo'lishi kerak; ikkinchidan, ifoda tasviriy vositalariga nutqni bo'yash, ko'r-ko'rona, haddan tashqari, o'rinli-o'rinsiz murojaat qilavermaslik kerak. Ya'ni, ularni ishlatish o'rni, payti, vazifasini yaxshi tushunish kerak. Aks holda, nutq madaniyati buziladi, tinglovchi yoki o'quvchidan o'sha nutqqa, u orqali muallifga nisbatan salbiy munosabat uyg'onishi mumkin. Ifodalilik, ekspressivlik va aniqlikni tanlash niyatida biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish, o'xshatish yoki so'zlarni shu maqsadda, umuman ko'chma ma'noda ishlatish troplar deyiladi. Trop nutqda so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatishdir. Qandaydir xususiyati

bilan bir-biriga yaqin ikki tushunchani qiyos qilib troplarga asos qilib olinadi. **Troplarning turlari:** epitet (sifatlash) – grekcha so'z bo'lib, izohlovchi degan ma'noni anglatadi. Metofora – o'xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, kichraytirish, kinoya, alligoriya, jonlashtirish, perifraza kabi usullar tronlarni turlari bo'lsa, takror, antiteza, gradaniya elipsis, jim qolish, ritorik so'roq, bog'lovchisizlik, ko'p bog'lovchilik figuralarning (stilistik figuralarning) ko'rinishlari hisoblanadi. Epitet poetik aniqlovchi. U boshqa doimiy aniqlovchilardan ekspressivlik hosil qilish ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi. Oddiy, doimiy, an'anaviy epitettlar kishida hayojon, tug'yon uyg'otmaydi. Bo'larga ko'm-ko'k osmon, qora kuz, oltin kuz birikmali tarkibidagi aniqlovchilarni misol tarzida ko'rsatish mumkin. Badiiy ifodalilikni kuchaytirish uchun xizmat qilish epitettlarning uslubiy vazifasini ko'rsatadi. Uslubiy epitetedda muallif tasvirlanayotgan narsa yoki voqeaning o'zi zarur deb hisoblagan tomonini ma'lum nuqtai nazardan turib baholaydi. Masalan: «Men bir qaro tunda tug'ildim, Tug'ildimu, shu on bo'g'ildim» - deb shoir H.Olimjon, tun oldidan sifatlovchi qora so'zini keltiradi. Ammo bu so'zni shoir ko'chma ma'noda (tug'ilgan vaqtidagi turmushni qora tunga o'xshatadi) ishlatadi va ekspressivlikni ta'minlaydi. Eski turmushni tanqidiy baholaydi. Epitetlar sifatida, odatda sifatlardan foydalilaniladi. Ammo ular otlardan (velosiped, ko'zoynak, po'lat ot, baxmal qir), sifatdoshlardan (yashnagan dala, oshib kelgan, qalqib kelgan qorqizim) ham epitet sifatida ishlatilishi mumkin.

O'xshatish – narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'larok, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berish o'xshatish deyiladi. O'xshatish eng qadimiylari va ko'p qo'llanadigan tasviriy vositalardandir. U asosan, nutqiy hodisa hisoblanadi.

O'xshatish to'rt asosiy qismdan tarkib topadi: 1) o'xhatilgan narsa; 2) o'xshatiladigan narsa; 3) o'xshatish asosi, belgi; 4) o'xshatish vositasi. Masalan:

«Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib guyo yoqut piyola.
Buloqlardan uzatadi suv
El ko'zidan qochadi uyqu» (H.Olimjon).

Bunda o'xhatilgan narsa – lola, o'xshatiladigan narsa – piyola, o'xshatish asosi – yoqut, o'xshatish vositasi – guyo. O'xshatishda chog'ishtiriladigan narsa ham asosan uning to'g'ri ma'nosida qoladi.

Metofora – bu grekcha so'z bo'lib, ko'chim, ko'chirma degan ma'noni bildiradi. Nutqda obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metoforadir. Masalan: kishi umrini g'uncha, bahor, so'lmoq, xazon bo'lmoq so'zlari orqali tasvirlash ko'chma ma'noda ishlatilganligi sezilib turadi. Demak, g'uncha va yoshlik, bahor va yigitlik, o'lmoq va so'lmoq so'zlari anglatgan ma'noda qandaydir yaqinlik mavjud. Metaforani yashirin o'xshatish deyish ham mumkin. Chunki metaforada ham, o'xshatishda ham asosan biror narsa yoki hodisa boshqasi bilan qiyos qilinadi. Ammo ularga bir hodisa sifatida qarash mumkin emas. Yuqorida

ko'rganimizdek, o'xshatishda har doim ikki a'zo (o'xshatilgan va o'xshatiladigan) yuzada bo'ladi. Metafora, tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda va kengaygan. Sodda metafora birgina so'zdan tashkil topsa, kengaygan metofora ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topadi. Masalan: gumbaz (osmon ma'nosida), arslon, lochin (kuchli odam ma'nosida), tulkı (makkor ma'nosida) kabi metoforalar sodda: po'lat ot, zangori kema (paxta terish mashinasi ma'nosida), oq oltin (paxta), zangori oltin (gaz), po'lat qush (samolyot ma'nosida) kabi metoforalar esa kengaygan metoforalardir. Metoforalarni qo'llayotganda so'zning o'z va ko'chma ma'nolari hamda ular o'rtasidagi yaqinlik, o'xshashlikni yaxshi bilish lozim, aks holda aytidayotgan fikr tinglovchi yoki o'quvchida noto'g'ri tasavvur hosil qilishi ham mumkin. Quyidagi misolda metoforaning eng yaxshi namunalarini ko'ramiz: «Bor lochinim, bor shunqorim, yaxshi bor! Bor, arslonim, iftixorim, yaxshi bor!» Uyg'un, «Xayrlashuv» Agar metofora narsa yoki hodisaning nomiga aylanib ketsa, u til asosi sifatida tilshunoslikning ob'ekti hisoblanadi. Badiiy metofora esa yozuvchining individual uslubiga xos bo'lib, uni ko'proq adabiyotshunoslik o'rganadi. Masalan: yoy – asli yomg'ir yoqqandan keyin turli xil fizik-kimyoviy hodisalardan so'ng ko'rinaligan yarim doira shaklidagi rang-barang chiziq. Uning nomi ov uchun qo'llaniladigan quroqla ham o'tgan (kamalak).

Metonimiya – grekcha so'z bo'lib, boshqacha, nom berish, qayta nomlash, nomini almashtirish degan ma'noni anglatadi. Metonimiya ham so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Bunda tashqi va ichki tomonidan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisaning nomi boshqa narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Agar metoforada bir-biriga o'xhash narsalar belgilari ko'chirilsa, metonimiyada ikki narsa bir-birlari bilan qandaydir aloqada bo'lsa ham, umuman o'zaro farqlanuvchi (bir-biriga o'xshashlikka asoslanmagan) narsalar belgilari chog'ishtiriladi, ko'chiriladi. Narsalar o'rtasidagi ichki yoki tashqi aloqa bog'lanish, narsalarning nomini boshqa narsalarga o'tkazish bir necha xil ko'rinishlarga ega: Jumladan: 1. Narsa (idish) ichidagi narsaning ma'nosи o'sha narsaga (idishga) o'tkaziladi. Masalan: Bir tovoq (lagan) palov yedim deyish o'rniga, ba'zan, bir tovoqni tushirdim: Bir kosa qimiz ichdim deyish o'rniga, bir kosani tushirdim, deymiz. Bunda palov va qimiz ma'nosи tovoq va kosaga ko'chirilgan. 2. Muallifning nomi asarning nomi bilan qo'llaniladi: Hamzani o'qi-dim. Bu o'rinda Hamza asarlarini o'qidim degan ma'no tushuniladi. 3. Harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajarishdagi vosita, quroq bilan almashtiriladi: uning perosi qasos o'ti bilan yonardi. 4. Biror narsani o'zi yasalgan material bilan almashtirish: qo'lda po'lat shirqillar (qilichi demoqchi). 5. Ma'lum mamlakatda, davlatda yoki ma'lum o'rinda yashab turgan kishilar ma'nosи shu yerga, davlat yoki mamlakatga ko'chiriladi: «Majlisga butun qishloq keldi». 6. Alovida olingan aniqlovchi to'liq narsani almashtiradi: Yalqov Mamajon samovarda yotib tush ko'radi (P.Qodirov «Xalq tili va realistik proza», 109- bet).

7. Aniq tushuncha nomi o'rnida mavhum ma'noli ot qo'llaniladi:
«Majlis botir, keskin so'zla, dag'dag'adir.

Shu raportni berish uchun qildi qaror». G'.G'ulom «Ko'kan». «...Majlis raisga xo'mrayib qaraydi». (A.Qahhor «Sinchalak»). Majlis qaror qildi, majlis qaraydi, gaplaridan majlisda ishtirot etayotgan odamlar qaror qildi, majlisdagi kishilar

qaradi tushunchasi anglashiladi.

Sinekdoxa. Sinekdoxa narsalarning son yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi (birga anglamoq, qo'shib fahmlamoq). Ba'zi shevalarda bizni uyga (hovlimizga) keling, deyish o'miga bizni eshikka keling deydilar. Bu gapda eshik sinekdoxadir. Lahjaviy unsur sifatida bunday hodisa ba'zan badiiy asar tilida ham uchrab qoladi. «Eshikka kiring, aka, choy-non ichib keting» S.Ahmad «Ufq». Sinekdoxaning ko'rinishlari:

1. Butun o'rnida qism: Og'zaki nutqda ba'zan kishilarni chaqirayotganda ularni ism yoki familiyalarini aytmasdan, biror ajralib turgan belgisiga qarab qorni katta bo'lsa, «Ey qorin», kallasi juda katta bo'lsa «Ey kalla», soqol qo'ygan bo'lsa, «Ey, soqol» tarzida murojaat qilishlarga duch kelamiz. Bunda ana shu aytilgan qism orqali kishi yoki uning ismi tushuniladi. Misollar: Kalning nimasi bor – temirdan tarog'i bor (Maqol). Kallik belgisi kishining soch to'kilgan qismiga nisbatan.

2. Qism o'rnida butun. Ilgarilari «pivo» so'zi umuman ichimlik ma'nosini anglatgan, hozir esa u ichimlikning bir turini anglatadi. Bunga jins va tur munosabati tarzida ham qaralishi mumkin.

3. Ko'plik o'rnida birlikni ishlatish: Sotuvchi, haridor bilan xushmuomalada bo'ladi (og'zaki nutqdan). Aybni Ahmad qiladi, kaltakni Rahmat yeydi.

4. Jins o'rnida tur: Pushka o'rnida kurol, bedana o'rnida qush, sazan o'rnida baliq so'zlarini ishlatilishi bunga misol bo'la oladi.

Mubolag'a va kichraytirish: Mubolag'a orttirib, bo'rttirib ko'rsatish, mahovat qilish ma'nosini bildiradi. Ayrim adabiyotlarda bu atama o'rnida giperbola atamasi ham ishlatiladi. Kichraytirish deb narsa va hodisalarni o'z holatiga nisbatan haddan tashqari kichraytirib tasvirlanishiga aytildi. Ba'zi lisoniy adabiyotlarda «kichraytirish» o'rnida litota (grekcha, soddalik demak) atamasidan foydalanilsa, boshqalarida metozis terminining ishlatilganligini ko'ramiz. Klassik adabiyotimizda bu san'at tarifiy deb yuritilgan. Mubolag'ada biror narsa, uning belgi va xususiyati oshirilib ko'rsatilsa, litotada uning aksi yuz beradi, har ikkalasi ham ko'chma ma'noga asoslanadi. Lekin tropning boshqa turlaridagi ko'chma ma'no asosida qandaydir o'xshatish, qiyos yoki boshqa biror narsa, voqeа-hodisa tushunilsa, moslikni talab qiladi. Kichraytirish: «Bu so'zning ma'nosi shu qadar teran, Dengizlar bir xo'plam uning qoshida». Uyg'un «Tinchlik kuylari». Qadimgi adabiyotimizda mubolag'a badiiy mahorat, asar uchun zaruriy fazilat sanalgan. Shu sababli shoirlar ham mubolag'aga ko'p murojaat qilganlar, hatto ba'zan uni oshirib ham yuborganlar. Behad kuchaytirilgan, bo'rttirilgan mubolag'a ifrat yoki ibrak deyiladi. Mubolag'a haqiqatga ma'lum darajada mos kelishi kerak, aks holda badiiy bo'yoq yo'qoladi, o'quvchida ishonchsizlik hosil qiladi.

Allegoriya – grekcha so'z bo'lib, kinoya, ochiriq, kesatish degan ma'noni anglatadi. Allegoriyada mavhum tushunchalar aniq narsa bilan almashtiriladi. Bunda tasvirlanayotgan narsaning asosiy xususiyati bilan ishora qilinayotgan tushuncha bir-biriga ma'lum darajada mos kelishi kerak. Masalan: «Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni, Itga bersang oshingni, itlar g'ajir boshingni». «Ko'rpannga qarab oyoq uzat». Allegoriyaga ko'proq badiiy usulning masal, ertak janrida, publitsistik uslubda tez-tez murojaat qilib turiladi. Masalan: S.Abdiqahhorning «Daryo bilan jilg'a» masalida «Birlashgan o'zar, birlashmagan

to'zar» tushunchasi daryo va jilg'a obrazlari orqali berilgan. (Daryo, jilg'acha bizga qo'shil, deyishiga qaramay manmanlik qilib, cho'llarga tomon yo'l oladi. Ammo yo'lida qumloqqa duch kelib, unga singib ketadi). So'z bilan ish birligi g'oyasi uning «Va'zxon ayiq» masalida ilgari suriladi. Ayiq va'zxonlik qilib, quyon, sen sabzini bargi bilan ye, toshbaqa yo'lidan yur, ekinlarni bosma deydi-yu, ammo o'zi uyiga qaytishda ekinlarni poymol qilib ketadi. «Ayiqboy ketdi sekin, poyxon etib, bosib ekin...» Masallarda tulki obrazi orqali lagabardorlik, ayyorlik tanqid qilinsa, ochko'zlik joususlik, bevafolik bo'ri, ilon, chayon obrazlari orqali ifodalanadi.

Simvol – tropning bir turi sifatida badiiy nutqda hayotiy voqeа, tushuncha va narsalar ifodasi uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi ramz (simvol) deyiladi: Masalan: tong – yoshlik, quvnoqlik, baxt ramzi; tun – baxtsizlik, o'lim ramzi, qorasovuqlik ramzi. Ramz narsa yoki voqeaning ko'rinishi shakli emas, balki shu haqda yozuvchi ko'rganidan qolgan sezgi va taassurotlarga asoslangan. Ironiya (kesatiq) grekcha zimdan kulish, kesatish ma'nosida tushuniladi. Ba'zan so'zlovchi bamaylixotir, jiddiy holda gapiradi-yu, ammo so'zlarni o'z asl ma'nosiga qarama-karshi ma'noda qo'llab, biror kishi, uning qilig'i yoki hodisa ustidan kesatib, mas'haraomuz kuladi. So'z va iboralarni kesatish, mas'haraomuz kulish niyatida o'z ma'nolariga qarama-karshi ma'noda ishlatilishi kesatiq (ironiya) deyiladi. Haqiqatda ham itwachcha, mal'un, ablah, qabih, bema'ni tipidagi dag'al ma'noli so'zlarni o'rinli-o'rinsiz ishlata berish nutqni nursizlantiradi, uning kuchini, tasirini pasaytiradi. Antifraza ironiyaning bir ko'rinishi bo'lib, shaxs yoki narsaga xos bo'lgan u yoki bu ijobiy xususiyat kulguli ohang bilan inkor qilinadi, yozuvda u qo'shtirnoq ichiga olinadi. «Yashang! Xotiningizning ham kayfi oshsa, xiqichoq tutib, xuddi o'zingizday juda «shirin» bular ekan» (A.Qahhor «Yo'llar»). Bu o'rinda shirin so'zi o'z ma'nosida ishlatilmagan. Sarkazm grekcha so'z bo'lib, achchiq, zaharxanada, istehzoli ta'na, piching demakdir. Sarkazm so'zlovchining murojaat qilinayotgan kishiga nisbatan ustunlik hissiyotiga asoslanadi. Sarkazm biz ko'rsatgan xususiyatlari bilan ironiyaga o'xhash bo'lib, salbiy tomonlarni fosh qilinadi. Perifraz grekcha aylana, atrof, boshqacha gapiraman demakdir. Narsa va hodisalarning nomlarini ularning muhim belgi yoki xususiyatini tasvirlab ko'rsatuvchi vositalar yordamida bayon qilish perifraz deyiladi. Perifrazda, narsa va almashtirilgan tasviriy ifoda o'rtasida bog'liqlik yaqinlik bo'lishi kerak. «Shu bilan muhtaram ustoz menga go'yo muborak ko'zoynaqlarini berdilar» (A.Qahhor «O'tmishdan ertaqlar»), A.Qahhorning «O'tmishdan ertaqlar»ini o'qigan kishi «muhtaram ustoz» birikmasi A.P.Chekhov haqida ekanligini yaxshi tushunib oladi. «Qullar» romanining muallifi S.Ayniy, «Navoiy» romanining muallifi Oybek, Qadimgi So'g'diyonanining markazi Samarkand tarzidagi prifraztik iboralarni tez-tez uchratib turamiz. Perifraz fikrga aniqlik kiritadi. Masalan: «o'zbek adabiy tilining bayroqdori» deyilganda, ko'z oldimizga, albatta Alisher Navoiy keladi. Faqat otlar emas, fe'l, sifat, olmosh, hatto frazeologizmlar ham perifraztik qo'llanilishi mumkin: ovqatlandim o'rnida tamaddi qildim, anqov ma'nosida ammamning buzog'i frazeologizmi: «Gap ko'p, ko'mir oz», «Bo'sh qop tik turmas» tipidagi maqollar ham perifaztik ma'noga ega. Jonlantirish. Jonsiz narsalarni inson kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlash jonlashtirish deyiladi. Jonlantirishga she'riy asarlarda,

ertak va masallarda ko'proq murojaat qilinadi. Vokzalda soat uchdir, Moskvada intizomTerlab-pishib, hansirab, to'xtadi parovoz ham.Jonlantirish ko'p tomonlari bilan allegoriya va apastrofaga o'xshab ketadi. Chunki allegoriyada ham, apastrofada ham jonlashtirish borga o'xshaydi. Ammo bular o'rtasida muhim farqlar mavjud. Masalan: allegoriyada hayvon-jonivorlar insonlar kabi harakati orqali tasvirlanayotgan insoniy obrazlarga (kishilarga) qaratadi. Bunda odamlarning qiliqlari, xususiyatlari hayvonlarga ko'chiriladi, ammo shu hayvon, jonivorlar harakati, holati orqali o'quvchi odamlarni tushunadi. «Kalila va Dimna»dagi masallar bunga yaqqol misol bo'la oladi...Gulxaniyning «Tuya bilan bo'taloq», «Toshbaqa bilan chayon», «Maymun bilan najor», Krilovning «Kvartet», «Bo'ri bilan qo'zichoq» asarlari allegoriyaga klassik misol bo'la oladi. «Toshbaqa bilan chayon»da do'st, mehribon kishini toshbaqa obrazi orqali va yaxshilikka ham yomonlik qiladigan, ba'zan nish urishni o'ziga kasb qilib olgan kishini chayon obrazi orqali tushunamiz. Jonlantirishda esa xususiyat, belgi jonsiz narsalarga ko'chiriladi, lekin ular orqali odamlar tushunilmaydi, unda obrazlar tizimi bir qator bo'ladi. Apostrofa – yanada boshqacha xususiyatga ega. Bunda jonsiz narsa harakat qilmaydi, balki unga jonli narsadek murojaat qilinadi. Ya'ni bu o'rinda jonlashtirilayotgan narsa murojaat qilayotgan kishiga nisbatan sust xarakterda bo'ladi. «Siyohdan omon bo'l, ishchan hamdamimIshonki, so'qqabosh bo'lmagaysan hech. Seni ko'p bezovta qildim qalamim, Sen ham uxlatmagin meni erta-kech» (M.Shayxzoda «Siyohdon»).

Demak, madaniy nutq egasi, o'z nutqi jarayonida turli xil troplardan foydalanishi provardida, fikrini to'liq va mazmunli hamda tushunarli bo'lishiga erishadi. Bunda albatta, tropning turlaridan o'z o'rnida foydalanib qo'llay olish maqsadga muvofikdir. Binobarin, troplar fikrni aniq, lo'nda, tushunarli va mazmunli ifodalashda qo'l keladi.

Adabiyotlar:

1. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiy asoslari. T., 1992.
2. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari T., 1977.
3. Tojiev Y., Xasanova N., Saidova R., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari amaliyoti. T., 1994.
4. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. T., 1982.
5. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. T., 1970.
6. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007.

“O‘QITUVCHI NUTQI MADANIYATI” FANI BO’YICHA AMALIY MASHG‘ULOTLAR ISHLANMASI

1-mavzu (4 soat)

Mumtoz yozma yodgorliklarda nutq madaniyati va notiqlik masalalari.

Reja:

1. Mumtoz yozma yodgorliklarda nutq madaniyati.
2. Nutq madaniyati va notiqlik masalalari.
3. Madaniy nutqqqa qo‘yiladigan talablar.
4. Xulosa.

Tayanch tushuncha: Mumtoz yozma yodgorliklar, nutq madaniyati va notiqlik,

Darsning maqsadi: Talabalarga Mumtoz yozma yodgorliklarda nutq madaniyati va notiqlik masalalari. haqida tushuncha berish;

- a) Mumtoz yozma yodgorliklar
- b) nutq madaniyati va notiqlik;
- b) o‘rinsiz qo‘llangan so‘z va so‘z birikmalar;
- s) nutqda ortiqcha takrorlar

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati

1. Qilichev E.Qilichev B. Nutq madaniyati asoslari. -Buxoro, 2001.
2. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T.,1993
3. Qo‘ng‘urov R va b. Nutq madaniyati va uslubiy asoslari. -T.,1993.
4. RasulovR. , Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Aristotel. Ritorika. Y,1992.
6. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.1992.
7. Kaykovus. “Qobusnomा” T.1994.
8. O‘zbek xalq topishmoqlari.
9. O‘zbek xalq dostonlari.
10. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa: Qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ma`lumotlar to`plash.

2-mavzu (4 soat)
Og‘zaki nutqda adabiy til me’yorlariga amal qilish

Reja:

1. Og‘zaki nutqda adabiy til.
2. Til me’yorlariga amal qilish
3. Orfoepik me’yorlariga amal qilish.

Darsning maqsadi: Talabalarga og‘zaki nutqda adabiy til me’yorlariga amal qilish haqida tushuncha berish. og‘zaki nutq texnikasi

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati.

1. Qilichev E.Qilichev B. Nutq madaniyati asoslari. -Buxoro, 2001.
2. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
3. Qo’ng’urov R va b. Nutq madaniyati va uslubiy asoslari. -T., 1993
4. RasulovR. , Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa: Qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ma`lumotlar to`plash.

3-mavzu (4 soat)
Yozma nutq me'yorlari yuzasidan trening.

Reja:

1. Yozma nutq me'yorlari
2. Yozma nutq me'yorlariga qo'yiladigan talablar.
3. Imloviy meyor.

Darsning maqsadi: Talabalarga Yozma nutq me'yorlariga qo'yiladigan talablar haqida tushuncha berish. Imloviy meyor. Imlo qoidalari yusasidan mashqlar bajarish

Tavsiya qilinadigan adabiyatlar ro'yxati

- 1.Qilichev E.Qilichev B. Nutq madaniyati asoslari. -Buxoro, 2001.
- 2.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
- 3.Qo'ng'urov R va b. Nutq madaniyati va uslubiy asoslari. -T., 1993
- 4.RasulovR. , Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.
- 6.Imlo qoidalari. 1995.

Uyga vazifa: Imloviy meyor va imlo qoidalalarini yod olish.

4-mavzu (4 soat)
Nutq sifatlari bo‘yicha matn tahlili

Reja:

1. Nutq sifatlari.
2. Nutq sifatlari bo‘yicha matn tahlil qilish
3. Nutqning to’g’ligi, aniqligi

Darsning maqsadi: Talabalarga nutq sifatlari bo‘yicha tushuncha berish, nutq sifatlari bo‘yicha matn tahlil qilish.

Bilamizki, nutq to‘g’ri bo‘lmasa, boshqa kommunikativ sifatlari ham vayron bo‘ladi. Nutq to‘g’ri bo‘lishi uchun asosan 2 normaga – urg‘u va grammatik normaga qattiq amal qilishni talab qilishini tushuntirish.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati.

- 1.Qilichev E.Qilichev B. Nutq madaniyati asoslari. -Buxoro, 2001.
- 2.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
- 3.Qo’ng‘urov R va b. Nutq madaniyati va uslubiy asoslari. -T., 1993
- 4.RasulovR. , Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa: Nutq sifatlari yuzasidan misollar to’plash

5-mavzu (4 soat)
Nutq uslublari va ularga xos xususiyatlar.

Reja:

1. Nutq uslublar haqida tushuncha.
2. Fonetik uslubiyat
3. Ltksi uslubiyat.
4. Grammatik uslubiyat
- 5.

Darsning maqsadi: Talabalarga nutq uslublari bo'yicha tushuncha berish, nutq uslublari bo'yicha matn tahlil qilish.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati.

1. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslub asos asoslari. --Buxoro 2001.
2. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
3. Qo'ngurov R va b. Nutq madaniyati va uslub. asos. --T.,1993
4. R.Rasulov, Q.Mo'ydinov. Nutq madaniyati. -T.,2004.

Uyga vazifa: Nutquslublari bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish .

6-mavzu (4 soat)

Nutqning badiiy tasvir vositalari

Reja:

1. Nutq aniqligi tushunchasi.
2. Leksik mezon; so‘z qo‘llash va semantika.
3. Aniq nutqqa xalaqit beruvchi unsurlar.
4. Nutqning aniqligi va mantiqiyligi.

Tayanch tushuncha : Narsaning aniqligi, tushuncha aniqligi, aniq nutq , tilning sinonimik imkoniyatlari, betayin so‘z qo‘llash, omonimlarning xususiyatlarini bilish, paronimlar .

Darsning maqsadi : Talabalarga aniq nutq yaratishning usullarini o‘rgatish.

1. Tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish;
2. Nutqda ishlatiladigan so‘zning anglatgan ma’nolarini har tomonlama bilish;
- 3.Omonimlarning xususiyatlarini bilish.
4. Paronimlarni bilish,tovush yaqinliklariga e’tibor berish.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati.

1. E.Qilichev, B.Qilichev. . Nutq madaniyati va uslub asos asoslari.-Buxoro 2001.
2. Qudratov T. . Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
3. Qo’ngurov R va b. Nutq madaniyati va uslub. asos. -T.,1993
4. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov. Nutq madaniyati. -T.,2004
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa: Nutqning aniqligi haqida ma’lumot. Qo‘srimcha adabiyotlardan foydalanish.

7-mavzu (4 soat)

Nutqdagi tipik xatolar ustida ishlash.

Reja:

1. So‘zlar va gaplar orasidagi semantik aloqa.
2. Nutq sofligi tushunchasi.
3. Nutq sofligini buzuvchi holatlar:
 - dialektizmlar;
 - vulgar va varvar so‘zlar;
 - jargon va argolar;
 - kanselyarizmlar;T
 - parazit so‘zlar;
4. Nutqning ifodaliligi.
5. Nutqning ta`sirchanligi.
6. Nutqning boyligi va o`rinliligi

Tayanch tushuncha: Mantiqiylik, nutqning ifodaliligi, o‘xshatish, metafora, sinekdoxa, metonimiya, nutqning boyligi, nutqning o`rinliligi, norma va maqsadga muvofiqlik, nutq odobi, jarangdorlik, havodorlik, ixchamlik, chidamlilik, moslashuvchanlik, og‘zaki nutq texnikasi, yozma nutq texnikasi, to‘xtam.

Darsning maqsad: Talabalarga nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarning o‘zaro munosabatliligi, mantiqiylik, ifodalilik, nutqning sofligi kabi tushunchalar haqida gapirib berish. Ma’lumki, notiq nutqining muhim shartlaridan biri ifodalilikdir. Talabalarga ifodalilik nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishini taminlovchi vosita ekanligini tushuntirish.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati.

1. E.Qilichev, B.Qilichev. . Nutq madaniyati va uslub asos asoslari.--Buxoro 2001.
2. Qudratov T. . Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
3. Qo’ngurov R va b. Nutq madaniyati va uslub. asos. -T.,1993
4. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa: Nutqning mantiqiyligi. Nutqning sofligi va ifodaliligi. Qo‘shimcha adabiyotlardan materiallar to‘plash.

8-mavzu (4 soat)

Nutq so‘zlash jarayonida improvizatsiya

Reja:

1. Nutqiy etiket tushunchasi.
2. Nutqiy etiket shakllari.
3. Nutq texnikasi.
4. O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar:
 - mazmundorlik;
 - dilkashlik;
 - ifodalilik va izchillik;
 - g‘oyaviy-siyosiy yetuklik va grammatik to‘g‘rilik.

Tayanch tushuncha: Nutqiy etiket tushunchasi Nutqiy etiket shakllari. Nutq texnikasi. O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar, mazmundorlik, dilkashlik, ifodalilik va izchillik, g‘oyaviy-siyosiy yetuklik va grammatik to‘g‘rilik.

Darsning maqsadi: Talabalarga nutqiy etiket, nutqiy etiket shakllari, nutq texnikasi, o‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar, mazmundorlik, dilkashlik, ifodalilik va izchillik, g‘oyaviy-siyosiy yetuklik va grammatik to‘g‘rilik haqida batafsil tushuncha berish

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. E.Qilichev, B.Qilichev. . Nutq madaniyati va uslub asos asoslari.-Buxoro 2001.
2. Qudratov T. . Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
- 3.Qo‘ngurov R va b. Nutq madaniyati va uslub. asos. -T.,1993
4. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa: O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar.
Qo‘shimcha adabiyotlardan materiallar to‘plash.

9-mavzu (4 soat)

Nutqda badiiylik unsurlari va notiqning so‘z qo‘llash mahorati.

Reja:

1. Nutqda tushunchasi tushunchasi.
2. Notiqning so‘z qo‘llash mahorati.
3. Nutq texnikasi.

Darsning maqsadi: Talabalarga notiqning so‘z qo‘llash mahorati haqida bat afsil tushuncha berish

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati.

1. E.Qilichev, B.Qilichev. . Nutq madaniyati va uslub asos asoslari.-Buxoro 2001.
2. Qudratov T. . Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
- 3.Qo’ngurov R va b. Nutq madaniyati va uslub. asos. -T.,1993
4. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa:

Qo‘shimcha adabiyotlardan materiallar to‘plash.

10-mavzu (4 soat)

Nutq jarayonida qo‘l, bosh harakatlari. Imo-ishoralar Reja:

1. Nutq jarayonida qo‘l, bosh harakatlari.
2. Imo-ishoralar qo‘llash mahorati.
3. Imo-ishoralar qo‘llash me’yorlariga e’tibor berish.

Darsning maqsadi: Talabalarga Imo-ishoralar qo‘llash mahorati haqida bat afsil tushuncha berish

1. Бош ҳаракатлари. 2. Кўл ҳаракатлари. 3. Кўз ҳаракатлари. 4. Елка ҳаракатлари. 5. Уларнинг ҳар бири алоҳида мустақил маънони ифодалashi. 6. Нутқий вазиятда уларнинг уйғунликдаги ҳаракати. 7. Ушбу ҳаракатларнинг маълум ахборот узатишда, маънони кучайтиришда кетма-кетликда қўлланилиши.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati.

1. E.Qilichev, B.Qilichev. . Nutq madaniyati va uslub asos asoslari.-Buxoro 2001.
2. Qudratov T. . Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
- 3.Qo’ngurov R va b. Nutq madaniyati va uslub. asos. -T.,1993
4. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa:

Qo‘shimcha adabiyotlardan materiallar to‘plash.

11-mavzu (4 soat)
Ommaviy ma'ruzalarda nutq madaniyatiga e'tibor.

Reja:

1. Ommaviy ma'ruzalar.
2. Ma'ruzalarda nutq madaniyati.
3. Ma'ruzalarda nutq madaniyati me'yorlariga amal qilish.

Darsning maqsadi: Talabalarga ommaviy ma'ruzalarda nutq madaniyati mahorati haqida batafsil tushuncha berish

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati.

1. E.Qilichev, B.Qilichev. . Nutq madaniyati va uslub asos asoslari.-Buxoro 2001.
2. Qudratov T. . Nutq madaniyati asoslari. -T., 1993
- 3.Qo'ngurov R va b. Nutq madaniyati va uslub. asos. -T.,1993
4. R.Rasulov, Q.Mo'ydinov. Nutq madaniyati. -T.,2004.
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. -T., 2007-yil.

Uyga vazifa:

Qo'shimcha adabiyotlardan materiallar to'plash.

“O‘qituvchi nutqi madaniyati” fanidan mustaqil ish bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga oлган holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma‘ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ostida ishslash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari.

“O‘qituvchi nutqi madaniyati” fani bo‘yicha talabalarni mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdaggi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-son qaroriga muvofiq ravishda olib boriladi.

“O‘qituvchi nutqi madaniyati” fani o‘quv rejasida belgilanganidek barcha ta’lim yo‘nalishlarida 3-kursda o‘qitiladi. Fan uchun jami 44 soat, shu jumladan 10 soat ma‘ruza, 12 soat amaliy (seminar), 22 soat talabaning mustaqil ishi uchun ajratilgan.

Talabaning mustaqil ishi o‘quv rejasida “O‘qituvchi nutqi madaniyati” fanini o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining ajralmas qismi bo‘lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta’milnadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda har bir talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga oлган holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzu bo‘yicha referat tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- maket, maqola, badiiy asar va namunalar yaratish va boshqalar;

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o‘quv mashg‘ulotlarini olib boradigan o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba uchun fan bo‘yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori tomonidan o‘quv mashg‘ulotini bevosita olib boruvchi o‘qituvchi bilan birgalikda tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o‘quv qo‘llanmalar, metodik qo‘llanma va ko‘rsatmalar, ma‘lumotlar to‘plami, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog‘idagi tegishli ma‘lumotlar, berilgan mavzu bo‘yicha avval bajarilgan ishlar majmuyi va boshqalar xizmat qiladi.

<i>Nо</i>	<i>Mavzular</i>	<i>Nazorat turi</i>	<i>Izoh</i>
1	G`arb madaniyatida notiqlik san`atining o‘rni.	<i>konspekt</i>	
2	Nutq odobi.	<i>suhbat</i>	
3	Adabiy norma.	<i>konspekt</i>	
4	Nutqda egalik va kelishik qo‘shimchalaridan foydalanish normalari.	<i>suhbat</i>	
5	Ovozni ishlatish, o‘qituvchi ovozining hususiyatlari.	<i>suhbat</i>	
6	Nutqiy asarlar va ularning janrlari.	<i>konspekt</i>	
7	Sharq madaniyatida notiqlik san`atining o‘rni.	<i>referat</i>	
8	Me‘yoriy yozma hujjatlar bilan ishslash.	<i>Suhbat</i>	

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T., O'zbekiston 1999.
2. R.Qo'ngurov. e. Begmatov. Y. Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T., O'qituvchi. – T., 1992.
3. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari.- T., O'qituvchi -1993.
4. Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati. -Fargona 1997.
5. A.Ortiqov. Nutk madaniyati va notiklik san'ati. -T., IIV 2002.
6. R.Rasulov. K.Mo'ydinov. Nutq madaniyati. -T., 2004.
7. R.Rasulov, N.Husanov, K.Mo'ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. -T., 2006.
8. Tojyiyev Y, Hasanova N, Tojmatova H, Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari (ommabop qo'llanma). -T.: 1994.
9. Hakimova O. Mantiq va nutq madaniyati. -T.: 2002.
10. Mahmudov N. O'qituchi hutqi madaniyati. -T., 2007.
11. M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov. Ish yuritish. – Toshkent, 2012.

«O'qituvchi nutqi madaniyati» fani bo'yicha mustaqil ta'lif bo'yicha talabalar bilimlarini reyting tizimi asosida baholash mezonlari

No	Ko'rsatkichlar	MT (%)	MT balli
1.	Reja bo'yicha mustaqil ta'lif darslariga qatnashganlik darajasi	10	1
2.	Mustaqil o'rganish uchun tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganganligi darajasi	30	3
3.	Mustaqil o'rganish uchun tavsiya qilingan adabiyotlarni konspektlashtirgani	30	3
4.	Mustaqil ta'lif bo'yicha yozma topshiriqlarni (insho, taqriz, referat, ma'ruza) bajarish, ularning mazmunini o'zlashtirish darajasi.	30	3
	JAMI	100	10

Glossariy

Davlat tili – ma'lum davlat hududida rasmiy aloqa-aratashuv vositasi bo'lgan til. Barcha davlat hujjati davlat tilida yoziladi, yig'in, anjuman va qurultoy shu tilda olib boriladi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi va 1990-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «Davlat tili to'g'risida»gi 30 moddadan iborat Qonun qabul qilindi. 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirdagi «Davlat tili to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Avvalgi 30 moddadan iborat Qonunning 11 moddasi chiqarilib, 5 modda yangidan qo'shildi. Natijada u 24 moddadan iborat bo'ldi.

Adabiy til – til umumxalq tilining olim, yozuvchi va shoirlar tomonidan qayta ishlangan, me'yorga solingan, hamma uchun umumiyligi bo'lgan, yuqori darajada sayqallashgan shakli. Davlat muassasasi, matbuot, radio, televideeniye va ta'lim, madaniyat va ilmda adabiy tildan foydalilanildi. Adabiy tilning **o g ' z a k i** va **y o z m a** ko'rinishi mayjud. Og'zaki shakl **so`z, tovush, gap, ohang, pauza** (to'xtam) bilan, yozma shakli esa **harf, yozuv, tinish belgisi** bilan ish ko'radi.

Notiqlik - Notiqlik san'atida tinglovchilarni, ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Notiqlarning nutqi chiroyli, jozibali bo'lishi shart. Bunga erishish uchun nutqning mazmuniga, mantiqiy kuchiga, jumllarning jimjimadorligiga katta e'tibor beriladi.

Sinegorilar-hozirgi advokatlar vazifasini bajaruvchi notiqlar..

Logograflar -nutq matnlarini tuzib, yozib berish bilan shug'ullanuvchilar.

Epideyktik notiqlik-tantanali notiqlik.

Nahv – (arabcha) sintaksis, grammatika.

Nazm – (arabcha) she'riy asar, she'riyat janri, she'r o'lchovi.

Nasr – (arabcha) proza, prozaik asar, proza janri.

Nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar – Sharqda notiqlik san'atini egallagan va go'zal xulqli shaxslar.

Adabiy me'yor – Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tuziladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyati taraqqiyoti bilan rivojlanib o'z qonun qoidalarini mustahkamlab boradi. Jamiyat a'zolarini uyuştirishda, katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning me'yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarur.

Norma - tilning yashash shaklidir

Qo'shib yozish – 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 38–50-paragraflarini o'z ichiga oluvchi, so'zlarni qo'shib yozish haqidagi imlo qoidasi to`plami.

Ajratib yozish – 1995-yil 24-avgustda qabul qilingan “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 57–65-paragraflarini o'z ichiga oluvchi imlo qoidasi to`plami.

Alifbo – harf va belgilarning ma'lum tartibda joylashgan to`plami.

Nutq yozma ravishda ham bayon qilinadi. Bu vaqtida yozma nutq harf ketma-ketligidan tashkil topadi. Yozma nutqni shakllantiruvchi, boshqa bo`lakka bo`linmaydigan eng kichik grafik belgi – harf.

Asos va qo'shimcha imlosi – 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 33–37- paragraflarini o'z ichiga oluvchi imlo qoidasi to`plami.

Bosh harf imlosi – 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 66–74-paragraflarini o'z ichiga oluvchi bosh harf bilan yozish haqidagi imlo qoidasi to`plami.

Monolog – so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchiga qaratilgan nutqidir. Monolog nutqda so'zlovchi o'ziga ma'lum bo'lgan voqeа – hodisalar, o'z ichki kechinmalari haqida ma'lumot beradi.

Ichki monolog - adabiyotda qo'llanuvchi uslubiy usullardan biridir. Ichki monolog so'zlovchining ichki nutqidir.

Tashqi monolog - so'zlovchining tashqi nutqidir. Unda til imkoniyatlari harakatga keladi.

Atash ma'no - so'zning borliqdagi qanday narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat yoki miqdorni bildirishi uning lug'aviy (leksik), ya'ni atash ma'nosi. Atash ma'nosi so'zning o'zak, negizida bo'ladi. Ba'zi bir

so`zda atash ma'nosiga bo`lmaydi: *lekin, bilan, va, ammo, uchun, sari* kabi. Faqat mustaqil so`zgina atash ma'nosiga ega. Olmosh bundan mustasno. U o`zi almashtiradigan mustaqil so`zning atash ma'nosiga ishora qiladi.

Barqaror birikma – alohida rasmiylashgan, tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo`llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obruzli, jozibali, ma`no jihatdan shakllangan so`z bog`lanmasi. **Maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda** barqaror birikma.

Bir ma'noli so`z. Bir ma'noli so`z – matn tarkibida ham, matndan tashqarida ham bir lug`aviy ma`noni bildiruvchi so`z. Mas., *kompyuter, sinus, kelishik, olmosh* so`zi. Bir ma'noli so`zga terminlar yaqqol misol.

Bir ma'noli so`z tilda kam va ilmiy, biror soha, kasb-hunar atamasini, shuningdek, yangi paydo bo`lgan so`zni o`z ichiga oladi.

Faol so`z - o`zbek tili lug`at tarkibining asosini faol so`z tashkil etadi. Bunday so`zni shu tilda so`zlashuvchi kishilar qanday shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansub bo`lishidan qat'i nazar, cheklanmagan darajada ishlataadi. Faol soz barcha so`z turkumida mavjud. Masalan: 1) fe'l: *ishlamoq, kelmoq, olmoq, ko`rsatmoq, buyurmoq, saylamoq va hokazo*; 2) ot: *ota, ona, non, suv, stol, eshik, tog`, yer, shamol, radio*; 3) sifat: *shirin, achchiq, qizil, ko`k, katta-kichik, xunuk, go`zal*; 4) son: *bir, o`n,*

Ko`p ma'nolilik – nutq jarayonida til birliklarining birdan ortiq ma`no bildirish hodisasi. Mas., *kitob* so`zi ko`p ma'noli so`z: 1) «varaqdan tashkil topgan va muqovalangan, bosma yoki qo`lyozma holidagi o`quv quroli»; 2) «katta hajmli asarning qismi, bo`limi». Yoki *qo`zichoq* so`zi «qo`yning bolasi» va «aziz farzand» ma'nosiga ega. Ko`p ma'noli so`zlarda, qo`shimchalarda, iboralarda, tasviriy ifodalarda bo`lishi mumkin.

Leksema – so`zning gap tarkibidan tashqaridagi, grammatic qo`shimchasiz, alohida olingen ko`rinishi. Mas., *kitob, o`qi, qizil, bir, ko`p, holbuki*. Bular gap tarkibiga kirsa, so`zga aylanadi: 1. *Kitob qiziqarli ekan*. 2. *O`qib chiqmoq bo`ldi odatim*. 3. *Bir gapirib o`n kuladi*. 4. *Holbuki, orzulardan judo ham bo`lganim yo`q*. Leksemaning har bir so`z birikmasi, gap tarkibidagi ko`rinishi alohida so`z. Mas., tilimizda bitta *kitob* leksemasi bor. Lekin uning har bir so`z birikmasi yoki gapdagi ko`rinishi alohida so`z. Shuning uchun tilda leksema sanoqli, so`zning miqdori esa cheksiz.

Lug`at leksemani tavsiflaydi, so`zni emas. Aks holda *kitobni, o`qidim, qizilroq* so`zi ham lug`atda berilgan bo`lur edi

Leksika – (yun. *lexis* – so`zga oid, lug`aviy) tilshunoslikning tildagi so`z va ibora jami. Shuningdek, lug`at tarkibi – o`z va o`zlashgan qatlam, faol va nofaol so`z, so`zning qo`llanish davri va doirasiga ko`ra turini o`rganuvchi sohasi. Leksika ma'lum qonun-qoidaga bo`ysunuvchi izchil va murakkab tizim

Leksikografiya, ya`ni lug`atshunoslik lug`at va uning turi, turli lug`at yaratishning nazariy masalasini o`rganadi.

Lug`atshunoslik. Lug`atshunoslik – lug`at tuzishning nazariy va amaliy masalalari bilan shug`ullanuvchi tilshunoslik sohasi.

Leksikologiya (yunoncha *l e x i s* – so`z, *l o g o s* – ta'limot) «so`z haqida so`z», «so`z haqida ta'limot» demakdir. So`zning lug`aviy ma'nosini, lug`aviy ma`no turi, so`zning shakl va ma`no munosabati, lug`at tarkibidagi faol va nofaol so`z, tarixiy jihatdan o`zbek tili leksikasi, so`zning hissiy va uslubiy xususiyati kabini o`rganadi. Leksikologiya semasiologiya, frazeologiya, etimologiya, leksika kabi sohani o`z ichiga oladi.

Nutqning to`g`riliq. - nutq to`g`ri bo`lishi uchun, asosan, ikki normaga – urg`u va grammatic normaga qattiq amal qilishni talab qiladi.

Nutqning aniqligi – bu so`zning o`zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir.

Mantiq – (arabcha) tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan; logika

Nutqning mantiqiyligi - uning asosiy sifatlari to`g`rilik va aniqlik bilan chambarchas bog`langandir.

Nutqning tozaligi (sofligi) - nutqimizning toza bo`lishiga halaqit berayotgan lisoniy unsurlar, asosan, dialektizmlar va varvarizmlardir.

Nutqning ta`sirchanligi - nutqning ta`sirchanligi deganda, asosan, g`zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi.

Nutqning boyligi - nutqning boyligini tilning lug`at boyligi ta`minlaydi.

Nutqning ifodaliligi – ifodalilik nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishini ta`minlaydi.

Nutqning jo`yaliliqi - nutq tuzish uchun tinglovchi yoki o`quvchining yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi, madaniy- ma`rifiy saviyasi kabi jihatlarni hisobga olishdir.

Til boyligi - Tilda so`z miqdori qancha ko`p bo`lsa o`sha tilni boy til tarzida talqin qilish keng tarqalgan. Bu o`rinda albatta o`zbek tilining sinonimlarga, frazeologizmlarga nihoyatda boy ekanligi, ular ma`nolarining, shuningdek, umuman o`zbek tilidagi so`zlarning ko`p ma`nolilik darajasi nihoyatda yuqori ekanligi ham hisobga olinadi.

Nutq uslubi - adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma`lum bir sohada qo`llananishi.

So`zlashuv uslubi. Keng qo`llanadigan uslubdan biri – so`zlashuv uslubi. Bu uslubda, odatda, adabiy til me`yoriga rioya qilinmaydi. So`zlashuv uslubidagi gap asosan dialogik shaklda bo`ladi. Bunda turli uslubiy bo`yoqli so`z, grammatik vosita qo`llanadi. Shuningdek, tovush tushib qolishi, orttirilishi mumkin.

Ilmiy uslub. Fan-texnikaning turli tarmog`iga doir ilmiy asarlar, darslik va qo`llanmalar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma`lumot asosida chiqarilgan ilmiy xulosa (qoida, ta`rif)ga boy bo`lishi bilan boshqa uslubdan farq qiladi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Davlat idorasi tomonidan chiqariladigan qaror, qonun, nizom, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma`lumotnomma, chaqiruv qog`ozi, taklifnomma, shartnomma, tarjimayi hol, e`lon, tavsifnomma, dalolatnomma, hisobot kabilar ham shu uslubda bitiladi.

Ommabop (publisistik) uslub. Tashviqot-targ`ibot ishini olib borishda qo`llanadigan uslub, ya`ni matbuot uslubi – ommabop uslub. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so`z ko`p qo`llanadi.

Badiiy uslub. Badiiy asar badiiy uslubda bo`ladi. Bunday asar kishiga ma`lumot berish bilan birga, timsol (obraz) vositasida estetik ta`sir ham ko`rsatadi. Badiiy uslubda qahramon nutqini jonli berish oddiy nutq so`zi, sheva, vulgarizmdan ham foydalilanadi. Badiiy asar uslubi **aralash uslub** hisoblanadi. Unda so`zlashuv uslubiga, kitobiy uslubga xos o`rin ham uchraydi.

Dialog – ikki yoki undan ortiq kishining o`zaro suhbati

Imo-ishora - bu nutq jarayonida ixtiyorsiz ravishda namoyon bo`ladigan qo`l va gavda harakatlari.

Pauza - qisqa to`xtam .

Nutq odobi – insonning umumiyligi axloqini belgilovchi asosiy mezondir.

Nutq texnikasi- nutqni tinglovchi yoki o`quvchiga yetkazishda qo`llaniladigan vositalar tushuniladi.

Og`zaki nutq texnikasi – tovush, bo`g`in, so`zlarini, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi.

Termin - (atama, i s t i l o h) – fan-texnika, qishloq xo`jaligi, san`at va madaniyat sohasiga xos so`z. Atamaning qo`llanishi chegaralanganligi boshqa soha kishisi uchun tushunarsiz degani emas. Mas., *to`g`ri chiziq, gap, so`z turkumi, tezlik* atamasi ko`pchilik uchun tushunarli, lekin kam qo`llanadi. Atamaning ikki xili farqlanadi: a) I l m i y a t a m a , b) k a s b - h u n a r g a o i d a t a m a . Ilmiy atama ma`lum bir fan-texnika, san`at, madaniyatga tegishli bo`lsa, kasb-hunarga oid atama esa turli kasb-hunar egasi nutqida qo`llanuvchi so`z.

Terminologik lug`at – ma`lum bir sohaga tegishli so`z (termin)ni izohlaydi. Terminologik lug`at izohli yoki tarjima ko`rinishiga ega. Terminologik lug`atni bir tilli va ko`p tilli lug`atga ajratish mumkin.

Ilovalar

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Rektor _____ Sh.Sirojiddinov

“KELISHILDI”

Oliy va o'rtalik maxsus ta'limgazirligi

201__ yil “__”_____

201__ yil “__”_____

Ro'yxatga olindi: № BD-5120100-3.02

201__ yil “__”____

NUTQ MADANIYATI VA MUTOLAA SAN'ATI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:

100000 – Gumanitar

Ta'limgazirligi:

120000 – Gumanitar fanlar

Ta'limgazirligi:

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Toshkent – 2018

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil “25” 08 dagi 6 - sonli buyrug‘i bilan fan dasturlari ro‘yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil “18” 08-dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

T.Tog‘ayev – Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU O‘zbek tilshunosligi kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
O. Usmonov – Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU Adabiyot nazariyasi va zamonaliviy adabiy jarayon kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

T.Enazarov – Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori
M.Shoniyofov – O‘zR FA Til, adabiyot va folklor instituti ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil “05” 07-dagi 13-sonli bayonнома).

O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish to‘g‘risidagi Respublika Prezidenti farmonida (2016-yil 13-may) “O‘zbek tili va adabiyotini, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash”, bugungi filolog-mutaxassislarning muhim vazifasi deya ta’kidlanadi. Hozirda nutq madaniyati, notiqlik va mutolaa san’ati doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, nutq madaniyati va notiqlik tarixining muhim bosqichlari borasida tasavvur hosil qilish, notiqliknинг asosiy shartlari, nutq madaniyati asoslari, notiqlik yo‘nalishlari va maktablari, voizlik san’ati, mumtoz manbalardagi nutq madaniyatiga oid qarashlar haqida ma’lumot berish, nutq sifatlari, uslublari, adabiy til me’yorlariga amal qilish, nutqni maqsadga muvofiq shakllantirish, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini talab darajasida egallagan o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” fani madaniy nutq tuzish, ifodali o‘qishga o‘rgatishni, mutolaa madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o‘zlashtirishni, millat va mamlakat hayotida kechgan ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma’naviy, adabiy-estetik jarayonlarni tushunish, o‘g‘zaki va yozma nutq me’yorlari bo‘yicha muayyan ko‘nikma hosil qilishni maqsad qiladi.

“Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” fani “Madaniyatshunoslik”, “Yozma nutq me’yorlari”, “Davlat tilida ish yuritish”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Mutaxassislikka kirish”, “Darslikdan foydalanish metodikasi”, “Adabiyot nazariyasi”, “Mumtoz adabiyot tarixi”, “Sotsiologiya”, “Psixologiya” fanlari bilan aloqador.

Ushbu fanni o‘qitish orqali o‘zbek tili va adabiyotini tarixiy va nazariy poetika, jahon adabiyoti kontekstida tushunadigan, og‘zaki va yozma nutqi ravon, barmoq va aruz vaznidagi she’rlarni, badiiy matnni ifodali o‘qiy oladigan, nutq madaniyati va notiqlik san’ati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali pedagog kadrlar va ilmiy xodimlar tayyorlash ko‘zda tutiladi.

II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

“Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” moduli maqsadi talabalar e’tiborini jalb qilish mohiyatiga ega bo‘lgan nutq yaratish, me’yoriylikka asoslangan og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilangan:

- nutq texnikasini o‘rganish;
- mutolaa madaniyati talablarini o‘zlashtirish;
- nutq madaniyati tarixini o‘rganish, g‘arb va sharqdagi notiqlik san’ati taraqqiyoti haqida ma’lumotga ega bo‘lish;

- notiqlik san’atining asosiy masalalarini o‘zlashtirish;
- nutq madaniyati asoslarni belgilash;
- nutq sifatlarini o‘zlashtirish va shu asosda maqsadga mos tarzda ta’sirchan nutq yaratish;
- muomala madaniyatini egallah, muloqot vaziyatlarini to‘g‘ri baholay olish.

Fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- “Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” fani tarixi, notiqlik san’ati, notiqlar faoliyatini;
- nutq bo‘limlari, notiqlik san’atining asosiy tushunchalarini;
- nutq madaniyati asoslarni;
- nutq madaniyatining umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatlarini;
- nutq sifatlari haqidagi muhim ma’lumotlarni;

- nutq madaniyatining shaxs ma’naviy qiyofasini belgilovchi omillardan biri ekanligini *bilishi* zarur;
- adabiy til me’yorlariga amal qilish;
- rasmiy muloqot madaniyati talablarini anglash;
- nutq sifatlarini belgilash;
- notiqlikning asosiy talablarini belgilash;
- nutq madaniyati talablariga amal qilish *ko ‘nikmalariga* ega bo‘lishlari zarur;
- til va madaniyat munosabatlarini anglash;
- nutqni adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda namoyon etish;
- nutqni ta’sirchan, auditoriya e’tiborini tortadigan darajada obrazli tarzda ifoda etish *malakalarini* egallashlari zarur.
- mutolaa san’atining taraqqiy etishiga ta’sir etgan muhim omillar va ushbu adabiyotning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;
- mutolaa madaniyati va ritorikaning mazmun-mohiyati davriy hodisalar ta’sirida o‘zgarib, boyib borishini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- talaba mutolaa san’atining nazariy masalalariga oid muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilish *ko‘nikmalariga* ega bo‘lishi kerak.

Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

I modul. Nutq madaniyati

“Nutq madaniyati” faniga kirish. Nutq madaniyati tushunchasi, tarixi.

Fanning maqsad, vazifalari. Nutq madaniyati tushunchasi va tarixi. Nutq madaniyati va muomala odobi. “Qutadg‘u bilik”, “Hibbat ul-haqoyiq”, “Qobusnama”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarda nutq madaniyati, so‘zlashish odobi masalalari. Jamiyat va nutq madaniyati. Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati.

Notiqlik san’ati tarixi

Notiqlik san’atining shakllanish tarixi. Notiqliklikning yuzaga kelish omillari.

Yunon notiqligi. Qadimgi Yunoniston – notiqlik san’atining vatani. Qadimgi Gretsiyada notiqlar faoliyati. Xalq yig‘inlarining notiqlik san’atini shakllantirishdagi o‘rni. Ijtimoiy-siyosiy masalalarda omma e’tiborini tortishning muhimligi. Fikr va g‘oyalarni to‘g‘ri va ta’sirchan ifodalashning ahamiyati. Huquq tizimida notiqlikning o‘rni. Yunon ritorlarining og‘zaki va yozma nutq *ko‘nikmalarini* egallashdagi faoliyatları. Falsafa maktablarining notiqlik san’atiga munosabatlari.

Aristotelning notiqlik san’ati taraqqiyotidagi xizmatlari.

Rim notiqlik san’ati. Rim notiqlik maktabibining o‘ziga xosliklari. Sitseronning notiqlik san’ati haqidagi qarashlari. Notiqning vazifalari.

Sharqda voizlik san’ati. Sharq notiqligi haqida ma’lumot. Sharq voizlarining qarashlari. Mumtoz asarlarda voizlik san’atining ulug‘lanishi.

Nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari

Til me’yori lingvistik tushuncha sifatida. O‘zbek adabiy tili – umumxalq o‘zbek tilining oliv shakli. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi. Adabiy tilga ta’rif. Adabiy tilga xos

muhim belgilar: me'yorlashganlik, xalqchillik, umummajburiylik, ko'p vazifalilik, uslubiy tarmoqlanganlik, qayd etilganlik, tanlanganlik, barqarorlik va o'zgaruvchanlik, zamonaviylik.

Me'yor ko'rinishlari: fonetik, leksik, orfoepik, orfografik, so'z yasash, so'z qo'llash me'yorlari; punktuatsion, sintaktik, stilistik me'yorlar.

Me'yoriylikdan maqsadli chekinish. Lug'atlarining nutq madaniyati bo'yicha universal manba sifatidagi ahamiyati.

Adabiy til nutq madaniyatining asosi sifatida. Adabiy til me'yorlarini egallashga to'siq bo'luvchi ba'zi holat va sabablar.

Nutqning kommunikativ sifatlari

Nutq sifatlari. Nutqning to'g'riligi – nutq madaniyatining birlamchi sharti. Nutqning aniqligi, mantiqiyligi, jo'yaligi, maqsadga muvofiqligi va ta'sirchanligi.

Til sofligi, nutq sofligi uchun kurash – umumxalq ishi. Nutq boyligi va ta'sirchanligi, ularga erishish yo'llari.

Nutq shakllari va turlari

Og'zaki nutq xususiyatlari. To'g'ri talaffuz me'yorlari. O'zbek tilida urg'u. Olinma so'zlar talaffuzi.

Yozma nutq xususiyatlari. Yozma nutqqa oldindan hozirlanish xosligi hamda unda tahrir imkoniyatining mavjudligi. Matnni tahrirlash. Yozma nutqning nisbatan to'g'ri va aniqligi. Imlo me'yorlari. Yozma nutqda uchraydigan tipik xatolar va ularning tasnifi.

Nutq madaniyati va uslubiyat

O'zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari. Jonli so'zlashuv uslubi. Adabiy til uslublari: ilmiy uslub, rasbiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub. Ushbu uslublarning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy uslubning keng qamrovliligi. Uning tarmoqlanishi: poetik nutq, drammatik nutq, nasriy nutq kabilari.

Tilning tasviriy vositalari

Ko'chimlar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ironiyaning nutq emotsiyasini tashkil etishdagi o'rni. Ekspressiv-emotsional leksika. Sintaktik figuralar: inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, ritorik so'roq, takrorlarning nutq ta'sirchanligini ta'minlashdagi ahamiyati.

Badiiy nutqda adabiy til me'yorlaridan ma'lum maqsadda chekinishga yo'l qo'yilishi.

II modul. Mutolaa san'ati

Mutolaa va voizlikning G'arb madaniy tafakkurida tutgan o'rni

Ritorika tushunchasi asosida nutq, notiqlik degan mazmun yotishi, bunda asosan nutqdagi marom e'tiborga olinishi. Va'z va voizlik esa sharqona pand-nasihat – didaktikaga asoslanishi.

Mutolaa va voizlikning Sharq madaniy tafakkurida tutgan o'rni

Mutolaa san'ati arabcha "mutolaa" – o'qish, o'qib-o'rganish ma'nolarini anglatishi, voizlik esa Sharq va G'arbda boshqa-boshqa tushunchalar o'lar oq talqin qilinishi.

Lirik janrlarda marom va ohang

Lirik janrlar asosida marom va ohang turishi, voiz nutqida ham marom va ohang ishtirokiga alohida e'tibor qaratilishi. Ritor tanlagen mavzuga qarab lirik janrlarga xos tez, sekin, yuqori, yoki past ohanglarning o'rin almashinib turishi. She'r vaznlariga xos marom, nutq materiali semantikasiga bevosita ta'sir etishi.

Dramada ritm va ohang

Dramatik asarda ritm va ohangning yetakchi mavqeda turishi. Dramatik asardagi mualif nutqi asosiy ritm va ohang regulyatori vazifasini bajarishi. Qahramonlaro dialogda monolog va ichki nutq talqinida notiqlik san'atiga xos marom o'zgarishlarining muqarrarligi. Shu nuqtayi nazardan voizlik va dramatik janrlar mustahkam aloqaga ega bo'lishi.

Epik ijodda nutq va mutolaa masalasi

Epik ijod namunalarining mutolaa san'ati bilan mushtarak holatda yashashi qonuniyligi. Mutolaa jarayonida notiqlikka xos marom, ohang, urg'u, talaffuz va ifodaning muhim retseptiv vazifa bajarishi. Epik ijodda ham nutqning obrazlar, personajlar, ifoda shakllari, pafos bilan bog'liq ko'rinishlari uchrashi.

Mutolaa jarayonida jumla, so'z va tovushning vazifasi

Mutolaa jarayonida jumla, so'z va tovushning vazifasi bir nechta bosqichlardan iborat ekanligi. Birinchi bosqichning psixologik funksiyaga yo'naltirilishi. Bunda jumla va so'zning psixologik ta'sir kuchiga ega bo'lishi. Ikkinchidan, ayni matn bo'laklarining semantik-struktural vazifalarini bajarilishi. Uchinchidan, obraz mohiyatini ochishda va tushunib yetishda jumla, so'z va tovushning zarur retseptiv kompnetnt vazifasini bajarishi.

Ritorika va zamonaviy adabiyot

Ritorika, mutolaa, zamonaviy adabiyot rivojini ta'minlovchi, o'quvchi va badiiy asar munosabatini mustahkamlovchi vosita ekanligi, badiiy asarni o'qish, tushunish, tushuntirish jarayonida ritorika mezonlarining ulkan ahmiyat kasb etishi. Zamonaviy epik, dramatik, lirik janrlarga xos semantik-struktural mohiyat bevosita mutolaa san'ati va ritorik bilan bog'liqligi.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

I modul. Nutq madaniyati

1. Mumtoz yozma yodgorliklarda nutq madaniyati va notiqlik masalalari.
2. Og 'zaki nutqda adabiy til me'yorlariga amal qilish

3. Yozma nutq me'yorlari yuzasidan trening
4. Nutq sifatlari bo'yicha matn tahlili
5. Nutq uslublari va ularga xos xususiyatlar.
6. Nutqning badiiy tasvir vositalari.
7. Nutqdagi tipik xatolar ustida ishlash.
8. Nutq so'zlash jarayonida improvizatsiya.
9. Nutqda badiylik unsurlari va notiqning so'z qo'llash mahorati.
10. Nutq jarayonida so'z, bosh harakatlari; imo-ishoralar. Ularning me'yorlariga e'tibor berish.
11. Ommaviy ma'ruzalarda nutq madaniyatiga e'tibor

II modul. Mutolaa san'ati

1. Alpomish dostoni mutolaasi va tahlili.
2. Go'ro'g'li dostoni mutolaasi va tahlili.
3. "Qutadg'u bilig" asari mutolaasi va tahlil.
4. Lutfiy g'azallridan yod olish
5. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonini ifodali o'qish
6. Z.M.Boburning "Boburnoma" asarini mutolaa va tahlil qilish
7. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asari tahlili
8. Oybek "Qutlug" qon" asari mutolaasi va tahlili
9. Erkin Vohidov she'rlaridan yod olish
10. Abdulla Oripov she'rlaridan yod olish
11. O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" asari mutolaasi va tahlili

V. Mustaqil ta’limni va mustaqil ishlar

Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish.
- Tarqatma materialar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish.
- Maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- Yangi ilmiy adabiyotlarni, adabiy jarayon tendentsiyalarini va estetik tamoyillarni o‘rganish.
- Talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish.
- Faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari.
- Masofaviy (distansion) ta’lim.

Nutq madaniyati va mutolaa san’ati

1. Sofistlar, ularning notiqlik san’ati rivojidagi xizmatlari.
2. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san’ati masalalari talqini.
3. Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida so‘z, nutq madaniyati haqidagi fikrlar.
4. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida so‘zning ulug‘lanishi.
5. “Mahbub ul-qulub” asarida sharqona muomala madaniyati.
6. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida voizlar tavsifi.
7. Navoiy zamondosh voizlar.
8. Koshifiyning so‘z odobi va notiqlik haqidagi qarashlari.
9. Navoiyning “Majolus un-nafas” asarida voizlar haqidagi ma’lumotlar.
10. I. Karimov nutqlarida xalq maqollari va frazeologik iboralardan foydalanish mahorati.
11. O‘zbek xalq maqollarida nutq odobining aks etishi.
12. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf – diniy notiqlik vakili sifatida.
13. Tursunoy Sodiqovaning nutqida sharqona odob masalalarining aks etishi.
14. Protagor, uning notiqlik sohasidagi xizmatlari.
15. Platon asarlarida notiqlikka oid qarashlarning aks etishi.
16. Gorgiy, uning notiqlik san’ati oldidagi xizmatlari.
17. Plutarx, uning notiqlik san’ati namoyandalari haqidagi ma’lumotlar.
18. Suqrot, uning notiqlik san’ati oldidagi xizmatlari.
19. Irshod notiqligi
20. Qozi O‘sishiy notiqligi.
21. Aristotelning notiqlik san’ati ta’limoti.
22. Platonning notiqlik san’ati haqidagi qarashlari.
23. Demosfen - buyuk notiq.
24. Sitseronning notiqlik nazariyasi.
25. A.Qahhor asarlarida nutq va notiqlik masalalari.
26. Hadislarda nutq odobi masalalari.
27. A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida o‘zbekona nutq odobining aks etilishi.
28. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik.
29. Akademik notiqlik.
30. Sud notiqligi.
31. Diniy notiqlik.

32. Harbiy vatanparvarlik notiqligi.
33. Barak Obamaning siyosiy liderligida notiqlik mahorati.
34. Husayn Voiz Koshifiyning voizlik mahorati.
35. O‘rtalarda Markaziy Osiyoda voizlik san’ati rivoji.
36. Stev Jobsning notiqlik mahorati.
37. Erkin Vohidovning asarlarida nutq madaniyati masalalari.
38. Abdulla Oripovning so‘z qo‘llash mahorati.
39. Boburning nutq madaniyati to‘g‘risida qarashlari.
40. Arastuning ritorika haqidagi ta’limoti.
41. Notiq nutqi samarasida nutq texnikasi.
42. Nutq madaniyati va nutq boyligi.
43. Nutqning kommunikatiq sifatlari.
44. Ijodkor mahorati va nutq qisqaligi.
45. Nutq sofligi va uning ma’naviy jihatlari.
46. Muloqot madaniyati nutqiy etiket.
47. O‘zbekcha nutq odobi.
48. Deyl Karnegi va uning notiqlik san’ati haqidagi qarashlari.
49. Said Ahmadning so‘z qo‘llash mahorati.
50. Abdulla Qahhorning notiqlik, til va nutq borasidagi fikrlari.
51. G‘arb mutafakkirlarining notiqlik san’atiga doir o‘gitlari.
52. Konfutsiy ta’limotida nitq madaniyati masalasi.
53. Demosfen – ulkan notiq.
54. Isokrat – notiq va pedagog ritor sifatida.
55. Improvizatsianing notiqlik mahoratidagi o‘rni.
56. Nutq turlari va shakllari.
57. Adabiy til va nutq madaniyati uyg‘unligi.
58. Adabiy til me’yorlari va nutq madaniyati.
59. Cherchelning notiqlik mahorati.
60. Ozod Sharafiddinovning til madaniyati va notiqlik mahorati.

VI. Asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
2. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Й. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
3. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. 1-қисм. – Тошкент: Наврӯз, 1997.
4. Карнеги Д. Ўз-ўзига ишонч ҳосил қилиш ва омма олдида сўзлаш санъати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.

Қўшимча адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.-Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Бадиий услугуб ва тилнинг ифода воситалари. – Самарқанд, 1994.
4. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси. – Т.: Akademnashr, 2015.
5. Жабборов Н. Маърифат надир. –Т.: Маънавият, 2010.
6. Жумахўжа Н. Истиқлол ва она тилимиз. – Тошкент: Шарқ, 1998.
7. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: F.Ғулом, 2015.
8. Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.
9. Зулфия. Асарлар. Уч жилдлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983-1986.
10. Исламов Ў. Алишер Навоий асарларида нутқ маданияти талқини. Филол. ф.н. дисс автореферати.-Тошкент, 2011.
11. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.
12. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари.– Т.:Ўзбекистон, 2008.–536 б.
13. Каримов Н. Чўлпон. – Т.: Фан, 1991. – 117 б.
- 14.Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Бухоро, 2002.
14. Максуд Шайхзода. Асарлар. 6 томлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969-1974.
15. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиги. – Тошкент: Faafur Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2012.
16. Махмудов Н., Рафиев А., Йўлдошев И. Нутқ маданияти ва давлат тилида иш юритиш. – Тошкент: Чўлпон, 2012.
17. Миртемир. Асарлар. Тўрт жилдлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980-83.
18. Мухтор А. Асарлар. Тўрт жилдлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980-83.
19. Норматов У. Тафаккур ёғдуси. – Т.: Фикр-медиа, 2005.
20. Одил Ёкубов асарлари: Сайланма. Уч томлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985-1987. Диёнат. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
21. Ойбек. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1990-1995.
22. Олимжон Ҳ. Муқаммал асарлар тўплами. 5 жилдлик. – Т.: Фан, 1975-1994.
23. Орипов Абдулла. Тўлиқ асарлар тўплами. Тўрт жилдлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
24. Парфи Рауф. Сабр дарахти. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
25. Пиримқул Қодиров асарлари: Сайланма. Уч жилдлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987-1988. Авлодлар довони. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
26. Расулов Р., Ҳусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент, 2006;
27. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. – Тошкент: Маънавият, 2003.
28. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989.

29. Сайд Аҳмад асарлари: Сайланма. Уч томлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980-1981. Жимжитлик. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
30. Сайдов У. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент: Академия, 2007. –Б. 224.
31. Тоғай Мурод асарлари: От кишинаган оқшом. Қиссалар. – Т.: Шарқ, 1994. Отамдан қолган далалар. Роман. – Т.: Шарқ, 1994. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Роман. – Т.: Шарқ, 2001.
32. Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2006.
33. Холмирзаев Шукур. Уч жилдлик. – Т.: Шарқ, 2003.
34. Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997.
35. Эркин Воҳидов асарлари. Сайланма. Икки томлик. – Т.: Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. Изтироб. – Т.: Ўзбекистон, 1992.

Internet ma'lumotlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro‘yxatga olindi
№ _____
“___” ____ 2018-yil

«TASDIQLAYMAN»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ M.Jumamuratov
«___» ____ 2018-yil

**NUTQ MADANIYATI VA MUTOLAA SAN’ATI
fanining**

ISHCHI FAN DASTURI

Bilim sohasi : 100 000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi: 140 000 – Pedagogika
Ta’lim yo`nalishi: 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

2-bosqich uchun

NUKUS-2018

Fanning ishchi dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi

Tuzuvchi: S.Jalilov
Taqrizchi: E.Xo‘janiyozov

Fanning ishchi o‘quv dasturi O‘zbek tili kafedrasining 2018-yil
dagi ____ - sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet
kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **Sh.Yuldasheva**

Fanning ishchi o‘quv dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama
etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2018-yil ____ dagi
____ sonli bayonnomma).

Fakultet kengashi raisi: **A.Abdiyev**

Ishchi o‘quv dasturi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
O‘quv-metodik kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.

2018- yil “____ ”____ dagi ____ № -sonli majlis bayoni

Kelishildi: O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i **R.Yeshmuratov**

**Nutq madaniyati va mutolaa san'ati fanining
2018-2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan
SILLABUSI**

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Nukus davlat pedagogika instituti		P.Seyitov ko'chasi,nomersiz
Kafedra:	O'zbek tili		Filologiya fakulteti tarkibida
Ta'lif sohasi va yo'nalishi:	100 000 – Gumanitar 140 000 – Pedagogika	5111200 – O'zbek tili va adabiyoti	
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	Katta o'qituvchi Jalilov Sadaddin Alimbayevich	e-mail:	s.jalilov 62@umail.uz
Dars vaqtি va joyi:	-bino ____ - auditoriya	Kursning davomiyligi:	04.09.2018-20.02. 2019
Individual grafik asosida ishslash vaqtি:	dushanba, juma kunlari 16.00 dan 18.00 gacha		
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari Ma'ruba: 26 Labarator 44		Mustaqil ta'lif: 46
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalshtirilgan "O'zbek dialektologiyasi", "Hozigi o'zbek adabiy tili", "Ona tili va adabiyot" kabi fanlar bilan bog'liqdir.		
Fanning mazmuni			
Fanning dolzarbliyi va qisqacha mazmuni:	<p>Fanning predmeti va mazmuni "Nutq madaniyati va mutolaa san'ati" kursi bo'yicha tuzilgan mazkur dastur O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lif yo'nalishi uchun mo'ljallangandir. Unda o'zbek tilining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari, fonetik, grafik, orfografik, leksik, grammatic tizimlaridagi me'yor, nutqning kommunikativ sifatlari bo'yicha nazariy bilimlar berib boriladi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni "norma (me'yor)-uzus" masalalariga, adabiy til va milliy til, adabiy til va dialektlar, adabiy til va jargon-argolar, adabiy til va funksional stillar (vazifaviy uslublar) munosabatiga oid masalalarga munosabat bildirish va bilimlar bilan quollantirish, shu bilimlarga tayangan holda ularga nutq madaniyati va mutolaa san'atining og'zaki va yozma shakllari haqida ma'lumot berish;</p> <p>- sohaga oid adabiyotlar ustida ishslash, asosiy tushunchalar, terminlar va nazariy umumlashmalar bilan tanishish.</p> <p>Fanning vazifasi talabalarga o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar haqida, aynan o'zbek tili va adabiyoti darslari uchun tayyorlanadigan resurslarga qo'yiladigan talablar to'g'risida, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma'lumot berish hamda talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.</p>		

Talabalar uchun talablar	<p>Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar</p> <p>Talabalar fan bo'yicha adabiy til milliy tilning oliv shakli (yuqori bosqichi) ekanligini, uning millat taqdirdagi rolini yaxshi tasavvur qilish; adabiy til taraqqiyotini belgilovchi lingvistik va ekstralengvistik omillar, nutq madaniyati va mutolaa san'ati, uning og'zaki va yozma shakllarini farqlay olish kabi nazariy <i>bilimlarni</i> chuqur o'zlashtirishi talab qilinadi.</p> <p>Talabalar adabiy tilning dialekt va shevalardan, jargon va argolardan farqini, funksional stillar (vazifaviy uslublar) bilan aloqasini bilish; o'zbek tilining fonetik-fonologik, leksik-semantik sathlari nimalardan tarkib topishini, bunday sathlar o'rtasidagi aloqadorlikni, ularning har biridagi strukturaviy va sistemaviy jihatlarni chuqur anglagan va tasavvur qilgan holda adabiy meyor va undan chetlashish <i>ko'nikmasiga</i> ega bo'lishlari lozim.</p> <p>Nazariy ma'lumotlarga tayangan holda badiiy adabiyotlardan adabiyotlar toplash va ularni tahlil qilishni o'rganish; faktik materiallar asosida ma'lum nazariy xulosalar chiqara bilish malakasiga ega bo'lishlari talab qilinadi.</p> <p>bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;</p> <ul style="list-style-type: none"> ○ zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish; ○ multimedia darsliklarining turlari va tuzilishini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - o'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish; - elektron ta'lim resurslaridan oqilona, samarali foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	<p>Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqtiga soat 15.00 dan 18.00 gacha</p>

Fan mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti:

No	Mavzular	Ma'ruza
1	Nutq madaniyati va notiqlik san'ati fanining obyekti, maqsad va vazifalari. Nutq madaniyati tushunchasi Nutq madaniyati tarixidan.	2
2	Notiqlik san'ti tarixidan. Qadimgi Rim va yunon notiqligi	2
3	Sharqda voizlik san'ati	2
4	Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari	2
5	Til va nutq munosabati	2
6	Nutqning kommunikativ sifatlari	2
7	Nutqning to'g'ligi, aniqligi	2
8	Nutqning mantiqiyligi, sofligi	2
9	Nutq shakllari va turlari. Og'zaki va yozma nutq xususiyatlari	2
10	Nutq madaniyati va uslubiyat	4

11	Tilning tasviriy vositalari	4
		26

Fan mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti

Nº	Mavzular	Ama liy mash- g‘ulot
